

*Qora Odamların Məktəbi*

S.A. Yessinin



QORA ODAMI



Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ligarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

--	--

9-23

S.A.

10,555





821  
Y36

50.

Rus adabiyoti durdonalari

# SERGEY ALEKSANDROVICH YEŞENIN



UMCAD

## QORA ODAM

*She'rlar va dostonlar*

736


TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

UO\*K 821.161.1-1

KBK 84-5(2Ros-Rus)

Y 36

**Tarjimonlar:** Erkin VOHIDOV, Zikrilla NE'MAT,  
Feruz NE'MATULLAYEV, O'ktam ODILOV



ISBN 978-9943-6583-9-4

© E.Vohidov va b. (tarj.), 2021

© "O'zbekiston" NMIU, 2021



## O'ZIM HAQIMDA

1895-yilning 25-sentabrida Ryazan guberniyasi Ryazan uyezdi Kuzmin bo'lisi Konstantinovo qishlog'ida dunyoga keldim.

Ikki yoshimda ona tomondan o'ziga to'q buvam tarbiyasiga berilgan ekanman. Bolaligim buvamning uch nafar bo'z o'g'li bilan o'tdi. Tog'alarim o't-olov, yerga ursa, ko'kka sapchiydiganlar xilidan edi. Uch-to'rt yoshimda yaydoq otga o'tqazib, yerga chalpak bo'lgudek alfozda chopishimni maroq bilan tomosha qilishgan. Yodimda, esxonam chiqib, otning yoliga yopishgandim o'shanda. Keyin suzishni o'rgatishdi. Sasha tog'am meni qayiqqa solib, qirg'oqdan uzoqlashdi, so'ng kiyimlarimni yechvolib, suvga kuchukdek uloqtirdi. Men jon talvasasida qo'llarim bilan suvni shaloplatardim. Og'zi-burnimdan suv kirib yotibdi-yu, tog'am bo'lsa: "Lapashang! Suzishniyam bilmaysan-a!" – deb baqirardi. "Lapashang" – erkalagani edi. Sakkizni qoralab, boshqa bir tog'amga ovchi it o'rnida hamrohlik qildim, dastyor bo'lib, otib tushirilgan o'rdaklarni ko'ldan olib chiqardim.

Teng-to'shlarim orasida to'daboshi edim, mushtlashuvlarda menga bas keladigani yo'q, hamisha yuz-ko'zim mo'mataloq yurardim. Shumtakaligim uchun faqat buvimdan dakki yerdim. Buvam esa o'zi bezorilikka o'rgatardi. "Sochi uzun, aqli kalta xotin, uni hadeb urishaverma, ko'p mushtlashsa, botir yigit bo'ladi", derdi buvimga. Mehridaryo buvim meni yer-u ko'kka ishonmasdi. Shanba kuni meni cho'miltirib, tirmoqlarimni olar, boshimga moy surtardi – patila sochimni taroq bilan yotqizib bo'lmasdi-da. Lekin moy ham kor qilmasdi. O'zimni so'kinishdan tiyolmasdim. Hatto hozir ham o'sha shanbalarni eslasam, ko'nglim xijil tortadi. O'spirinlikka qadam qo'ygan paytim, qishloq muallimi bo'lsin, deb cherkov o'qituvchilar maktabiga berishdi. Maktabni tugatib, Moskva o'qituvchilar institutiga kirishim kerak edi. Xayriyat, bunday bo'lmadi.

Asli, barvaqt – to‘qqiz yoshimdan she‘r yozganman, lekin ijodga o‘n olti-o‘n yetti yoshimdan jiddiy qaray boshladim. O‘sha yillarda yozilgan ayrim she‘rlarim “Radunitsa” to‘plamiga kiritilgan.

O‘n sakkiz yoshimda jurnallarga she‘rlarimni paydar-pay yubordim, ammo birortasi chop etilmaganidan hayron bo‘lib, Peterburgga otlandim. U yerda meni quchoq ochib kutib olishdi. Dastlab Blok, keyin Gorodetskiy bilan tanishdim. Blok bilan ilk uchrashuvda peshonamdan reza-reza ter chiqqandi – tirik shoirni birinchi marta ko‘rib turgandim-da. Gorodetskiy meni Klyuyev bilan tanishtirdi, ilgari uning nomini hatto eshitmagandim. Garchi ichki ziddiyatlarimiz bo‘lsa-da, Klyuyev bilan qalinlashib qoldik.

Shu yillarda Shanyavskiy universitetiga kirdim, biroq u yerda yarim yil tahsil olib-olmay qishloqqa qaytdim.

Universitetda Semyonskiy, Nasedkin, Kolokolov, Flipchenko singari shoirlar bilan tanishdim.

Zamondosh shoirlardan menga ko‘proq Blok, Bely va Klyuyev ma‘qul bo‘lgandi. Belydan shakl borasida, Blok va Klyuyevdan lirika borasida talay narsa o‘rgandim.

1919-yili do‘stlarim bilan birga imajinizm manifestini e‘lon qildik. Imajinizm biz yaratmoqchi bo‘lgan yangicha shakl maktabi edi. Lekin bu maktabning tuprog‘i yengil bo‘lgani sababli, o‘zidan bilinar-bilinmas iz qoldirdi-yu, tarix sahifasidan o‘chib ketdi.

Bir qator diniy she‘r va dostonlarimdan bajonidil voz kechganman, lekin ular ham inqilobgacha shoir sifatida shakllanishimda ahamiyat kasb etgan.

Sakkiz yoshimdan buvim qo‘limdan yetaklab monastirlarga olib borar, mehmondo‘stligidan uyimizdan daydi qo‘noqlar arimasdi. Turli-tuman diniy she‘rlar o‘qilardi. Buvam buning teskarisi edi. Ichkilikka suyagi yo‘q, nikohsiz to‘ylarga bosh-qosh edi.


Tarki odat – amrimahol, qishloqdan ketgach ham, ko‘p mahal-gacha o‘sha hayot tarzidan voz kecholmay yurdim.

Oktabr to‘ntarishi yillari butunlay inqilob tomonda bo‘ldim, lekin voqealarga o‘zimcha – dehqon nuqtayi nazaridan yondashdim.


Endi meni ko‘proq Pushkin shakliy o‘yinlari bilan o‘ziga ohan-rabodek tortmoqda.

Tarjimayi holimga oid boshqa ma‘lumotlarni she‘rlarimdan topasiz.

*Sergey Yesenin. 1925-yil, oktabr*







*(Erkin VOHIDOV tarjimalari)*





## ONA IBODATI

Qishloqning bir chetida  
Pastakkina uy turar,  
Sajda qilib shu uyda  
Onaizor o'ltirar.

Yolg'iz o'g'lin eslar u  
Yonib achchiq firoqda,  
O'g'li esa yurt uchun  
Jang qiladi yiroqda.


Ona sajda qiladi,  
Ko'z yoshlari shashqator.  
Bir nuqtaga tikilgan,  
Xayolida nelar bor?

Ko'z oldiga keladi:  
Keng dala – jang maydoni.  
Jonsiz yotar maydonda  
Mard o'g'li – pahlavoni.

Ko'kragida jarohat,  
Qop-qora qon har yog'i.  
Qolmish jonsiz qo'lida  
Dushmanining bayrog'i.

Ona yuzin qoplar g'am,  
Chimirgancha qoshini.  
Asta suyar qo'liga  
Oppoq sochli boshini.

Yurak dardi yosh bo'lib,  
To'lib kelar ko'ziga.  
Marjon-marjon tomchilar  
Oqib tushar yuziga.



## IT HAQIDA DOSTON

Quyosh o'ynar javdar xirmonda,  
Chiptalarda nuri tilla rang.  
Bolaladi ona it tongda,  
Yetti kuchuk tug'di mallarang.

Yuvib-tarab tillari bilan,  
Oqshomgacha erkaladi u.  
Ona itning issiq bag'ridan  
Qor ustida erib oqdi suv.

Oqshom payti, tovuqlar endi  
Qo'nog'iga tizilishgan dam  
Uy egasi xo'mrayib keldi,  
Qopga soldi yettovini ham.

Sho'rlik ona chopdi ketidan,  
Uzoq-uzoq quvlab bordi u.  
Muzdek terlar oqib etidan,  
Achchiq-achchiq uvlab bordi u.

Botqoqlardan kechib o'tdi loy,  
Oyoqlari toldi, urindi.  
Qaytar ekan, tom ustida oy  
Bolasiga o'xshab ko'rindi.

Sho'rlik yana bolasin so'rab,  
Ko'kka boqib uvladi xasta.  
Yangi oy ham asta g'ildirab  
Tushib ketdi ufqdan pastga.

Bechoraga ermaklab, kulib,  
Non o'rniga otilgandek tosh,  
It ko'zidan yulduzlar bo'lib  
Qorga oqdi tomchi-tomchi yosh.

Tongda meni uyg'ot ertaroq,  
Mehribonim, mushfiq onajon!  
Men yo'llarga ko'z tutay mushtoq,  
Bizning uyga kelmoqda mehmon.

O'rmon ichra bugun, onajon,  
G'ildirakning izlarin ko'rdim.  
Yillar uni aylab zar kamon,  
Tortqilagan kezlarin ko'rdim.

Erta tongda mehmon keladi,  
Oy shapkasin boshga qo'yib dol.  
Uchqur oti ravon yeladi,  
Kokillari tovlanadi ol.

Meni sahar uyg'ot, onajon,  
Chiroqlarni yoqib qo'y hozir.  
Deydilarki, bo'lmog'im ayon  
Rossiyada shuhratli shoir.

She'r aytaman mehmonga ul dam,  
Senga, onam, o'sgan yerimga.  
Sahar turib soqqan suting ham  
Quyiladi mening she'rimga.

Go'daklikdan ma'lum har odam,  
Bola boshdan degan gap to'g'ri.  
Mabodo men shoir bo'lmasam,  
Bo'lar edim bezori, o'g'ri.

Jikkakkina shum bola edim,  
Tengdoshlarim ichra "qahramon".  
Qaytar edim ko'chadan doim  
Burnim pachoq, usti boshim qon.

Qo'rqib ketgan onam qoshida  
Derdim tutib o'zimni mahkam:  
"Hechqisi yo'q. Qoqildim toshga,  
Ertagacha qolmas o'rni ham".

Yillar o'tdi, ketdi bolalik,  
Nihoya yo'q armonlarimga.  
Yoshlikdagi sho'xlik, olovlik  
Ko'chdi she'r-u dostonlarimga.

Bolaligim ketdi borini  
Satrlarda qoldirib butun.  
She'rlarimda shum, bezorining  
Xislatlari aks etar bu kun.

Mag'rurligim hamon qolmagan,  
Hamon baland o'tli ko'kragim.  
Bolalikda burnim qonagan,  
Bugun esa qondir yuragim.

Mendan kulgan to'da qoshida  
Deyman tutib o'zimni mahkam:  
"Hechqisi yo'q! Qoqildim toshga,  
Ertagacha qolmas o'rni ham".



Meni so'kmang! Bo'lar ish bo'ldi,  
So'z sotuvchi sa'dogarmasman.  
Oltin boshim quyi egildi,  
Bu dunyodan sovidim, bas, man.

Shaharda ham qolmog'im mahol,  
Na qishloqqa mayl sezarman,  
Bir yo'l qoldi: o'stirib soqol,  
Rossiyani daydib kezarman.

Xayr, deyman doston, she'rlarga,  
Yo'lga to'rva olurman, xolos.  
Ko'chadagi bir darbadarga  
Shamollar ham qo'shiq aytar soz.

Piyoz, turup hidin taratib  
Bilganimni qilib yurarman.  
Burnim oqsa, yengimga artib,  
Peshonamda borin ko'rarman.

Qor quyunin tinglarman behis,  
Baxt kerakmas bundan ziyoda.  
Bunday ajib turfa hislarsiz  
Yashamasman yorug' dunyoda.

Aldamasman o'zimni bu kun,  
Yuragimda uqubatli g'ash.  
Bezori deb nom oldim nechun?  
Nega nomim bo'ldi janjalkash?

O'g'ri bo'lib o'rmon kesmadim,  
Bo'yamadim qo'limni qonga.  
Aybim faqat ko'cha kezganim,  
Jilmayganim o'tgan-ketganga.

Men maskovlik bir dalli yigit,  
O'zimga xon, tanti, chapani.  
Ko'chadagi har bir daydi it  
Yurishimdan taniydi mani.

Tverskoyda ko'rib yiroqdan,  
Bosh irg'ashar menga otlar ham.  
Jonvorlarga yaxshi o'rtoqman,  
She'rim ular dardiga malham.

Boshimdagi bul silindrim  
Jononlarga yoqish uchunmas.  
Unda berib baytallarga yem,  
Chaynashiga qilurman havas.

Odamlardan yuvdim ilgimni,  
O'z do'stlarim sari intildim.  
Eng chiroyli galstugimni  
Kuchuklarning bo'yniga ildim.

Endi darddan xoliman bu kun,  
Dilimda yo'q uqubatli g'ash.  
Aldoqchi deb nom oldim shu-chun,  
Shu-chun nomim bo'ldi janjalkash.

Bas! Bo'lar ish bo'ldi, kerakmas,  
Qaytmas bo'ldim endi yurtimga.  
Yaproqlari qanot' teraklar  
Soya solmas endi ustimga.

Pastak kulbam bukchayar mensiz,  
O'lib bo'lgan qari itim ham.  
Maskovning bir burchida, essiz,  
Zavol topmoq chog'i nasibam.

Bu shaharga bo'ldim men shaydo,  
Garchi ko'hna, ko'rimsiz makon.  
Mudrab yotgan oltin Osiyo  
Gumbazlarda bo'lur namoyon.

Tunda esa oy nur sochgan dam  
Go'yo... bilmam, nima singari...  
Bosh eggancha tashlayman qadam  
O'sha tanish mayxona sari.

Meni kutar bu dahshat maskan,  
Bunda tunni ulab saharga,  
May ichaman o'g'rilar bilan,  
She'r o'qiyman fohishalarga.

Kayf tumani chulg'aganda men  
Faryod bilan ochaman ko'nglim:  
"Men ham sizdek gumroh bandamen,  
Mening ham yo'q qaytarga yo'lim".

Pastak kulbam bukchayar mensiz,  
O'lib bo'lgan qari itim ham.  
Maskovning bir burchida, essiz,  
Zavol topmoq chog'i nasibam.



Bir manzilga borurmiz kam-kam,  
Bir manzilki, halovat hokim.  
Yig'ishtirmoq chog'i menga ham  
Boqiy yo'lga do'kon-dastgohim.

Ey, siz, suluv, oppoq qayinlar,  
Ey, sen, zamin, bog'lar, barxanlar.  
Ketayotgan saflarga qarab  
Yuragimga cho'kar armonlar.

Men o'zimcha ko'p o'ylar surdim,  
O'z haqimda she'r aytdim talay.  
Baxtlimanki, yashadim, ko'rdim,  
Bu dunyoga keldim harqalay.

Baxtlimanki, sevdim, intildim,  
Quloch yozdim chechaklar aro.  
Jonvorlarni ukam deb bildim,  
Boshlariga urmadim aslo.

Bilmayman, ul manzilda balqib  
Yotmas oqqushbo'yin boshhoqlar.  
Ketayotgan saflarga boqib  
Shundan menda alam, qiynoqlar.

Bilamanki, o'shal ma'voda  
Bu kengliklar bo'lmas, shubhasiz.  
Shuning uchun menga dunyoda  
Yashayotgan odamlar aziz.

## SOVET RUSI

Bo‘ron tindi. Bizlar,  
Kam qoldik omon.  
Do‘stlar davrasida ko‘plar yo‘q endi,  
Qaytdim g‘arib qolgan maskanim tomon,  
Sakkiz yil ko‘rmagan bu go‘sha meni.

Kimni chorlay?  
Kimga tirik qolganim –  
Ayanch shodligini aylayin bayon?  
Bir qanoti singan ulkan qush kabi  
Noxush boqar bunda hatto tegirmon.

Bu yerda hech kimsa tanimas meni,  
Yodida borlar ham endi unutgan.  
Men uchun qadrdon uyning o‘rnini  
Qoplagan qora kul,  
Yo‘l ko‘targan chang.

Hayot esa qaynar,  
Atrofim – odam.  
Yosh-u keksalardan ko‘zni olmayman.  
Lekin tanish bir yuz uchratolmayman,  
Maskan topolmayman nigohlardan ham.

Boshimni o‘y chulg‘ar,  
O‘ngmi bu, ro‘yo?  
Vatanim shu qadar o‘zgarmish hozir.  
Men o‘z qishlog‘imda turibman, go‘yo  
Uzoq bir o‘lkadan kelgan musofir.

Men, axir,  
Shu qishloq fuqarosiman,  
Ha, u mashhur bo‘lsa ajabmas bir kun,  
Allaqanday ayol bunda bir zamon  
Janjalkash shoirni tuqqani uchun.

Lekin aql so‘rar qalbdan hamisha:  
“Ne uchun bo‘lursan  
Bunga norizo?”  
Yangi avlodning ham kulbasi o‘sha,  
Lekin bu kulbada yangi bir ziyo.  
Balki sen yuz tutding xazon fasliga,  
Tingla, bo‘lak yoshlar bo‘lak kuy aytar.  
Bir qishloq Vatanmas zamon nasliga,  
Ular Vatan deya yer yuzin atar.

O, yurtim!  
Kulgulik holdaman bugun,  
Or o‘ti lovillar ol yonog‘imda.  
Go‘yo ona tilim menga yot butun,  
Go‘yo kelgindiman o‘z qishlog‘imda.

Mana, yakshanba kun,  
Butun bir qishloq.  
Bo‘lisga to‘plangan – johil, qiziqqon.  
So‘kinib, tupurib alamli, qashshoq  
Turmush to‘g‘risida bahs qilar dehqon.

Cho‘loq bir askarga tikilgan ko‘zlar!  
U mag‘rur gap boshlar ko‘rgan ishidan!  
Kerilib Budyonniy haqida so‘zlar,  
So‘zlar Perekopning olinishidan.

“Mana shunday, bizlar qildik lolarang  
Burjo‘y qoni bilan Qrim yoqasin...”  
Quloq – bargin tutib tinglaydi zarang,  
E voh, deb xotinlar tutar yoqasin.

Mana, ko‘ring qishloq yigitchalarin,  
Bular komsomollar – marsh bilan kelar.  
Garmonni yangratib baralla ular  
Kuylar Bedniy Demyan “agitka”larin.

Mana, diyor  
Menga shunday ko'rindi,  
Kuylardim, men deya xalq birla hamdam.  
Bunda mening she'rim kerakmas endi,  
Kerakmasman balki endi o'zim ham.  
Netay, mayli,  
Kechir meni, jon o'lkam,  
Senga xizmat qildim – shundan mamnunman.  
Mayli bugun meni kuylashmasa ham,  
Men kuylagan chog'da majruh eding sen.

Barin qabul qildim,  
Neki bor bugun.  
Yurgayman ne desa bu yangi dunyo.  
Qalbim, jonim beray Oktabr uchun  
Va lekin sozimni bermayman aslo!

O'zganing qo'liga bermayman uni,  
Na onam, na do'stim, na sevganimga!  
U menga ishongan o'z ovozini,  
Men esa ishonmam uni hech kimga.

Yashang, o'sing, yoshlar!  
Sog' bo'ling, durkun.  
Men o'zga olamman, siz o'zga olam.  
Uzoq ellar tomon yo'l olgum bugun,  
Manguga ko'milgay qalbimda alam.

Lekin yillar o'tib  
Olamda bir kun  
Yo'qolganda yolg'on,  
Kulfat va urush,  
Kuylayman dunyoning  
Oltidan birin  
Muxtasar nom bilan  
Atab uni "Rus!"

## KAVKAZ

Tinch qo'ymagan rus she'rin Parnas  
Yiroqlarga chorlab doimo.  
Baridan ko'p o'zing, ey, Kavkaz,  
Jarang solding tumanlar aro.

Otash yonib qaynoq qonida  
Pushkin bitgan quvg'inda ash'or:  
"Qo'y, kuylama mening yonimda  
G'amgin gurji qo'shig'in, dildor!"


Lermontov ham qo'yingda bir vaqt  
Sog'inch dardi bilmay nihoya,  
Go'zal Bella, Kazbich, Azamat  
To'g'risida qilgan hikoya.

To'lib oqqan daryoga qiyos  
To'ldirganda hasrat yuragin,  
U shoir-u ofitserga xos  
Do'st o'qiga tutdi ko'kragin.

Bunda shoir Griboyedov –  
Eroniyalar shahid qilgan jon –  
Mungli surnay, torni eshitib  
Tog' bag'rida uxlaydi hamon.

Men ham keldim bag'ringga, ammo  
Kelmog'imning boisin bilmam.  
Qabrlarga yosh to'karman yo  
Shundamikan qabrim mening ham?

Mayli, netay?! Bugun uyimda  
O'sha buyuk insonlar paydo.  
Ular sening asov soylaring  
Suronidan topolgan davo. № 2021/p 9-23.



Yurmoq uchun yovlardan nari,  
Bo'lmoq uchun do'stlardan yiroq,  
Ona yurtin tark etib bari,  
Tog'lar bilan bo'ldilar o'rtoq.

Qochib keldim men ham ulardan,  
Ul hayotga qaytmam umrbod.  
Endi yangi, vazmin va ulkan  
Mavzularda boshlagum ijod.

Kuychilar ko'p Rusda otashin,  
Mayakovskiy ham zo'r shoir.  
Mosselprom probkalarin  
She'rga solib turgandir hozir.

Ladogalik so'fi Klyuyev,  
She'ri xuddi paxtalik chopon.  
Yozganini bulbul eshitib  
Qafasida o'lar begumon.

Boshqalarni hatto gapirmam,  
Qish oftobin emgan g'o'raklar.  
Ular – qog'oz bo'yamoqning ham.  
Uddasidan chiqmas so'taklar.

Kavkaz, sendan so'rayman izn,  
Qo'y, ulardan so'zlamaylik, qo'y.  
Kel, she'rimga shafaqday qizil  
Mevalaring sharbatidan quy.

Toki qaytib ona shahrimga  
Go'zal doston aylayin ijod.  
G'am-hasratlar chiqsin bag'rimdan,  
Ul hayotga qaytmay umrbod.

Bu dunyodan ketar onimda  
So'ngi marta qilayin takror:  
"Qo'y, kuylama mening yonimda  
G'amgin gurji qo'shig'in, dildor!"



## YIGIRMA OLTILAR BALLADASI

Kuyla, shoir, kuylagil,  
Kuylagil takror,  
Bugun osmon gumbazi  
Naqadar zangor.  
Kuyla, moviy dengiz ham  
Kuy to'qir bugun  
Yigirma olti nafar  
Mard o'g'lon uchun.  
Yigirma olti o'g'lon –  
Mangu o'lmas jon.  
Ular qabrin ko'molmas  
Qumlar hech qachon.  
Odamzodning yodidan  
Chiqmagay oson –  
Ikki yuz yettinchi  
Chaqirimdagi qon.  
Uzoq dengizlar uzra  
Hilpirar tuman,  
Bosh ko'tarar qumloqdan,  
Qara, Shaumyan.  
So'ngaklar sadosidan  
Uyg'onadi cho'l.  
Qumlardan ko'tarilar  
Yana ellik qo'l.  
Chiqib kelishar tirik,  
Salomat, omon –  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o'g'lon:  
“Qani, yurdik, deydilar,  
Bokuga tomon,  
Hali tuman pardasi  
Suzar har yonda.  
Boqaylik-chi, nima gap  
Ozarboyjonda”.

Ko'kda oyni qovundek  
Yumalatar tun.  
Qirg'oqlarga urilib,  
Pishqirar to'lqin.  
Ularni mana shunday  
Zim-ziyo tunda  
Inglizlar beshafqat  
Otdilar bunda.  
Kommunizm – adolat  
Va erk bayrog'i.  
Erk deb qo'zg'aldi buyuk  
Yurtning har yog'i,  
Imperiyaga qarshi  
Kurashda mahkam  
Safga turdi dehqon ham,  
Proletar ham.  
Dvoryanning boshida  
O'ynagan qilich –  
Bor edi bizning jiddiy  
Otamiz Ilich.  
Sharqning Ilichi edi  
Bular begumon –  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o'g'lon.

Odamlarning yodidan  
Chiqmagay hech vaqt  
O'n sakkizinchi yilda  
Yurt chekkan zahmat.  
Jahonning burjo'ylari  
Bo'lib bir tomon –  
Ozarboyjon ko'ksini  
Qildilar nishon.

U zamonda Kommuna  
Hali edi yosh.  
Berolmadi bu o'lka  
Yovlarga bardosh.



Lekin barchasidan ham  
Dahshat naqadar –  
Yigirma olti o‘g‘lon  
Haqdagi xabar:  
Qumlar xuddi erigan  
Mumlar singari,  
Krasnovodskdan  
O‘tdilar nari.  
Birov qilichga uchdi,  
O‘q yedi birov,  
Qonga beladi barin  
Tunda vahshiy yov.  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o‘g‘lon.  
Qabrlarin ko‘molmas  
Qumlar hech qachon.  
Odamzodning yodidan  
Chiqmagay oson  
Ikki yuz yettinchi  
Chaqirimdagi qon.

Uzoq dengizlar uzra  
Hilpirar tuman.  
Bosh ko‘tarar tuproqdan,  
Qara, Shaumyan.  
So‘ngaklar sadosidan  
Uyg‘onadi cho‘l.  
Qumlardan ko‘tarilar  
Yana ellik qo‘l.  
Chiqib kelishar tirik,  
Salomat, omon  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o‘g‘lon.

Tim qora libos kiygan  
Tun ham qayg‘uda,  
Yigirma olti sharpa  
Kezar Bokuda.

Yigirma olti soya  
Kezadi har yon.  
Ular tufayli bu g'am,  
Bu mungli doston.

Esgan na shabbodadir,  
Suzgan na tuman.  
Sukut saqlab quloq sol –  
So'ylar Shaumyan:  
“Japaridze, ko'r, do'stim,  
Bu qanday zamon,  
Ishchilarning qo'lida  
Ko'rmoqdaman non.  
Yerning qora qoniday  
Neftlar oqmoqda.  
Parovozlar, kemalar,  
Qara, har yoqda –  
Ular yurt bo'ylab kezar  
Kecha-yu kunduz,  
Manglayida bizlarning  
Qip-qizil yulduz”.

Japaridze do'stiga  
Deydi: “Ha, ishon,  
Bular bari bizlarning  
Zafardan nishon.  
Demak, ishchilar sinfi  
Yurtda mustahkam.  
Kavkazni qo'lda tutib –  
Turibdi mahkam.

Qara, oyni qovundek  
Yumalatar tun.  
Qirg'oqlarga urilib,  
Pishqirar to'lqin.  
Bizlarni mana shunday  
Zim-ziyo tunda

Inglizlar beshafqat  
Otdilar bunda”.

Kommunizm – adolat  
Va erk bayrog‘i.  
Erk deb qo‘zg‘aldi buyuk  
Elning har yog‘i.  
Imperiyaga qarshi  
Kurashda mahkam  
Safga turdi dehqon ham,  
Proletar ham.  
Dvoryanning boshida  
O‘ynagan qilich –  
Bor edi bizning jiddiy  
Otamiz Ilich.  
Sharqda-chi, bular edi,  
Bular, begumon,  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o‘g‘lon.

Moviylashib dilxasta,  
Yorishar sahar,  
Tinchib qolar ohista  
Aziz soyalar.  
Yigirma olti nafar  
Bahodir o‘g‘lon  
Yo‘l olishar orqaga –  
Aych-Kuyma tomon.  
Kuyla, shoir, kuylagil,  
Kuyla yana bor.  
Bugun osmon gumbazi  
Naqadar zangor.  
Kuyla, moviy dengiz ham  
Kuy to‘qir bugun  
Yigirma olti nafar  
Mard o‘g‘lon uchun.

## STANSLAR

*P. Chaginga bag'ishlanadi*

O'zimga ravshandir  
O'z iqtidorim.  
She'r yozish unchalik qiyin ish emas.  
Lekin yuragimni  
Ona diyorum  
Sevgisi yondirar, o'rtar har nafas.

She'r nima degan gap,  
Oppa-oston-ku,  
Oy, yulduz, jononni har kim ham yozar.  
Lek dilni kemirar  
O'zgacha tuyg'u,  
O'zgacha xayollar  
Boshimni ezar.

Shoir bo'lsam deyman,  
Ham grajdanin,  
Faxr, o'rnak bo'lgudek  
Elning bariga.  
O'gay o'g'il emas,  
Farzand bo'lsam chin  
Men buyuk SSSR shtatlariga.

Moskvadan ketdim  
Endi anchaga,  
Kelisha olmadim  
Militsiya bilan.  
Oldi meni bular  
Zo'r iskanjaga,  
Pivo icholmaysan  
Bular dastidan.

Rahmatlar aytaman  
O'sha do'stlarga.

Lekin juda og'ir  
Taxtada uxlash,  
Yurak to'lib ketar mungli hislarga,  
Tutqun qush haqda she'r  
O'qiysan dil g'ash.

O'rgatilgan qushmas,  
Shoirman, axir.  
Qandaydir Demyanlar tengi emasman.  
Mayli-da, garchi men gohi sarmastman,  
Lekin mo'jiziy nur ko'zimda zohir.

Men bilib turibman,  
Ko'rib ham sezib:  
Davr ko'kdan yog'dirmas  
Patir nonini.  
Elda Lenin nomi  
Shamoldek kezib,  
Yurgizmoqda onglar  
Tegirmonini.  
Davringiz kelibdi,  
O'rgating menga.  
Siz menga tog'asiz,  
Jiyanman bu choq.  
"Sergey, o'qish qoldi  
Marksni senga –  
Zerikarli so'zlar  
Mag'zini chaqmoq".

Kunlar tog' soyidek  
Tez oqar juda,  
Shaharlar harflardan  
Lipillar betin.  
Kecha Moskvadaydim,  
Bugun Bokuda,  
Serg'ulu konlarga  
Yetaklar Chagin.

“Qara, – deydi menga, –  
Neft – fontanlar  
Cherkov qubbasidan’  
Go‘zal-ku, qara!  
Bizdan yiroq bo‘lsin  
Mistik tumanlar,  
Kuyla, shoir, bugun  
Ne bo‘lsa sara”.

Suvda neft go‘yo  
Eroniy gilam.  
Yulduzlar ko‘k yuzin  
Qilmoqda pardoz.  
Men qalbdan tayyorman  
Ichmoqqa qasam.  
Boku chiroqlari  
Yulduzlardan soz.

Inson qudratiga  
Qoyilman, elning  
Sanoiy kuchiga  
Deyman tasanno.  
Osmon yulduzlarin  
Qo‘yaylik endi,  
Yerni porlatgumiz  
Osmondan a‘lo.

Boshni qashlamoqqa  
Gal keldi menga,  
Xayolda o‘zimga  
So‘zlayman bu chog‘:  
“Sergey, o‘qish qoldi  
Marksni senga –  
Zerikarli so‘zlar  
Mag‘zini chaqmoq”.

## KETAYOTGAN RUS

Anglab yetmaganmiz ko'p narsani biz –  
Lenin zafaridan yetishgan avlod.  
Eskicha aytilar  
Yangi kuyimiz  
Ota-bobolardan qolganicha yod.

Do'stlarim! Do'stlarim!  
Na tarqoq o'lkam,  
Qaynoq bu hayotda nechun g'am deyman,  
Pochamni qaytarib,  
Shaylanib men ham  
Komsomol ketidan yugursam deyman.

Ne tong g'amgin bo'lsa o'tayotganlar,  
Yoshlarga yetmoqdan  
Keksalar mahrum,  
Ular o'rilmagan javdarga o'xshar,  
Chirib yo'qolmoqqa etilgan mahkum.

Men-chi, men yoshmasman,  
Qari ham emas –  
Chirib yo'qolgudek bu zamonada.  
Shuning-chun ham balki sharobxonada  
Gitara ohangi qilar meni mast.

Kel, jonim gitaram.  
Yangragin bugun!  
Lo'li qiz, sho'x bo'lsin chalgan kuylaring.  
Toki unutayin  
Og'uga to'la  
Ardoqsiz, oromsiz o'tgan kunlarim.

Nega sovetlarni ayblagayman,  
Nega undan rizo bo'la olmadim.  
Chunki o'zgalarning kurashida men  
Porloq yoshligimni ko'ra olmadim.

Men nimalar ko'rdim?  
Jang ko'rdim faqat.  
Qo'shiqlar o'rniga  
Tingladim suron.  
Qayga bosh uray deb besabr-u toqat  
Butun kurra bo'ylab yugurdim giryon.

Lekin men baxtliman,  
Bo'ronlar aro  
Umrbod o'chmagay hislar topoldim.  
Men o'z taqdirimni mangu beorom  
Quyunlar libosi birla yopoldim.

Yangicha emasman,  
Yashirmoq nega?  
Bir oyog'im mening  
O'tmishda hamon.  
Intilib davrning po'lat safiga  
Bul oyoq toydirar meni beomon.  
Lekin baxtsizlar bor,  
Unut bo'lgan jon.  
Yurmoqni bilmaslar dadil qay sari,  
Goh u yon urarlar,  
Goh o'zni bu yon –  
G'alvir ustidagi kepak singari.  
Ularni bilaman,  
Ko'rganman ko'p bor,  
Sigirning ko'ziday ko'zlari suzuk.  
Balki qonlarin ham  
Qoplagan mog'or,  
Po'panak bosgandek botqoqlik yuzin.

Ayting-chi, kim otar  
Bu botqoqqa tosh?  
Zinhor ota ko'rmang  
Qo'zg'ab bo'yi bad.  
Vaqt o'tar,



Ularni quritar quyosh,  
Kuzda xazon qoplab yo'qolar abad.

Yana odamlar bor –  
Chetdan ko'z tashlab  
Davr odimini ko'rurlar olddan,  
Bundaylar orqasi,  
Oldini qashlab  
So'z ochib qoladi yangi hayotdan.

Xayolga cho'mganча  
Quloq solib ul –  
Yupun dehqonlardan eshitaman so'z:  
“Sovet hukumati bizlarga ma'qul,  
Ko'proq bo'lsa qani endi mix va bo'z”.

Shumi istak,  
Shumi hayotdan talab?  
Bo'lsa bas bularga kartoshka va non.  
Nechun men kechalar baxtini qarg'ab,  
Nechun taqdirimdan  
Bo'ldim pushaymon?

Men havas qilurman  
Buyuk g'oya deb  
Qutlug' jangga kirgan bahodirlarga.  
Men esam  
Yoshlikni yellarga berib  
Bugun egadirman na xotirlarga.  
Naqadar og'ir bu!  
Naqadar og'ir!  
Qanday kirib qoldim bu tor yo'lakka?  
Nima bera oldim  
Xalqimga, axir?!  
Imkonim yo'qmidi bundan bo'lakka?!

Kel, jonim gitaram,  
Yangragin bugun,  
Lo'li qiz, sho'x bo'lsin chalgan kuylaring.  
Toki unutayin  
Og'uga to'la  
Ardoqsiz, oromsiz o'tgan kunlarim.

Bilaman,  
May ichra cho'kmas sira g'am.  
Dilga orom bermas  
Safar ham deyman.  
Pochamni qayirib  
Shaylanib men ham  
Komsomol ketidan yugursam deyman.



## AYOLGA MAKTUB

O'sha kun, albatta,  
Yodingizdadir,  
Burchaka qisilib  
Ojiz turganim.  
G'azabnok edingiz  
Va g'oyat og'ir –  
So'z bilan urdingiz  
Betimga manim.

Dedingiz:  
Bas, yetar,  
Ajramoq kerak.  
Betartib umrimdan  
Toqatingiz toq.  
Izlamoq bo'ldingiz  
Oqilroq erkak.  
Mening qismatim-chi,  
Tubanlab ketmoq.

Men sizni sevardim,  
Siz esa aslo  
Parvo qilmasdingiz.  
Men edim behol –  
Shaddod bir suvoriy  
Xaloyiq aro  
Qamchilab choptirgan  
Sho'rlik ot misol.

Siz bilmas edingiz,  
To'fonda, axir,  
Meni o'z bag'riga tortganin girdob.  
Qayon eltmoqdadir  
Bizlarni taqdir,  
Bilolmay chekardim  
Achchiq iztirob.

Yuzni ko'rmoq qiyin  
Boqib yaqindan,  
Har narsa yiroqdan ko'rinar ayon.  
Dengiz harakatga  
Kelsa to'liqindan,  
Bilingki, kemanding ahvoli yomon.

Yer katta kemadir,  
Kimdir nogahon  
Yangi hayot uchun,  
Yangi shon uchun.  
Bu ulkan kemani  
Dahshatli bo'ron  
To'liqlar qo'yniga  
Yo'lladi bugun.

Kema chayqalarkan  
Notinch dengizda  
Boshi aylanmagan,  
Yiqilmagan kim?  
Juda kam,  
Juda kam  
Bundaylar bizda,  
Ularning idroki  
Qalbiga hokim.

Shunda men  
Xaloyiq shovqini aro  
O'qchigan yuzlarga  
Boqishdan toldim.  
Shunda men toqatsiz,  
Kemanding qaro  
Ostki xonasiga kirib yo'qoldim.

Qahvaxona edi  
Bu ostki xona.  
Shu kundan qadahga

Egildi boshim.  
Dunyoni unutdim  
Tamom mastona,  
May bo'ldi hayotda  
Yolg'iz yo'ldoshim.

Sevgilim!  
Men uchun –  
Qiyningiz ko'p,  
G'amgin ko'zingizdan sezardim buni.  
Axir, men sharobga  
Bosh bilan cho'kib,  
G'avg'osiz o'tmasdi  
Biror bir kunim.

Siz bilmas edingiz  
To'fonda, axir,  
Meni o'z bag'riga  
Tortganin girdob.  
Qayon eltmoqdadir  
Bizlarni taqdir,  
Bilolmay chekardim  
Achchiq iztirob.

Mana, yillar o'tdi,  
Ulg'aydi yoshim.  
Fikr-u hislarim ham  
O'zgacha butun.  
Bayram sharobidan  
Ko'tarmay boshim  
Darg'aga sharaf-shon  
O'qiyman bugun.

Dilni erkalarkan  
Nozik tuyg'ular,  
Sizning tashvishingiz  
Yodimga oldim.  
Shoshaman siz tomon bermoqqa xabar:

Bir zamon kim edim,  
Kim bo'lib qoldim.

Sevgilim!  
Quvonch-la qilurman bayon,  
Men bir tik qoyadan  
Yiqilmay qoldim.  
Sovetlar yurtida  
Endi bu zamon  
Men ashaddiy hamroh  
Nomini oldim.

Men tamom boshqaman,  
Yor bo'lsam bugun  
Sizni qiynamasdim  
Balki u qadar.  
Shonli mehnat uchun,  
Erk va baxt uchun  
Borishga tayyorman  
La-Manshga qadar.

Siz meni kechiring,  
Siz endi boshqa.  
Bugun sizga oqil,  
Jiddiy er hamdam.  
Bizning tashvishlarni  
Urmaysiz boshga,  
Zarra kerakmasman  
Sizga o'zim ham.

Mayli, yashang yangi  
Yorning oldida,  
Baxtli bo'ling, shudir  
Tilagim mening.  
Sizga salom bilan,  
Sizni yodida  
Doim saqlaguvchi

*Sergey Yesenin.*

## ONAMDAN MAKTUB

Endi ne ham o'ylab  
Topadir xayol,  
Javobni o'ylayman  
Chakkamni tutib.  
Stolim ustida  
Yotar xafahol  
Onaginam menga  
Yo'llagan maktub.  
"Ko'zginam to'rt bo'ldi,  
Bolam, kelaqol.  
Yaxshiydi hayitga  
Kelsang, harqalay.  
Otangga ishtonlik,  
Menga jun ro'mol,  
Olakel, bizlarda  
Kamchilik talay,  
Menga sira yoqmas  
Shoirlicing ham,  
Janjalkashlik bilan  
Topgan shuhrating.  
Undan ko'ra omoch  
Haydasang, bolam,  
Obro' keltirardi halol mehnating.  
Men ham qarib qoldim,  
Hech yo'q darmonim.

Oh, sen bo'lsang edi  
Mening yonimda,  
Kelinli bo'lardim.  
So'nggi armonim –  
Nabira suyardim  
Asrab jonimda.  
Sen bola-chaqali  
Bo'lmading, daydi,  
Yuragingni berding

O'zgaga oson.  
Oilang bo'lsaydi,  
Do'sting bo'lsaydi,  
Senga mayxonalar  
Bo'lmasdi makon.  
Jonim bolaginam,  
Ne bo'ldi senga?  
Mo'min-qobil eding  
Bir vaqt naqadar.  
El-yurt havas bilan  
Aytardi menga:  
Aleksandr Yesenin –  
Baxtiyor padar.  
Afsus, niyatimiz  
Bo'lmadi hosil.  
Barbod bo'ldi so'nggi  
Umidimiz ham.

Otang o'ylar edi –  
She'r yozib qoyil,  
Bir dunyo pul topib  
Keladi bolam.  
Ammo sendan bir so'm  
Kelmas, bolajon,  
O'kinchlarimizning  
Bosh sababi shul.  
Xomtama bo'libmiz  
Holingdan ayon:  
To'lamas ekanlar  
She'r yozganga pul.  
Menga sira yoqmas  
Shoirlicing ham,  
Janjalkashlik bilan  
Topgan shuhrating.  
Undan ko'ra omoch  
Haydasang, bolam,  
Obro' keltirardi



Halol mehnating.  
Endi bo'lsa bizni  
Ezdi g'am, alam.  
Ot yo'q,  
Pul yo'q, borib  
Olsak naqd so'mga.  
Uyda bo'lsang edi,  
U zehning bilan  
Rais bo'lar eding  
Volijroqo'mga.  
Boshqacha bo'lardi bizning tiriklik,  
Sarson yurmas eding  
Sen ham yiroqda.  
Xotining yonimda urchuq yigirib,  
Sen bizga qararding qarigan choqda..."

Xatni g'ijimlayman,  
So'z aytmq qiyin,  
Oh, bormi girdobdan chiqmoqqa imkon?!  
Yurak so'zlarimni  
Aytaman keyin.  
Javob maktubimda  
Qilaman bayon.

## JAVOB

Aziz onaginam,  
Bo'lg'in salomat.  
Mehr-u shafqatingni  
Sezib turibman.  
Sen zarra tasavvur  
Qilmassan faqat,  
Nima deb dunyoda  
Yashab yuribman.  
Hozir siz yoqda qish,  
Ayoz kechalar.  
Deraza oldida surarsan xayol,  
Osmonni to'ldirib  
Yog'ilar ukpar,  
Kimdir oq sirenni  
Silkitgan misol.  
Onam!  
Shunday tunda  
Bo'lurmi uxlab,  
Tarnov o'zra shamol  
Chiyillar betin.  
Yotmoqchi bo'lursan,  
Ko'zingga xona  
Tobutdek ko'rinib  
Seskanar eting.  
Izg'irin yig'ichi  
Xotinga o'xshar,  
Mingta d'yak bo'lib  
Cho'zar badkirdor.  
Qor yerga sochadir  
Oppoq tangalar...  
Tobut ortida bor  
Na do'st-u, na yor...  
Menga hammasidan  
Ma'qul navbahor,  
Ko'nglimga munosib

Toshqin shiddati.  
Bunday payt har bir cho'p  
Bir kemacha bor.  
Dala – cheksiz ummon,  
Yo'q nihoyati.  
Barcha ko'klamlardan  
Men sevgan ko'klam –  
Bashar dilidagi  
Buyuk inqilob.  
O'shanga intilib  
Chekarman alam,  
O'shani sevaman,  
Chorlayman shitob.  
Lekin bor muzlagan  
Yer sayyorasi.  
Lenin dahosi ham  
Eritmas darhol.  
Shundan men nolali  
She'r ovarasi.  
Shundan men serjanjal  
Va oshuftahol.  
Onajonim,  
Kelar bizga ham fursat,  
Keladir intizor kutganimiz dam.  
Biz, axir, turibmiz  
Jangga bo'lib taxt,  
Kim zambarak tutib,  
Kim tutib qalam.  
Qo'y, puldan gapirma.  
Mol-mulk na kerak?  
Bu so'zlarni yozgan  
Senmisan, yo Rab:  
Nima, men molmidim  
Va yoki eshak.  
Qoziqdan yechmasa  
Yotguvchi qarab.  
Men o'zim boraman,

Vaqt kelar bir kun,  
Muzlagan kurraga  
To'p otilar chog' –  
Boraman jun ro'mol  
Olib sen uchun,  
Cholga paytavalik...  
Bo'lgin faqat sog'...  
Hozircha izg'irin  
So'fidek cho'zar,  
Yig'ichiga o'xshab  
Uvlar badkirdor.  
Qor yerga sochadir  
Oppoq tangalar,  
Tobut ortida bor  
Na do'st-u, na yor.



## FORS TARONALARI

\* \* \*

Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan,  
Mast vasvasa qo'zg'amas tug'yon.  
Men dardimga Tehron gulidan  
Choyxonada topoldim darmon.

Choyxonachi – barvasta, o'ktam.  
Qoyil qolsin rus, deb, choyimga,  
O'tkir aroq, may o'rniga ham  
Achchiq-achchiq choy tutar menga.

Siyla, mezbon, ammo had bilan,  
Bog'ing aro turfa gullar bor.  
Oqshom menga niqob ostidan  
Dilbar ko'zin suzmadi bekor.

Rossiyada gulday qizlarni  
Tutqunlikda saqlamas erlar,  
Sarmast etar bo'sa bizlarni,  
Bexanjar-u bemakr-u bezar.

Bu tong yuzli dildor qoshimda  
Bir bor xirrom etsa noz bilan,  
Shohi ro'mol solgum boshiga,  
Yo'llariga – sheroziy gilam.

Mezbon, choy quy menga lolagun,  
Shoir senga so'ylamas yolg'on.  
Ehtiyot bo'l o'zingga bugun,  
So'ngra mendan qilmagin gumon.

Eshikka ko'p qarayverma san,  
Gulbog'ingga, baribir, yo'l bor...  
Oqshom menga niqob ostidan  
Bir pari ko'z suzmadi bekor.

Bugun dedim sarrofga atay,  
Alisharkan so'mni tumanga:  
"O'rgat, go'zal La'limga aytay,  
O'rgat sevdim, demoqni manga".

Ul sarrofga dedim bugun men  
Yeldan sokin, jilg'alardan tinch:  
"O'rgat menga, go'zal La'limdan  
Fors tilida so'rayin o'pich".

Yana dedim sarrofga atay  
Hayajonim dilda berkitib:  
"O'rgat, go'zal La'limga aytay,  
O'rgat, aytay "Menikisan", deb".

Shunda menga dedi u, evoh –  
Ishq vasfiga topilmas so'zlar.  
Sevaman der dildan chiqqan oh,  
Yoqut kabi yonguvchi ko'zlar.

So'rma mendan bo'saning ismin,  
Nomi yo'qdir senga aytmogga,  
U keltirib atirgul isin,  
Gulbarg bo'lib qo'nar dudoqqa.

Sevgi dilga bermas kafolat,  
Sevgi baxtga yo dardga yo'llar.  
Menikisan deyolur faqat  
Yuzdan niqob ko'targan qo'llar.

Shahinam, o, mening Shahinam,  
Bilsang, shimol vatandir menga.  
Dalalardan so'ylayman senga,  
Oy nur sepgan boshhoqlardan ham,  
Shahinam, o mening Shahinam.

Bilsang, shimol vatandir menga,  
Unda oy ham yuz bora ulkan.  
Sheroz qancha bo'lmasin ko'rkam,  
Aziz o'lka Ryazandir menga,  
Bilsang, shimol vatandir menga.

Dalalardan so'ylaymi senga?  
Sochim olmish bug'doyidan rang.  
Barmog'ingga o'ra, xohlasang,  
Zarra og'riq sezilmas menga.  
Dalalardan so'ylaymi senga?

Oy nur sepgan boshhoqlardan ham  
Oltin sochim so'ylasin, dildor,  
Kul, o'yna-yu, dalamni zinhor  
Eslatmagin menga, jonginam,  
Oy nur sepgan boshhoqlarni ham.

Shahinam, o mening Shahinam,  
Shimol yoqda bir nozanin bor.  
Senga o'xshar, g'oyatda dildor,  
Balki meni o'ylar ul sanam...  
Shahinam, o mening Shahinam.



Deding: Sa'diy doimo yorning  
Siynasidan olarkan bo'sa.  
Xudo haqqi, shoshma, dildorim,  
Qochmas axir o'rganish bo'lsa.

Deding: – Qur'on so'zi azaldan  
“Alqasos-u minal haq!” Tamom!”  
Men tug'ilgan bo'lsam Ryazanda,  
Qaydan tanish bo'lsin bu kalom?

Sen kuylading: “Front ortida,  
Gullar borki, qizlardan go'zal!”  
Boy bo'lsaydim qo'shiq bobida  
To'qir edim boshqa bir g'azal.

Gar qizlardan bo'lsa ziyoda  
Men gullarni kesardim butkul.  
To ko'rmayin yorug' dunyoda  
Shahinamdan suluvroq bir gul.

O'git bilan qiynama endi,  
O'gitlaring menga ne darkor?!  
Shoir bo'lib dunyoga keldim,  
Shoir kabi o'paman, dildor.





Men Bosforda bo'lmaganman hech,  
Uni so'ylab berolmam senga.  
Lekin moviy ko'zlaring har kech  
Dengiz bo'lib ko'rinar menga.

Qilmaganman Bag'dodga safar,  
Karvon bilan eltmadim xino,  
Ammo bir zum tin olsam netar  
Tizzangga bosh qo'yib, dilrabo!

Shafqat ayla, jonginam, derman,  
Ham qilurman qancha iltijo,  
Rossiyada mashhur shoirman,  
Nechun zarra qilmaysan parvo?!

Kuy taratar qalbimda garmon,  
Qaydadir it hurar oydin kech,  
Eron qizi, moviy, bepoyon  
Yurtni ko'rging kelmaydimi hech?

Bunda ko'ngil yozgani emas,  
Izlab keldim xayolan seni.  
Oqqushqanot qo'llar har nafas  
Og'ushiga chorladi meni.

Nolishim yo'q o'tgan umrimdan,  
Ammo horg'in dil izlar orom.  
Dilbar, menga quvnoq yurtingdan  
Biror narsa so'yla bu oqshom.

Afsun bilan tarqat o'ylarim,  
Toki chiqsin ko'nglimdan garmon,  
Toki o'sha shimol dilbarin  
O'ylamayin, qilmayin armon.

Men Bosforda bo'lmaganman hech,  
Ammo so'ylab berurman senga.  
Chunki moviy ko'zlaring har kech  
Dengiz bo'lib ko'rinar menga.

Za'far yurtga nur to'kar oqshom,  
Bog'da gullar javlon urgan payt.  
Kel, jonginam, qo'shiq ayt, Xayyom –  
Kuylab o'tgan qo'shiqlardan ayt,  
Bog'da gullar javlon urgan payt.

Oy nuriga g'arq bo'lgan Sheroz,  
Parvonadek uchar yulduzlar.  
Menga yoqmas, o'rtanaman, rost,  
Niqob tutsa, dilrabo yuzlar.  
Oy nuriga ko'milgan Sheroz.

Qizlar yuzin saqlar niqobda,  
Issiqdanmi bo'lib asramoq  
Yo kuymasin derlar oftobda.  
Sevsin uchun yigitlar ko'proq –  
Qizlar yuzin saqlar niqobda.

Niqob bilan do'st bo'lma, gulro',  
Yoz so'zimni yoding lavhiga.  
Umr o'zi g'oyat qisqa-ku,  
To'ymoq qiyin tole shavqiga,  
Yoz so'zingni yoding lavhiga.

Qismatlarda ne qarolik bor,  
Qolmas bir zum baxsh etsang rohat.  
Gunoh bo'lur shu sabab, dildor.  
Bu dunyoda yashirsang talant,  
Bergach uni ona tabiat.

Bog'da gullar tebranar oqshom,  
Yuragimda o'zga bir diyor.  
O'zim senga qo'shiq aytay, yor!  
Bu qo'shiqni bilmagan Xayyom.  
Bog'da gullar tebranar oqshom...

Havo toza, musaffo, zangor,  
 Gulzor bo'ldi menga sayilgoh.  
 Ufqlarga yo'l olgan sayyoh,  
 Yetolmaysan sahroga zinhor.  
 Havo toza, musaffo, zangor.

Dalalardan o'tasan tanho,  
 Bog'lar senga ochadi quchoq.  
 Chinni gulga bo'lib mahliyo,  
 Qarshisida cho'karsan nogoh  
 Dalalardan o'tganda tanho.

Shitirlar, yo'q, shivirlar barglar,  
 Nafis, go'yo Sa'diy g'azali.  
 Ko'zlaringga ko'kning go'zali –  
 Oltin oydan yog'iladi zar,  
 Nafis, go'yo Sa'diy g'azali.

Dil qo'shig'ing bastalar pari,  
 Nay sasidek mayin, dilrabo.  
 Og'ushiga olsa ul barno  
 Ketar dildan g'am, hijron nari,  
 Nay kuylaydi mayin, dilrabo.

Mana, uzoq kezib piyoda  
 Charchaganning ezgu matlabi:  
 Esar salqin, xushbo'y shabboda.  
 Shimiradi qaqragan labim.  
 Esar salqin, xushbo'y shabboda.

Oy yuzida tillarang jilo,  
Sambitguldan qaralar xush bo'y,  
Kezmoq na soz quvnoq va xushro'y  
Moviy o'lka sukuti aro.

Yiroqlarda Bag'dod. Bir zamon  
Shahrizoda yashagan diyor.  
Ul sanamga endi ne darkor,  
Xazon bo'lmish jannat guliston.

Ul sharpalar singibdi yerga,  
Dev, parilar bo'lmishdir tuproq.  
Bosh egma, ey sayyoh, qabrga,  
Arvohlarga solmagin quloq.

Atrofga boq, qanchalar barqut!  
Dudog'ingni tortar chechaklar.  
Dushmanga ham do'stlik qo'lin tut,  
Yorug' bo'lsin ko'nglim, desang gar.

O'yna, sendan ne qolur o'lsang,  
Visol aylab ishq boliga to'y,  
O'liklarga sig'inmoq bo'lsang,  
Tiriklarni o'z holiga qo'y.

Shunday degan Shahrizoda ham,  
Barglar aytar yana bir bora.  
Bu dunyoda armonsiz odam  
Bechoralar ichra bechora.

Xurosonda bir darvoza bor,  
Ostonasi gulga ko'milgan.  
Unda yashar bir pariruxsor,  
Xurosonda bir darvoza bor,  
Hayhot, uni ocholmadim man.

Qo'llarimda kuch ham yetarli,  
Sochlarimdan oltin rang olgan,  
Asir etdi meni ul pari,  
Qo'lda garchi kuchim yetarli.  
Ul eshikni ocholmadim man.

Mardligim ne ishq maydonida,  
Ayting, kimga qilay sharhi g'am?!  
Sevmas bo'lsa Shahi jonidan,  
Ul eshikni ocholmas bo'lsam,  
Mardligim ne ishq maydonida?!

Yana tushdi Rus sari yo'lim,  
Eron, sendan ketgummi hali?  
Nahot, seni boz ko'rmas bo'ldim?  
Ona yurtga mehrim tufayli  
Yana tushdi Rus sari yo'lim.

Xayr endi, xayr, parizod!  
Darvozungni ocholmasam-da,  
Shirin g'aming birla umrbod  
Kuylab o'tay seni o'lkamda.  
Xayr endi, xayr, parizod!

Firdavsiyning moviy diyori,  
 Ko'pni ko'rgan, ey, ko'hna diyori!  
 O'ychan nigoh, ko'zi zangori  
 O'rusingni unutma zinhor!  
 Firdavsiyning moviy diyori.

Ajoyibsan, go'zalsan, Eron,  
 Lolalaring bamisli chiroq,  
 Ular menga olis bepoyon  
 Bir o'lkani eslatar harchoq.  
 Ajoyibsan, go'zalsan, Eron.

Sipqorurman eng so'nggi bora  
 Sharob yanglig' mushkin bo'yingni,  
 Jonim Shahi, dilbar kuyingni  
 Ayrilarkan sendan, nachora,  
 Tinglagayman eng so'nggi bora!

Kuying mangu qalbimda qolar,  
 Seni aslo unutmam, jonon!  
 Tog'lar oshib, kezib sahrolar  
 Sen haqingda kuylayman doston,  
 Kuying mangu qalbimda qolar.

G'amlaringdan qo'rqmasman sira,  
 Faqat meni saqla yodingda,  
 Rus haqida bir kuy qoldiray!  
 Meni esla kuylar oningda,  
 Qo'shiq bo'lib yashay yoningda.

Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap –  
O'z joningni o'rtamoq faqat.  
Xanjar urib nozik taningga,  
O'zgalarga baxsh etmoq lazzat.

Shoir bo'lish – kenglikni kuylash,  
Senga ko'proq bo'lsin deb oshkor.  
Bulbul ko'ngli bo'larmi hech g'ash –  
U qiladi bir kuyni takror?!

O'zgalarning ovozi bilan  
To'tiqush ham biyrondir, ammo.  
Kuyla faqat o'z sozing bilan,  
Qurbaqadek bo'lsa ham hatto.

Qur'onda man etmish Muhammad  
Lab urma deb hatto sharobga.  
Shoir ichar shuning-chun ham may  
Tashlar ekan o'zin azobga.

Shoir kelib yori oldiga  
Yot qo'ynida ko'rsa uni gar,  
Obi hayot taskin qalbiga,  
Qiz ko'ksiga urmaydi xanjar.

Rashkda yonib, ko'ngilda tug'yon  
Asta kuylab tashlayman qadam:  
“Mayli, o'lay xor-u sargardon,  
Taqdirimda bor ekan bu ham”.

Bir juft oqqush – jonon qo'llari  
Sho'ng'ir oltin sochlarim aro.  
Bu dunyoda odamlar bari  
Ishqni kuylar takror va takror.

Kuylaganman men ham bir mahal,  
Bugun yana takrorlar ko'ngil,  
Otash so'zim boisi o'shal,  
Nafis she'rim sababi ham ul.

Jon-joningga singsa muhabbat,  
Qalb ko'ksingda oltin tosh bo'lur.  
Baxsh etolmay kuyga harorat  
Tehron oyi ko'kda fosh bo'lur.

Qanday yashay endi, bilmayman,  
Yo Shahi-la kechsin tunlarim.  
Qariganda yo qilay armon  
Ishqni kuylab o'tgan kunlarim.

Har kimda bir o'zgacha e'zoz,  
Har kimda bir o'zgacha havas...  
Gar eroniy kuyolmasa soz,  
Bilingki, u sherozlik emas.

Men haqimda ayting, kimki bu  
Kuyim tinglab meni so'rsa gar.  
U bundan ham soz kuylardi-yu,  
Xarob qildi o'shal oqqushlar.





Nechun ma'yus taratar ziyo  
Oy Xuroson chamanlariga?  
Rus bag'rida kezaman go'yo  
Cho'mib oqshom tumanlariga.

Shunday deya, ey, go'zal La'lim,  
Shamshodlardan ayladim savol.  
Bu sir bizga emasdir ma'lum,  
Degan kabi boqdi ular lol.

“Ne uchun oy ma'yus sochar nur?”  
Chechaklarni tutdim so'roqqa.  
Ular dedi: guldani so'rab ko'r  
Sahar payti kirganda boqqa.

Gul tebratdi asta shoxini,  
Tilga kirib so'yladi gulbarg:  
“O'zga bilan bo'ldi Shahina,  
O'pdi bu kech o'zgani dilbar”.

Dedi yoring: “Qaydan bilar rus,  
Qo'shiq unga ham tan-u, ham jon”.  
Shuning uchun oy boqar ma'yus,  
Shuning uchun yuzida yo'q qon.”

Ne jafolar ko'rmadi olam,  
Xiyonat-u ko'z yoshdan xunlar.  
Lekin, mayli, har na bo'lsa ham  
Mo'tabardir nafarmon tunlar.



Talpinma ko'p, devona ko'ngil,  
Barchamizdan yuz o'girmish baxt.  
Shafqat tilar gadolar faqat...  
Talpinma ko'p, devona ko'ngil.

Fusunkor oy kiyib zar libos,  
Shu'la to'kar kashtanlar uzra:  
Qo'yib La'lim siynasiga bosh,  
Pardasini tortaman yuzga.  
Talpinma ko'p, devona ko'ngil.

Biz barchamiz go'dakmiz biroz,  
Goh ko'zda yosh, goh labda kulgu.  
Bo'lmish ushbu dunyoda meros  
Barchamizga shodlik va qayg'u.  
Talpinma ko'p, devona ko'ngil.

Ko'rganman ko'p elatlarni men,  
Tole izlab kezganman jahon.  
Yuragimning ezgu istagin  
Endi ortiq qidirmam sarson.  
Talpinma ko'p, devona ko'ngil.

Umidim bor hayotdan hali,  
Tugamagan ko'nglimda bardosh,  
Kel, bir nafas orom ol, qalbim,  
Uxla qo'yib yor ko'ksiga bosh,  
Umidim bor hayotdan hali.

Zora taqdir boshimiz silab,  
Saodatga yor etsa bizni,  
Tole bulbul ovozi bilan  
Allalasa pok sevgimizni.  
Talpinma ko'p, devona ko'ngil.

Moviy o'lkam, quvnoq diyorim,  
Qo'shiq uchun baxshida borim.  
Tingla, mayin esgan shabboda,  
Bulbul gulni chorlaydi bog'da.

Kuyga asta bosh egadi gul,  
Sado berar bu ko'ygga ko'ngil.  
Tingla, mayin esgan shabboda,  
Bulbul gulni chorlaydi bog'da.

Sen go'daksan hali, jonginam,  
Shoirman-ku, go'dakman men ham.  
Tingla, mayin esgan shabboda,  
Bulbul gulni chorlaydi bog'da.

Kechir meni, aziz G'oliyam,  
Yo'llaringda gullar ko'p, sanam.  
Senga egar barchasi qomat,  
Faqat biri aylar sadoqat.

Shod bo'laylik, kel, biz ham bu kun  
Shunday moviy o'lka bor uchun.  
Tingla, mayin esgan shabboda,  
Bulbul gulni chorlaydi bog'da.

Moviy o'lkam quvnoq diyorim,  
Mayli, kuyga baxshida borim.  
G'oliyam tinch uxlagan chog'da  
Bulbul gulga she'r o'qir bog'da.

## ZAMIN DARG'ASI

Yerni boshqarmadi  
Hech kim to shu dam,  
Men ham hech kimsaga  
Atamadim she'r.  
Faqat u  
Qo'lini ko'tarib baland,  
Dedi:  
Bir oila erur  
Butun yer.

Bu qo'shig'im emas –  
Vasfi sarkarda,  
Yetmish ikki tomir  
To'lg'og'i emas.  
Baxtim shuki,  
Bo'ldim qora kunlarda  
Unga fikrdosh-u  
Hamkor, hamnafas.

U biz –  
Hamma narsa  
Kun kabi ayon.  
Fil ko'rsak o'ynaydi  
Ko'zning soqqasi....

Simbirskdan chiqqan  
Bir sodda o'g'lon  
Bo'ldi o'z yurtining  
Buyuk darg'asi.  
Bo'ronlarda turdi  
Darg'agohda u  
Jindak qattiqqo'l-u  
Munis va mumtoz.  
Bamisli Marksdek  
Fikr qildi-yu

Va lekin yaratdi  
U Leninga xos.

Yo'q!  
Bu Stenkaning  
G'avg'osi emas  
Va yo Pugachyovning  
Sodda isyoni.  
U hech kimga hech vaqt  
Ko'tarmadi dast,  
Mushkullarni yechdi  
Odil, insoniy.

U yurdi iroda,  
Aql so'ziga,  
Rulni mahkam tutdi  
Ko'rsatib sabot –  
Toki yer kemasin  
Metin ko'ksiga –  
Bosh urgan to'lqinlar  
Bo'lsin deb barbod.

U – kema darg'asi,  
Ya'ni kapitan,  
U borki, to'lqin-u  
Bo'ron ne pisand?  
Axir turli yurt-u  
Turli ellardan  
Yig'ilgan partiya –  
G'avvoslar monand.

Olchoqmas dengizga  
O'rganolmagan.  
Bundaylar eng ezgu  
Qasamlar uchun –  
Quruqlikka chiqqach,  
Topilgach maskan,

Yo'lchi mash'allarni  
O'chirar bir kun.

Shunda shoiringiz –  
Yo'q, u men emas,  
U siz bilan, uning  
Taqdiri o'zga –  
Kurash ilhomi-yu  
Shavqi bilan mast,  
Yangi so'zlar topib  
She'r aytur sizga.

U aytar:  
Haqiqiy bahrgir ulkim,  
Kurash otashida  
Toblanar har choq  
Va olam ko'ziga  
Ko'rsatar bir kun  
Odamzod qadami  
Yetmagan qirg'oq.



## XOTIRA

Bu – boshqa oktabr,  
U Oktabrmas...  
Izg'irin bo'ronlar esdi besabr,  
Quturgan arslonday  
Na'ra tortdi mast  
O'n yettinchi yilda kelgan Oktabr.  
Yodimda,  
Men boqdim toliqqan ko'z-la,  
Qor quyuni o'ynar edi sarbasar.  
Zulumot qoplagan Petrograd uzra  
Charx urardi vazmin soyalar.  
O'shanda sezgandi olomon, g'ulu,  
Va his qilgan edi – yaqindir bo'ron.  
Bekordan-bekorga izg'ib qolmas-ku  
Po'lat “toshbaqa”lar u yondan bu yon.  
Tarqaldilar...  
Qator cho'kdilar birdan...  
Ko'plarning vujudi titray boshladi.  
Qo'rqoq “uchredilka” darvozasidan  
Shiorni kimdir shart yulib tashladi.  
Boshlandi...  
Nigohlar hushyor va teran,  
Jang dedi basharning uyg'ongan ongi.  
Otash “Avrora”ning tutquni bilan  
Boshlandi olamning munavvar tongi.  
Taqdirlar hal bo'ldi mana shu damda.  
Chapani so'kishlar ostida bir kun  
Tug'ildi va o'sdi yangi vatanda  
Yangi alvon shior –  
Ishtirokiyun!



## HAYOT YO'LIM

Kemadek sohilga  
Kelmoqda umrim,  
Yana xotiralar  
Chulg'ar o'yimni.  
Kel endi,  
Ohista so'zlab ber,  
She'rim,  
Bosib o'tgan hayot yo'limni.

Tor kulba.  
Achimsiq qoramoy isi,  
Ko'hna sajdagoh-u  
Lipillagan sham...  
Qanday soz,  
O'sha ilk bolalik hissi  
Yuragimda yashar to shu dam.

Deraza ostida  
Alanga – quyun.  
To'qqizdaman.  
Kursi, kampir, oq baroq...  
Kampir g'amgin kuylar  
Dalalar kuyin  
Va esnar, evoh, deb  
Cho'qinar uzoq.

Raqs etardi quyun  
Qanotin kerib,  
Misli jinlar bazmi –  
Qizir gijdabang.  
Shunda imperiya  
Qurbonlar berib  
Yapon bilan qilar edi jang.



Shunda Rossiyaning  
Qora ishlarin –  
Bilmasdim.  
Bilmasdim – nedir jang, g‘anim...  
Ryazan dehqonlari  
Don ekkam zamin,  
Qo‘ng‘ir tuproq edi  
Mening Vatanim.

Men faqat dehqonlar  
So‘zin eslayman.  
So‘kildirdi shoh-u  
Shayton barobar.  
Ammo, ajab yo‘qki,  
Bunga javoban  
Jimgina kulardi  
Limurang sahar.

O‘shanda men ilk bor  
Tuzdim qofiya,  
Hislar quyunida  
Aylandi boshim.  
Bir kirib qoldimmi  
She‘r girdobiga –  
Bor, dedim-u, unga  
Bor ko‘nglim ochdim.

Olis u yillarni  
Eslayman arang.  
Bobom, achitmagin,  
Derdi, miyani.  
Bekorchi ishni qo‘y,  
Bordi-yu yozsang,  
Mana, sulini yoz  
Yoki biyani.  
Meni asir etgan  
Sohir she‘riyat.

Xayol osmonidan  
Tushmay zaminga,  
O'yladim, bo'furman –  
Mashhur, badavlat,  
Ryazanda zo'r haykal  
Qo'yishar menga.

O'n besh yoshda bir qiz  
Jigardan urdi,  
Xayol daryosida  
Suzardim maftun.  
Der edim, u go'zal,  
Hurlarning huri  
Menga xotin bo'lar  
Vaqt kelib bir kun.

Yillar o'tdi.  
Yillar yuzga iz solar,  
O'zgacha ko'rk berar,  
O'zgacha ziyo.  
O'sha xayolparast  
Qishloqi bola  
Bugun poytaxtda –  
Shoiri yakto!

Shoirlik dardiga  
Duchor bo'ldim-u  
Yurt kezib ko'ngilga  
Izladim taskin.  
Na visol shavq berdi,  
Na hijron, qayg'u,  
Hayot aldoqlari  
Quritdi ashkim.

Rus asli nimadir,  
Angladim shunda,  
Angladim, nimadir  
Sha'n ila shavkat.

Horg'in yuragimga  
Kunda va kunda  
Og'u bo'lib tomdi  
Bitta uqubat.

Mening shoirligim  
Bir pul o'zimga.  
Mensiz ham she'rbozning  
Urug'i serob.  
O'lsam haykal qo'ymang  
Ryazanda menga,  
Xasta bu ruhimga  
Solmang iztirob.

Rossiya... Podsholik...  
Qanday bemaza!  
Pastkash kiborlarning  
"Kamtar" viqori!  
Qabul et, Moskva,  
Mana, bo'lmasa,  
Senga yana bitta dardkash bezori!

Ko'ramiz!  
Kim bo'lar bu jangda g'olib,  
Yangradi qishloqning  
Sha'n madhiyasi.  
Nozik salonlarni  
Larzaga solib  
She'rim bilan kirdi  
Ryazan biyasi.

Yoqmaydimi?  
Mayli.  
Siz-ku Lorigan,  
Va gullarga mehr  
Qo'ygansiz faqat,  
Bilasizmi, axir,  
O'sha siz yegan –

Oq non axir go'ngdan  
Bitgan ziroat...

Yana yillar o'tdi  
O'zga iz solib.  
Ta'rifiga ojiz  
Shoirning gapi.  
Yurtda podsholikning  
O'rnini oldi  
Ishchilar sinfining  
Ulug'vor safi.

O'zga yurtlar aro  
Kezmoqdan horib,  
Yana qishlog'imga  
Qaytdim, netayin.  
Yashil sochlarini  
Oftobga yoyib  
Menga peshvoz chiqdi  
Bir tup oq qayin.

Naqadar ajoyib,  
Naqadar suluv.  
Bundoq siyna bo'lmas  
Jononlarda ham.  
Ana, aravaga  
Ortishib suli  
Menga tomon kelar  
Bir necha odam.

Ular meni bilmas,  
Men bir yo'lovchi,  
Ana, kampir o'tdi  
Boqmay yuzimga.  
Butun vujudimga  
Otash qalovchi  
Allaqanday bir kuch  
Urdi ko'ksimga.

Nahotki u o'sha!  
Tanimas nahot!  
Mayli, o'taversin,  
Bilmasin, mayli.  
Boshdan oshib yotar  
Mensiz ham kulfat,  
Ko'zlar chuqur botmish  
Hasrat tufayli.

Oqshomlar kepkamni  
Bostirib qoshga,  
(Sovuq nigohimni  
Ko'rmasin deb el)  
Ohista boraman  
Buloq boshiga,  
Bo'm-bo'sh dalalarda  
Sokin esar yel.

Yoshlik o'tdi. Endi –  
Mehnatga, demak,  
Ammo demasmanki,  
U yillar qaytsin.  
Istagim, bu dalli –  
Devona yurak  
Endi soz-u yetuk  
Qo'shiqlar aytsin.

Quvvat bag'ishlasin  
Yana ko'nglimga  
Yangicha qishloqning  
Mehrigiyosi.  
Shuhrat keltirganday  
Bir zamon menga  
Hov o'sha qadrdon  
Rusning biyasi.

## KACHALOVNING ITIGA

Kel, Jim, uzat panjangni menga,  
Momiq panjang bunchalar mayin.  
Men ham bu kech qo'shib senga  
Oyga boqib nola qilayin,  
Kel, Jim, uzat panjangni menga.

Faqat, do'stim, ko'p erkananma,  
Holatimni tushungin, axir.  
Sen bilmaysan, yashamoq nima,  
Bu hayotning ma'nosi nadir.

Xo'jayining mashhur va hotam,  
Ko'p yo'qlashar do'st-u yoronlar.  
Ulug' mezbon ko'ngli uchun ham  
Siylashadi seni mehmonlar.

It holingga g'oyat suluvsan,  
Odamdan hech ketmaysan nari.  
So'rmay-netmay o'pmoq bo'lursan  
Kayfi oshgan do'stlar singari.

Mehmonlaring ko'p juda, sonsiz,  
Bir-biriga o'xshamas albat.  
Mabodo bir o'ychan, ma'yus qiz  
Shu tomonga o'tmadimi, ayt?

U albatta keladi bir kun,  
Ostonangdan o'tganda dildor,  
Mening bor-yo'q gunohim uchun  
Qo'llarin o'p, yig'la-yu yolvor.

\* \* \*

Kel, meni o'p, o'pa qol  
Qonaguncha to labim,  
Faqat shodlik va visol  
Bu hayotdan talabim.

To'nkarilgan qadahlar  
Bizga emas bazm aro.  
Bu dunyoda yasharlar  
Faqat bir bor, dilrabo!

Shom pardasi ko'k, harir,  
Falakka bir qil nigoh.  
Sariq quzg'un misoli  
Charx uradi ko'kda moh.

O'pgin meni, o'p tezroq,  
So'nayotir hayotim.  
O'sha ko'kda uchgan zog'  
Sezdi mening mamotim.

O'lim asli haq ekan,  
Mayli, endi o'layin,  
Lek ko'z yumish oldidan  
Lablaringga to'yayin.

To mangulik uyquda  
Yangrab tursin har nafas  
Mayin, tiniq, osuda –  
“Senikiman” degan sas.

Doim to'la qadahlar  
Sochib tursinlar ziyo...  
Bu dunyoda yasharlar  
Faqat bir bor, dilrabo!

\* \* \*

Endi qaytmam uyimga,  
Men elkezàr devona.  
Ko'z tikibdir yo'limga  
Ko'm-ko'k o'tloq yagona.

Unda meni sog'ingan  
Faqatgina qichitqon,  
Boshi quyi solingan  
Chuchmo'mayi nafarmon.

Oy tepamda yuksakdir,  
Shapka otsam yetmaydi.  
Qo'shiq asli yurakdir,  
Tug'iladi – yitmaydi.

Uyga umr so'ngida  
Biz qaytamiz turfahol.  
Vujud titroq qo'ynida,  
Yarim murda, yarim shol.

Sening uchun, ey odam,  
Ko'hna maqol aytadi:  
“O'lar chog'i itlar ham  
O'z uyiga qaytadi”.

Men qaytaman uyimga,  
O'tkinchi bir devona...  
Kechalar ko'l bo'yida  
Yig'lar o'tloq yagona.



## SINGLIMGA XAT

Bizning Aleksandr  
Delvig haqida  
She'r yozgan, madh etib kalla suyagin.  
Qanday shirin,  
Qanday olis aqida,  
Xuddi gulbog' yanglig' ko'ngilga yaqin.

Salom senga, singlim,  
Salom, assalom.  
Qadrdon dalalar salomat bormi?  
Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom  
Ryazandagi bizning oluchazorni?

O'sha oluchazor,  
Bormi yodingda?  
Otam sho'rlik tinmay qilardi mehnat.  
Bir parcha yeridan  
Hosil olguncha  
Omoch surib qancha chekardi zahmat.

Unga maqsad edi  
Kartoshka olish,  
Biz bog' bo'lsa derdik,  
Bog'ni kesishdi.  
Dilim o'rtanganin  
Aytin ho'l bolish.  
Bog'ni kesishdi-yu,  
Bag'rim ezishdi.  
Yodimdadir bayram,  
O'sha so'lim may,  
Sabzalar bezangan,  
Gullagan siren,  
Oppoq qayinzorni  
Quchoqlab tinmay,  
Sho'x-xandon maydan ham  
Mastroq edim men.

Oh, u oq qayinlar,  
Oppoq qayinlar...  
Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat.  
Sevmasligi mumkin ularni faqat –  
Quvnoq navniholda ko‘rmagan samar.

Singlim!

Naqadar kam hayotda chin do‘st,  
Ko‘plardek mening ham yuragimda dog‘.  
Agar nozik qalbing  
Toliqqan bo‘lsa,  
Buning soz davosi –  
Tinmoq, unutmog‘.

Senga achinaman,  
Yolg‘iz qolarsan.  
Men esam tayyorman  
Duelga hatto.  
“Baxtlidir jomini ichib bo‘lmagan”<sup>1</sup>  
Va tinglab bo‘lmagan naydan ham navo.

Va lekin bog‘imiz...  
O‘sha bog‘ aro  
Erka bolalaring o‘ynar ko‘klamda.  
Ular o‘ylab qo‘ysa qani bir bor, o,  
Dalli-devonalar  
O‘tgan olamda.

---

<sup>1</sup> Pushkin satri.

Tong otadi beozor va jim,  
 Tuman ichra bo'zarar osmon.  
 Bugun yana seni esladim,  
 Mehribonim, munis onajon!

Avvalgidek yana, hoynahoy,  
 Tepalikka chiqarsan har tun.  
 Suv ustida qalqib turgan oy  
 Tasviriga boqarsan mahzun.

Qaraysan-u o'yga cho'marsan,  
 O'rgatuvchi dard ko'ksing aro.  
 Xayolingda o'g'ling bemaskan,  
 Vatanini o'ylamas aslo.

Qabristonga borasan asta,  
 Toshga boqib ko'rasan kimni?  
 Xo'rsinasan mayin va xasta,  
 O'ylab aka-singillarimni.

Garchi o'sdik bezori, chapan,  
 Qizlar esa may gulisimon.  
 Lekin xira ko'zlaring bilan  
 Buncha g'amgin boqma, onajon!

Yetar kulfat, yetar g'am, alam,  
 Tushun hayot aldoqlarini.  
 Ma'yus qolur hatto daraxt ham  
 Yo'qotganda yaproqlarini.

Noyoblik bor quvonchda, baxtda,  
 Visoldan ko'p hayotda firoq.  
 Chirigandan ko'ra daraxtda  
 Shamollarda yongan yaxshiroq.

Seldek toshar chumchuq suroni,  
 Kecha oydin, keoha musaffo.  
 O, qanday soz, qanday dilrabo!  
 Kecha oydin, kecha musaffo,  
 Kuyga ko'mib borliq dunyoni,  
 Seldek toshar chumchuq suroni.

Oy shu'lası misli bir daryo,  
 Urgim kelar unga ko'kragim.  
 Shunday tiniq, moviyki havo,  
 Sira tinchlik bilmas yuragim.  
 Oy shulasi misli bir daryo,  
 Urgim kelar unga ko'kragim.

Yor, senmi bu? Adashdimmi yo?  
 Shirin labing dardimga davo.  
 Shirin labing bo'lsa bir chashma,  
 Dilbar, ko'nglim bo'sangga tashna.  
 Yor, senmi bu? Adashdimmi yo?  
 Gul bo'ldimi qarshimda paydo?

Taqdirimda bilmayman, ne bor.  
 Dilni o'rtab, bir lahza tinmay,  
 Qaylardadir yig'lar xasta nay.  
 Men-chi, boqib nilufarga, yor  
 Siynasini qilurman xayol...  
 Qaylardadir yig'lar xasta nay,  
 Taqdirimda, bilmayman, ne bor...

Bu dunyoda men bir yo'lovchi,  
Shodon menga qo'l silki, erkam.  
Xuddi shunday tinch, erkalovchi  
Ziyo to'kar kuz fasli oy ham.

Isinurman oying taftida,  
Ilk bor undan orom olar jon.  
Allaqachon so'ngan sevgiga  
Umid bog'lab yashayman hamon.

Bunga bois – shu makonimiz,  
Shu yer – oppoq, sho'r manglay turbat,  
Qaylardadir toptalgan nomus,  
Kimlardadir qadrdon g'urbat.

Yashirmayman, har kim ham bilar:  
Boshqa-boshqa emas, jon singlim,  
Ikkimiz ham bir sevgi bilan  
Shu Vatanga qo'yganmiz ko'ngil.



Lablaringni burma, qilma nozli tamanno,  
O'zgadadir mening ko'nglim, sendamas aslo.

Atay sening derazangga egilganim yo'q,  
Seni izlab kelganim yo'q, tikilganim yo'q.

Zor emasman senga, faqat bu oqshom bexos  
O'ta turib boqqim keldi darchangdan, xolos.



Dalalar oq kiygan, oqargan oy ham,  
Kafanga o'ralib yotibdi o'lkam.  
O'rmonlarda yig'lar oq qayinlar jim,  
Bu yerda kim o'lgan? Balki men o'zim?...



Shoir, tun qo'ynidan nima izlading,  
Chiqdingmi oyga she'r bitmoq o'yida?  
Ko'pdan xira tortmiş mening ko'zlarim  
Muhabbat, qarta-yu sharob ko'yida.

Ko'k uzra suzadi sokin oymomo,  
Shunchalar oydinki, tinadi nigoh,  
Men toppon xotinga tikkandim, ammo  
Sho'rimga tuz qarg'a chiqibdi, evoh!





\* \* \*

Boqma menga buncha g'azabkor,  
Seni yomon ko'rmasman aslo.  
Bil'aks, sening nozli, beozor  
Nigohingga bo'lganman shaydo.

Ko'rsatmoqchi bo'larsan o'zing –  
Bir ma'suma, hech yo'q gunohi.  
Yumib yotib tulki ham ko'zin  
Quzg'unlarni ovlaydi gohi.

Kel, ovlayver, baribir menga,  
Erta sovib qolma harqalay.  
Balki muzlab bo'lgan ko'nglimga  
Qo'l cho'zganlar umrimda talay.

Ha, sevaman, senimas ammo,  
Sen – aks sado, soyasan faqat.  
Doim sening chehrangda paydo  
Moviy ko'zli men sevgan tal'at.

U ko'rinmas ma'suma bo'lib,  
U hattoki biroz sovuqroq.  
Lek ulug'vor xiromi ila  
Solib qo'yar qalbimga titroq.

Qani, uni unutsam bir dam,  
Intilmasam bir lahza, qani...  
Sen-chi, hatto g'azab chog'i ham  
Tashlamassan yolg'on ishvani.

Seni sevmam, lek netay, evoh,  
Ochadirman bag'rim umrbod.  
Bo'lmasaydi jannat va do'zax,  
O'ylab topar edi odamzod.



Xayr endi, xayr do'stinam,  
Bag'rimdasan, ko'ngil malhami.  
Muqarrar bu ayriliqning ham  
Visoli bor oldinda hali.

Xayr, do'stim, so'zga ochma lab,  
Qo'y, men uchun o'rtama bag'ir.  
Bu hayotda o'lmoq-ku bor gap,  
Yashamoq ham yangimas, axir!



# DOSTONLAR

## ERKINLIK

### *Dostondan parcha*

Hali qonun simobday erik,  
Yurt bo'ronda qalqib turgan choq,  
Nogoh bizni zaharlagan erk  
Qirg'og'idan toshdi-ku mutloq.

Rossiya! Oh, munisa o'lka!  
Ko'ksim ezdi bir dard zarbasi.  
Dalalardan qochdi itlar ham,  
Chiqmay qoldi xo'rozlar sasi.

Necha yilki, hayotimizdan  
Ketdi tinchlik, ketdi halovat,  
Yaylovlarda tuyoq izidan  
Qorachechak yanglig' jarohat.

G'ildiraklar suroni aro  
Eshitilar ayanchli ohlar.  
Nahotki bu tush bo'lsa, go'yo  
Nayza otib, tortib kamon yo  
Qurshamoqda bizni qipchoqlar.

Bu na ro'yo, yo'q, bu na bir xob,  
Ko'zlarimda ayon bu lashkar.  
Bedovlarni o'ynatib shitob,  
Saf ketidan o'tmoqda saflar.

Qayon borur?  
Qaydadir janggoh?  
Sahro yotar bemajol so'zsiz...

Bilmadim, bu ko'kda suzgan moh  
Yo arg'umoq taqasidan iz?

Rossiya!

Ey, dolg'ali suron,

Ey, siynasi oppoq qayinzor!

Qaydan chiqdi senga nogohon

Larza solgan o'sha isyonkor?

Jasur daho!

Va lekin meni

Zo'r kelbati qilmadi asir,

U hech qachon arg'umoq minib

O'ynatmagan maydonda shamshir.

Na qirg'inda yovni qiyratgan,

Na bir jangda zabt etgan diyor.

Faqat... ovda bedana otgan,

O'zga jonga bermagan ozor.

Odatda el qahramon bilar

Kimki bo'lsa sovut-qalqonda.

U bo'lsa-chi, bolalar bilan

Chana uchib o'ynagan qorda.

Jingalak soch yo'q edi unda

Jononlarga solguvchi titroq.

Sochsiz boshi yaltirab kunda

Ko'rsatardi yana kamtarroq.

Oddiy odam, ko'zida kulgi,

Farishtaday ko'rinar menga.

Hayronmanki, qanday qilib u

Larza soldi butun zaminga.

Larza soldi!

Na'ra tort, bo'ron,

Suron qo'zg'a va ko'tar g'ulu.

Baxtsiz elning majruh ko'ksidan

Cherkovlarning g'uborini yuv.

Monarxiya! Badbo'y bir botqoq!

Boylar ishrat bazmiga botdi.

Hukumatni to‘ralar mutloq  
Zavodchiga, sudxo‘rga sotdi.  
Ingrar edi bechorahol xalq  
Najotkorga ko‘z tikib ilhaq.  
Ha, u keldi.  
Uning haq so‘zi  
Yangi yo‘lga boshladi bizni.  
Dedi: “Bitsin azob-u kulfat,  
Ishchilarga – butun hukumat.  
Qilmoq uchun zulmni barbod  
Sovetlardan yo‘q o‘zga najot!”

Qo‘rqmay hech bir bo‘ron, dovuldan  
Biz yurdik u boshlagan yo‘ldan.  
Yurdik, Yerning barcha xalqlari  
Erk topguvchi bir manzil sari.

U yo‘q endi.  
Bo‘g‘izda ingroq.  
Shoirlarning torida alam.  
Mis tomoqli ulkan qo‘ng‘iroq  
Vido aytdi so‘nggi bor bu choq,  
Najotkorni quchdi-ku adam.  
U yo‘q!  
Ammo tiriklar bugun  
Mehnat qilar jadal va betin.  
Qirg‘og‘idan toshgan o‘lkaga  
Ular jilov solgaylar metin.  
“Lenin o‘lgan” demaslar biroq,  
Barhayotdir ularga Lenin.  
O‘zidan ham balki qat‘iyroq  
Ular davom ettirar yo‘lin.

## ULUG' JANG QISSASI

Ey, odamlar, odamlar,  
Ey siz, xaloyiq.  
Sizni ne deb atayin,  
Sizga ne loyiq?  
Kanalar desammi yo  
Chigirtka durust...

Nopok Rus, yuvilmagan,  
Taralmagan Rus!  
So'zlay bugun bir ertak,  
Yangi aqida  
Bizning turmush haqida,  
Hayot haqida.  
Birinchisi, eshiting,  
Burungi hayot.  
Ikkinchisi haqiqiy,  
Bugungi hayot.  
Rus, senga bu ertakni  
So'ylayotirman!  
Chunki men azal-abad  
Haqgo'y, botirman.  
Bu ertakni to'qidim  
Kim bo'lsa o'qir.  
O'zgalardan hayiqish  
Odatim yo'qdir.

Katta shahar – Ipatyev  
Tomoni ekan.  
Imperator Pyotrning  
Zamoni ekan.  
Shunday so'zlar aytibdi  
Bir kun bir mirza:  
“Yoronlar, ahmoq poshsho  
Bosh bo'ldi bizga.  
Uzoq-uzoq yurtlardan

Usta chaqirib,  
Piter shahrin qurmoqda  
Nemischa qilib.  
Boshqa ishi yo'qmikan  
Podshohimizning,  
Nemislashtirmoq bo'lar  
Ne uchun bizni?  
Qirqadi knyazlarning  
Mo'ylov, soqolin.  
Ko'rib yig'laging kelar  
Rusning ahvolin.  
Peshonamiz sho'r ekan,  
Zo'ravon ahmoq –  
Kim so'ziga kirmasa  
Ko'tarar tayoq”.

Bir yosh askar bu so'zni  
Eshitib shu dam  
Mirzaning kokilidan  
Ushladi mahkam.  
“Qani, yur-chi bu yoqqa,  
Imillama, bo'l!  
Seni Pitergradga  
Yetkazay bir yo'l.  
Xalqqa aytgan gapingni  
Bilsa podsho gar,  
Tumshug'ingdan osadi  
Seni, ig'vogar!”  
Tverskoy – Yamskoy  
Yo'lidan g'izza  
Podsho yoniga uchar  
Bechora mirza.  
Rosa to'rt kun deganda,  
Peshin chog'ida  
Yetib keldi podshoning  
Saroy – bog'iga.  
Podsho baland zinaga

Qo‘yganча oyoq,  
Askariga, kel, deya  
Silkidi tayoq,  
“Huzurimga ne uchun  
Kelding, askar, sen?  
Ayt, yoki Moskvadan  
Maxfiy choparsen?”  
“Men na choparman va na  
Moskvalik xos.  
Men senga sadoqatli  
Xizmatkor, xolos.  
Keltirdim g‘alayonchi  
Bitta mirzoni.  
Og‘rimgan ko‘rinar  
Uning hech joni.  
Sening yuksak nomingni  
Yerga qorib bu  
Qo‘zg‘ab yuribdi, shohim,  
El ichra g‘ulu”.  
Pyotr dedi:  
“Beri kel,  
Beri kel, och bit”.  
Mirzaning kokillari  
Bo‘ldi tippa-tik.  
Quloch tortdi Pyotr,  
Podshoning mushti  
To‘g‘ri sho‘rlik mirzaning  
Boshiga tushdi.  
Choriq kiygan oyog‘i  
Bo‘ldi osmondan,  
Bechora til tortmayin  
Ayrildi jondan.  
Pyotrning saroyi bor,  
Saroyda qozig‘i bor,  
Qoziqda chipta osiq,  
Bu gapning ibtidosi.  
Alekseich Pyotr



Misoli dev-a.  
Dam olmasdan ichadi  
Bir chelak pivo.  
Cheksa agar uch tosh yer  
Bo'ladi tutun.  
Kiyimi boshdan oyoq  
Nemischa butun.  
So'z qotadi ulug'vor  
Alekseich Pyotr.  
"Qani, kel-chi yonimga,  
Azizim Lafort.  
Amsterdamda bo'lding,  
Ustasan juda.  
Qaroldek xizmat qildim  
Bir vaqt qo'lingda.  
O'sha yerda o'rgandim  
Bolta tutishni.  
Senga bugun topshiray  
Katta bir ishni.  
O'sha yerga bor, do'stim,  
Mendan salom ayt.  
Degin, bu dam podshoning  
Holi og'ir payt.  
Holim og'ir, o'ylayman  
Yurtim haqida,  
O'lim yaqin, o'limdan  
Qo'rqaman juda.  
O'limdan qo'rqaman-u,  
Yashash ham og'ir.  
Kim bosh bo'lar Pitergrad  
Shahriga, axir?  
Uxlar bo'lsam tushimga  
Kirar, gapim haq.  
Botqoqlik tumanida  
O'lib bitgan xalq.  
Tunda ular ovozi  
Uyg'otar mani:

“Suyaklarimiz uzra  
Yotar granit...”  
Xayolimda o‘liklar  
O‘rnidan turib,  
Saf tortganча men sari  
Keladi yurib.  
Qichqiradi o‘liklar  
Bitgunча quloq.  
Bu vahshatdan bo‘ldi-ku  
Toqatlarim toq.  
Ular deydi: “Borliqqa  
Biz eng ulug‘ shoh,  
Qo‘limizga tusharsan  
O‘lgach, ey, podshoh!  
Oramizga kelasan  
Bir kuni axir.  
Shunda sening sochingni  
Yulamiz bir-bir.  
Boylar edi senga yor  
Va ministrlar.  
Bizning qonimiz to‘kib  
Tiklading shahar.  
Lekin bilsin har bir uy  
Va har bir qavat:  
Bizlar bir kun qaytamiz,  
Qaytamiz, albat.  
Biznikidir bu shahar,  
Biznikidir haq.  
Bu shaharda yashagay  
Faqat ishchi xalq!”

Shunday deya jim qoldi  
Alekseich Pyotr.  
Manglayidan shoshqator  
Oqdi muzdek ter.

Tinglang meni, tinglangiz,  
Yig'ilgan do'st, yor.  
Boshinggizga yopayin  
Quyun bilan qor,  
Hammangiz ham yaxshisiz  
Va olijanob.  
Bermaysizmi, do'stlarim,  
Bir kosa sharob?  
Odam tili – qush tili  
Emas-ku, albat,  
Odamlar, siz topgansiz  
Juda soz odat.  
Qo'ng'iroqlar zang urdi,  
Otildi to'plar.  
Bu ne gap – aytmasam ham  
Tushunar ko'plar.  
Qancha-qancha gul bilan,  
Lolalar bilan  
Pyotrni ko'mishdi  
Nolalar bilan.  
Ko'p yig'ildi odamlar  
Turli tomondan.  
Birov chindan yig'ladi,  
Birov yolg'ondan.  
Ikki yuz yil vaqt o'tdi  
Shundan bu yog'i –  
Bema'ni podsholarning  
Yo'qdir sanog'i.

Ikki yuz yil yangradi  
Yer ostidan un:  
“Biz qaytamiz, shaharni  
Olamiz bir kun.  
Tutib barcha boylarning  
Ko'zin o'yamiz.  
Shamyog'ochga barini  
Osib qo'yamiz”.

Ikki yuz yil vaqt o'tdi,  
Keldi Oktabr.  
To'lqin urdi qirg'oqqa  
Neva besabr.  
Tong bilan xalq qo'zg'aldi,  
Boshlandi bo'ron.  
Shamyog'ochga osildi  
Oqsuyak a'yon.  
Yasha, ey, azamat xalq,  
Piter, bo'l omon!  
Va lekin nega to'plar  
Gumburlar hamon?  
Dengizlarning ortidan,  
Shahar chetidan –  
Sado kelar gumburlab  
Sado ketidan.  
Bo'lgan edi ko'p ishlar  
Bunda u zamon.  
Xotiramda qolgan cha  
Qilayin bayon.

Sevgin, shod bo'l, ey, yurak,  
Ey, ko'ngil, quvon!  
Sovetlar zamonidir  
Bizlarning zamon.  
Oqsuyak ofitserni  
Keltirib kecha,  
Gubchekada adabin  
Berdilar picha.

“Yablochka” qo'shig'ini  
Kuylar yosh matros:  
“Shoshmay turing, sizlarga  
Hali bu ham oz!”

Ukraina yaqinida,  
Yavorda esa

Shum xabar eshitdilar  
Dehqonlar kecha.  
Sovetlar hukumati  
Dehqonga yaxshi.  
Lekin yov qo'shin tortmish  
Sovetga qarshi.  
Bu qo'shinlar dehqondan  
Olmoq bo'lar o'ch.  
Qasosga Vrangel ham,  
Denikin ham o'ch.  
Madad berar ularga  
Yana bir olchoq,  
Qo'shin yo'llar Sibirdan  
Admiral Kolchak.

Tutib oldim baliqcha,  
Qiltanog'i oz.  
Zoti dehqon bolalar  
Bir-biridan soz.  
Tegirmondan but chiqar  
Tashlasang tikka.  
Ketdi ular yalangto'sh  
Partizanlikka.

Qizil askar miltig'in  
Yaraqlar tig'i.  
Bu maydonda duch kelar  
Ota va o'g'il.  
Bir maqsadda kurashar  
Har ikki tomon.  
Olsam, deydi, ko'proq yer,  
Eksam, deydi, don.  
Deydi, javdar, suliga  
Omborim to'lsin.  
Deydi, doim pichog'im  
Moy uzra bo'lsin.

Nafrat, g'azab yurakka  
Kelmasmi to'lib?!

Donda qo'shiq aytishar  
Bizlardan kulib:  
"Paroxodlar chiqadi  
Pristanidan,  
Baliqlarni boqamiz  
Kommunist bilan".

Biz aytamiz:  
"Kim zo'rroq –  
Bilinar bir kun,  
VChKga tumshug'ing  
Ilinar bir kun".

Bir kulfatdan tug'ilar  
Qo'sh-qo'sha kulfat.  
Bir kun Piter ustida  
Yana bir dahshat.  
Hech kim bilmas bu ne hol,  
Bu qanday suron?  
"Mudray ko'rma, hushyor bo'l,  
Mehnatkash inson!  
Piter ostonasiga  
Yudenich keldi!"  
Ayting, do'stlar, holimiz  
Ne kechar endi?  
Zambaraklar gumburlar,  
Har yon o't, tutun.  
Ne bo'ldi, ey, sho'rlik xalq,  
Piter, bu ne kun?!

O'sha yili yomg'ir ham  
Chelaklab quydi.  
Barcha kuzgi ekinlar  
Ildizin yuvdi.  
Dehqonning naq ko'ksiga  
Sanchganday xanjar,

O'sha yili dalada  
Bitmadi javdar.  
Yomg'ir yog'ar savalab,  
Sira tinmaydi.  
Charm kurtkali komissar  
Uyqu bilmaydi.

Don ortida – kazaklar  
Qarorgohida  
Och bo'ri qumri bo'lib  
Yig'lar gohida.  
Kornilov kazaklarga  
Bir so'z aytadir:  
"Partizanlar adabin  
Bermoq paytidir.  
Qizil Armiyani-chi,  
Denikin boplar.  
Boq, Dunaydan Dongacha  
Bizning bayroqlar..."  
Esar kuchli shamollar,  
Guvillar olam.  
Voroshilov biz bilan,  
Mard Budyonniy ham,  
"Toptalmasa, bas, javdar,  
Omon qolsa don", –  
Faqat shuni o'ylaydi  
Bechora dehqon.  
Ammo Denikin qadam  
Qo'ygani zamon  
Yuz tosh yerni biryo'la  
Ayladi payhon.  
Dehqonning bu holidan  
Dushman suyundi.  
Kayf-u safo avjida,  
Mollar so'yildi.  
Ayollarning ko'z yoshi  
To'kildi qancha,

Yosh qizlar nomusiga  
Tegildi qancha.  
Dedilar:  
“Yalangoyoq  
Qora xaloyiq,  
Senlarning qilmishingga  
Mana shu loyiq,  
Ey, sen iflos, yaramas.  
Firibgar, shayton,  
Yer-suvlarning haqqini  
To‘lab qo‘y, dehqon!  
Osganing-chun boylarni  
Javob ber, qani,  
Qamchi kuchin ko‘rib qo‘y,  
Momongni sani!..”

Ey, zangori sirenlar,  
Ey, chetan devor,  
Odamzodga bo‘lmasin  
Ona yurti tor,  
Mana, chorbog‘, kulbalar  
Huvillab qoldi.  
Yerni tashlab dehqonlar  
Qayga yo‘qoldi?  
O‘rilmagan ekinlar,  
Dalalar payhon.  
Endi qaydan boshpana  
Izlaysan, dehqon?

Mehnatkashga naqadar  
Og‘ir bu kunlar,  
Charm kurtka kiyganlar  
Uxlamas tunlar.  
Ular qilur jon fido  
El uchun: faqat  
Qo‘ldan ketmasin, derlar,  
Ozod Pitergrad.



Ligovoda dahshatli  
Jang borar bu choq.  
Motamsaro Pitergrad  
Chiroqsiz, uyg' oq.  
Bir zum qo'ysang yov yengar  
Hamda umrbod  
Shahar, qishloq orzusi  
Bo'lardi barbod.  
Manglaylardan ter oqar  
Va yuzlardan – qon.  
Charm kurtka kiyganlar  
Kaltak yer yomon.  
O'rilgan o't bog'iday  
Murdalar yotar.  
Kishnab, hurkib osmonga  
Sapchiydi otlar.  
Lekin bizning zarba ham  
Kuchayar kun-tun.  
Jang boradi sakkiz kun,  
Mana, to'qqiz kun.  
O'ninchi kun yov qochdi  
Dosh bermay jangga.  
Sichqonning ini bo'ldi  
Unga ming tanga.  
Biznikilar dushmanni  
Qildilar yakson.  
Yasha, ey, azamat xalq,  
Piter, bo'l omon!  
Lekin Belgrad yoqda,  
Xarkovda hamon  
Azob chekar mehnatkash,  
Qon yutar dehqon.  
Yalang oyoq Moskvaga  
Chopar yupun el.  
Ularning nolasidan  
Titrar butun yer.  
Bir parcha non deb to'kar

Ko'zlaridan yosh.  
Bu kulfatga, ayting, kim  
Berolur bardosh?!

Qishloqning o't yurakli  
Yigitlari ko'p.  
Bamaslahat bir yerga  
Yig'ildilar to'p.  
Yondirdilar har yonni,  
O't ketdi lov-lov,  
Naq Denikin ko'zidan  
Chaqnadi olov.

Ey, qo'shig'im, qo'shig'im,  
Bormi sendan soz.  
Goh munglidir ovozing,  
Gohida sarnoz.  
Qo'shig'imning davomin  
Eshitib oling.  
Qo'shiqchiga bir kosa  
May bera qoling.

Eh, yovlarning boshida  
O'ynadi tayoq.  
Sho'rlik Denikinni ko'r,  
Kornilovga boq!  
Qo'shiq aytsam, ovozim  
Olamni tutar.  
Kolchak degan admiral,  
Qo'lingni ko'tar!  
Cho'l bag'ridan sas kelar,  
Keladi suron.  
O'z uyim deb kurashar  
Bugun har dehqon.  
Charm kurtka kiyganlar  
Donda ham haddan  
Ular ko'proq, albatta,  
Petrogradada.

Oqlarning maskanida  
Dod-u oh-fig'on.  
Qurshab borar bizlarning  
Qo'shin beomon.  
Oqlarning maskanida  
Faryod-u nolish...

Tonggi shafaq ufqqa  
Alanga yoqmish.  
Mayxonalar darchasi  
Tonggacha yorug',  
Ular bilmas ertaga  
Kim bor-u, kim yo'q:  
Podsho uchun ichishar,  
Qutlug' Rus uchun  
Fohishalar bag'rida  
Uxlashar bugun.

Qizillar maskanida  
Xurrak va tutun.  
Paytavalar hididan  
Yorilar burun.  
Erta tongdan boshlanar  
Yana qonli jang,  
Birodarlar, dam oling,  
Soldatlar, uxlang.  
Boshingizdan zar sochsin  
Tong nuri porloq.  
Charm kurtka kiyganlar  
Bu kecha uyg'oq.

Hali tushmay dalaga  
Tongning ilk nuri,  
Bizni sahar uyg'otdi  
To'plar gumburi.  
Alam to'la ko'z bilan  
Tikkancha nazar,

Charm kurtka egnida,  
Dedi komissar:  
“Dushmanga biz shu yerda  
Taslim bo‘lsak gar,  
Oktabrning quyoshi  
Bir umr so‘nar.  
Hayotimiz qullikda  
O‘tadi tamom,  
Yov qamchisi boshlarda  
O‘ynaydi mudom”.  
Rota komandirimiz  
Shu gapdan keyin  
Asta artib ko‘z yoshin  
Yechdi etigin.  
Menga qarab dedi u:  
“Uyda etik yo‘q.  
Xotininga berib qo‘y  
Ko‘nglim bo‘lsin to‘q”.  
Hali tushmay dalaga  
Tongning ilk nuri,  
Bizni sahar uyg‘otdi  
To‘plar gumburi.  
Kuyla, kuyla, ey sozim,  
Kuyini baland ol.  
Burjo‘y otli kimki bor –  
Tumshug‘iga sol.  
O‘q arining nishidek  
Ko‘ksiga botar,  
Bizning otryad jadallab  
Oldinda borar.  
Yuguramiz to‘xtamay,  
Cho‘mgancha terga,  
Mukkasidan yiqilar  
Kommunar yerga.  
Yov chekinar, chekinar,  
Biz olg‘a, olg‘a.  
Mayli, halok bo‘lganlar

18 Yomg'irda qolsa.  
Bahodirlar, tinch uxlang,  
Qaytib kelurmiz.  
E'zoz bilan sizlarni  
Dafn qilurmiz.

Jang tamom, peshtoqlarda  
Bizning ol bayroq.  
Qo'lg'a olib oyog'in  
Qochar yov olchoq.  
O'lmasdan qolganiga  
Hayron, entikib  
Rota komandirimiz  
Kiydi etikni.  
"Bu etigim xoinga  
Qayda mos bo'lur?!"  
Uni o'zim tepkilab  
Kiysam soz bo'lur".

Jang tugadi, shod bugun  
Tirik qolgan jon.  
Yasha, ey, azamat xalq,  
Piter, bo'l omon!  
Tunlar yarim kechadan  
Saharga qadar  
Neva uzra Pyotrning  
Sharpasi kezar.  
Pyotrning sharpasi  
Uyib qovog'in,  
Tun bo'yi kezib chiqar  
Shahar har yog'in.  
Oyoqlari ostida  
Granit qirg'oq.  
Qudratli kemalarga  
Boqadi uzoq.....

## O'TTIZ OLTILAR DOSTONI

Rossiyada juda ko'pdir  
Yo'l,  
Yo'llardan ham qabristonlar  
Mo'l.  
Bir chaqirim yurmasdan  
Salib,  
To Yenisey turar  
Yuksalib –  
Olti ming bir qabr,  
Ogoh bo'l.

Bamisoli ulkan qopda  
Tosh,  
Ural qo'yib yotar yerga  
Bosh.  
Yotar uning ortida  
Tayga,  
Botar tushsa oyog'ing  
Qayga,  
Piyoda bir yurib ko'r,  
Yo'ldosh.

Kim o'rgangan bo'lsa agar –  
Soz!  
Hazil emas Sibirda  
Ayoz!  
O'rganmagan bo'lsang sen,  
Magar –  
Yo'lda qolsang,  
Chiyabo'rilar –  
Murdang uzra o'qishar  
Namoz.

Bo'kiradi dahshatli  
Bo'ron,

Og'ir qadam tashlaydi  
Posbon.  
Yelkalarda miltiq  
Qo'shaloq.  
Agar bo'lsang o'rmonga  
Kirmoq –  
Ko'zingga hech ko'rinmasin  
Jon.

Mahbusga-ku sallot  
Yetti yot,  
Sallot qilar o'zin  
Ehtiyot.  
To'g'ri nishon olmasa  
Ko'zi,  
Nishon bo'lar miltiqqa  
O'zi.  
Ammo ortga qaytma,  
Bor azot.

Kim og'asin taygaga  
Tomon  
Eltar bo'lsa, topmasin  
Omon.  
Sen kishanda dadil  
Bor, o'zing  
Bamisoli qari  
Barguzin.  
Yugur olg'a, tirik ekan  
Jon.

Uy bor Ural ortida  
Tanho,  
Chor atrofi bepoyon  
Sahro,  
Derazadan jilmayib  
Xiyol,

Soz chertib kuy aytadi  
Hilol,  
Ayt, yomonmi bu kuy,  
Bu navo?

Eshit, qo'shiq ohangi  
Ko'p soz.  
Bu qo'shiqqa ko'plar  
Ishqiboz.  
O'sar Ural ortida  
Archa,  
Yashamoqni istaydi  
Barcha,  
Oy berganda uylarga  
Pardoz.

Qayda bo'lsa agar bir  
Dildor,  
Misli siren gullagan  
Bahor.  
Qaddi navras, ohudek  
Ko'zi.  
Bamisli shu o'lkaning  
O'zi.  
O'sha yerda kuy ham  
Sehrkor.

Bo'kiradi dahshatli  
Bo'ron,  
Og'ir qadam tashlaydi  
Posbon,  
Yelkalarda miltiq  
Qo'shaloq,  
Agar bo'lsang o'rmonga  
Kirmoq –  
Ko'zingga hech ko'rinmasin  
Jon.



Quyun to'zg'ir bamisoli  
Par,  
Yonoqlarga sanchadi  
Nishtar,  
Sen hattoki og'ir  
Kishanda  
Bo'lsang quyosh husniga  
Banda,  
Shlisselburg bo'lgaymi  
Behtar.

Baland g'ishtin to'rt devor  
Aro  
Qafasdagi arslonday  
Go'yo  
Yurasan-u o'ylaysan  
Faqat –  
Balki ona yurtindan  
Bu vaqt  
Biror xabar keltirar sabo.

Balki bo'lib tuproq bilan  
Teng  
O'lib ketgan eng so'nggi  
Do'sting.  
Balki onang berar bu vaqt  
Jon....  
Qani endi, bo'lsa-yu  
Imkon,  
Tashqariga otsang sen  
O'zing.

Lekin olis vaqt  
Benihoya,  
Sallot sezar o'tsa bir  
Soya.  
Bilmoq bo'lsang nimadir

Qochmoq,  
Bir dam menga sol endi  
Quloq,  
So'zlab beray bitta  
Hikoya.

Ular edi o'ttiz olti  
Yor,  
Kamerada o'ltirmoq  
Dushvor.  
Quyun o'ynar darchada  
Har dam,  
Shlisselburg turar  
Mustahkam.  
Dengiz unga aytadi  
Alyor.

Ular nechun bu yerda  
Yotur?  
Chunki ular o'ktam va  
Jasur.  
Chunki otash qalblarda  
Faqat –  
Ona yurtga so'nmas  
Muhabbat.  
Ular shundan bu yerda  
Yotur.

Xotiradan chiqmas sira  
Zil –  
O'n yettinchi alangali  
Yil.  
Ko'chalarda barrikada –  
G'ov,  
Aka-uka bir-biriga  
Yov.  
Bir-biriga xunxor va  
Qotil.

Biri taxtga oshiq bo'lgan  
Qul,  
Podshosini qo'riqlaydi  
Ul.

Biri taxtga larza  
Solg'uvchi.  
Akasida bor uning  
O'chi.

Ayt, nohaqmi uka tutgan  
Yo'1?

Yodimdadir, xayol emas,  
Chin,  
Kazak qo'lda o'ynatgan  
Qamchin.

O'qqa uchib uzilgan  
Jonlar,  
Ko'kraklardan silqigan  
Qonlar  
Sahrodagi loladek  
Rangin.

Qor ustiga to'kilgan  
Lola  
Ne ekanin bilar har  
Bola.  
Kim yoshlikda bo'lmagan  
Tentak,  
Mushtlashmagan, yemagan  
Kaltak,  
Qoni bilan ekmagan  
Lola?

U kunlarni men ko'rganim  
Yo'q.  
Bola edim misli otash,  
Cho'g'.



Hali kitob koʻrmagan  
Edim,  
Koʻrsam edim turarmidim  
Jim,  
Soʻzim bilan otmasmidim  
Oʻq?

Ular edi oʻttiz olti  
Yor,  
Barchasining taxtda oʻchi  
Bor.  
Tashlab kelgan barchasi  
Uyin,  
Majnuntolin va hovuz –  
Boʻyin,  
Lekin dilda qoʻshiqdir  
Diyor.

Shunday deya komendant  
Bir kun:  
“Torlik qildi zal sizlar  
Uchun.  
Beshta mahbus bu yerda  
Qolur,  
Kameradan yolgʻiz joy  
Olur,  
Qolganlar-chi – vokzalga  
Shu tun!”

Keng dalada qordan oq  
Toʻzon,  
Uchib borar qafasdek  
Vagon.  
Taqirlyaydi betin poʻlat  
Iz,  
Kim aytolur, bu zamon  
Poyezd

Tutqunlarni eltmoqda  
Qayon?

Rossiyada juda ko'pdir  
Yo'l,  
Yo'llardan ham qabristonlar  
Mo'l.  
Bir chaqirim yurmasdan  
Salib,  
To Yenisey turar  
Yuksalib –  
Olti ming bir qabr,  
Ogoh bo'l.

Poyezd uchar boricha  
Imkon,  
Yuraklarda sirli  
Hayajon.  
“Bilaguzuk” qisgan  
Qo'llardan,  
Eltmoqdalar temir  
Yo'llardan.  
Oltin tog'da qazish uchun  
Kon.

Unda ishlar har biri.  
Toki –  
Oltin tog'da qolguncha  
Xoki.  
Qoni bo'lib qumga  
Oluda  
Vaqt kelib o'z qizi  
Qo'lida  
Tilla uzuk bo'lar  
Hattoki.

Keng dalada qordan oq  
To'zon,  
Yeldek uchar mahkam berk  
Vagon.  
Birdan turdi O'ttiz  
Birinchi,  
Dedi dilning yo'qoldi  
Tinchi,  
Uyqum qochdi bu tun  
Nogahon.

Bu kech menga yo'q endi  
Orom.  
Men qochishga ahd qildim,  
Tamom.  
Ko'kda oy yo'q, qop-qora  
Zulmat,  
Yordam bering turishga  
Faqat,  
To'lib ketdi sabr atalgan  
Jom.

Panjarani qirqadi  
Arra,  
Yordam berdi quyun  
Bir karra.  
Do'stlar, meni qurshab  
Har yoqdan,  
Pana qiling faqat  
Chiroqdan.  
Payqashmasa, meniki –  
Marra.

O'ttiztasi turishdi  
Qator,  
Go'yoki bir o'z gaplari  
Bor.

Go'yo qorga boqarlar  
Faqat,  
Nahot qochmoq shuncha,  
Mashaqqat –  
Yoniq ekan darchada  
Fanor.

Unda qoldi beshovlon  
O'rtoq,  
Har birida bor o'zga  
Yotoq.  
Quyun o'ynar darchada  
Har dam,  
Shlisselburg turar  
Mustahkam,  
Faqat unda mashaqqat  
Yotmoq.

Uyqu kelmas, ko'z yumsang,  
Dalang –  
Xayolingda jonlansa  
Yalang,  
Ko'z oldingdan ketmasa  
Uying,  
Chamanlarga boshlasa  
O'ying –  
Chopib yurgan choqlar  
Bosh yalang...

Har yon jimjit, sokin kechki  
Choq,  
Yetti bor zang urdi  
Qo'ng'iroq.  
Oy barkashi ulkan hamda  
Ol,  
Bamisoli surganday

Xayol,  
Jim g'ildirab borar, ko'ksi  
Dog'.

Quyun o'ynar, yer-u osmon  
Teng,  
Quyun – yolg'iz g'amzada  
Do'sting.  
Xoh yorug' kun, xohi  
Zimiston –  
Qani endi, bo'lsa-yu  
Imkon,  
Tashqariga otolsang  
O'zing.

Beshinchisi hasratdan  
Toldi.  
Qayerdandir bir egov  
Topdi.  
Qitirlatdi tun bo'yi  
Betin,  
Ter qopladi manglay-u  
Betin,  
Lablaridan chakillab  
Tomdi.

Aravaga ortarkan  
O'tin,  
Ko'rib qoldi mahbuslar  
Bir kun –  
Qichqirgancha qiya  
Jarlikka  
U o'zini tashladi  
Tikka,  
O'z qa'riga oldi uni  
Tun.



Kun ketidan o'tadi  
Kunlar,  
Kunlar xuddi charxdek  
Urinar,  
Mana, ayoz izillatgan  
Chog' –  
Qirq ikkinchi kamerada,  
Boq,  
Yana qayta uchrashdi  
Ular.

Beshinchiga tikkanicha  
Ko'z,  
Boshlar O'ttiz birinchisi  
So'z:  
"Hov olisda oqar betinch  
Ob,  
Sohilida qishloq bor  
Xarob,  
Shu qishloqdan o'tar temir  
Iz.

Kelur odam hayotga  
Bir bor,  
O'tganlarni eslamoq  
Dushvor.  
Ko'rgin endi, sibirlik  
Nodon –  
Uning uchun bir tiyin  
Inson,  
Har qadamda sotmoqqa  
Tayyor.

Oppoq qorga burkangan  
Har yon,  
Hech narsa yo'q yodimda,  
Ishon.  
Bir narsani eslayman

Faqat,  
Pichanda xo'p uxlamoq  
Lazzat,  
Bo'lsa hamki achchiq  
Qahraton".

Beshinchisi ko'tardi  
Boshin:  
"Mana, qirqqa yetibdi  
Yoshim,  
Ichimdagi tinchimas  
Shayton  
Chorlar, lekin o'rmonlar  
Tomon,  
Quvgim kelar oqshom  
Quyoshin.

Yodimda yo'q hozir  
Hammasi,  
Qorda yotdim – soat  
Chamasi.  
Bo'ron sasin tingladim  
Tanho,  
Bu lazzatdan ayirdi  
Ammo  
Yetib kelgan soqchi  
Nafasi.


Namlik, ayoz, bo'ron –  
Hushtagi.  
Yerga tekkan bulut  
Etagi.  
Yodingdadir, albat,  
Tutqunlar  
Vidolashgan tabarruk  
Kunlar,  
O'n yettinchi yil

Gulduragi.  
Har kim jo'nab ketdi  
Uyiga,  
Majnuntoli, hovuz  
Bo'yiga.  
Osmonda oy, pastda  
Oq qayin...  
Faqat sevgan dilni  
Topmayin,  
Kirdi ko'ngil firoq  
Ko'yiga.

Ular edi o'ttiz olti  
Yor,  
Har birining taxtda o'chi  
Bor.  
Oktabrning tongida  
Bari  
Yurdi podsho saroyi  
Sari.  
Qilmoq uchun uni  
Tor-u mor.

Kunni quvib o'tadi  
Kunlar,  
Bugun yana uchrashdi  
Ular.  
Har birida yangi shinam  
Uy.  
Jimjitgina surib yotar  
O'y,  
Ko'zlardagi o't asta  
So'nar.

Har yon jimjit, sokin oqshom  
Choq,  
Yetti bor zang urdi



Egni yupun, yarim och edi.  
Butun boshli qishloqqa faqat  
Bir juft ho'kiz, bir omoch edi.  
Qo'li egri odam bo'lsa gar,  
Biri ikki bo'larmidi hech?!

Bizning yerdan ablah o'g'rilar  
O'tin kesib ketardi har kech.

Bir kun tappa ushladik tunda,  
Ular bolta ko'tardi darrov.  
Biz ham qarab turmadik shunda,  
Boltalardan sachradi olov.  
Ajal bo'lar janjal oxiri,  
To'polonda o'tmayin xayol –  
Bolta soldi ulardan biri;  
O'sha joyda o'ldi oqsoqol.

Biz yoq gapni qo'ydik bir yerga,  
Sud qildilar.  
Va ertasi kun  
Kishan urib, uzoq Sibirga  
O'n kishini qildilar surgun.  
Shu-shu turmush bizni ham siqar,  
Tole ketib, qoldi g'am, kulfat,  
Uch yildirki, goh yong'in chiqar,  
Goh mollarni quritar o'lat.  
Bu qayg'uli gaplarni yo'lda  
Aravakash so'yladi u kun.  
Radovoga kelardim shunda  
Birozgina dam olish uchun.

Urush ezib tashladi meni,  
O'ylab ko'rsam tanamga bundoq,  
Ado etib yotlar izmini,  
O'z og'amga uribman pichoq.  
Zodagonlar, boylar ortda-yu,  
Jang o'tida biz ekan, bilsam.

Men to‘plarga xayr deb mangu  
Tutmoq bo‘ldim jangovar qalam.  
“Lipa” olib uyga yo‘l soldim,  
Uloqtirdim miltiq sabilni.  
Shu zaylda qarshilab oldim  
O‘n yettinchi olovli yilni.

Titroq solib butun zaminga  
Qo‘zg‘aldi “erk” degan kalima.  
U payt yurtida oq otga mingan  
Kerenskiy edi xalifa.  
Urishamiz to yengguncha, deb  
Juldur chakmon kiygan elimga –  
Muttahamlar miltiq tutqazib  
Yo‘llar edi aniq o‘limga.  
Borar ekan zo‘r safarbarlik,  
Vahshiy to‘plar qah-qah urgan choq –  
Men ko‘rsatdim o‘zgacha mardlik,  
Bo‘ldim yurtida birinchi qochoq.

Qishloq yo‘li naqadar ko‘rkam,  
Salqin sado berar yaproqlar.  
Ko‘tarilar oltin oy ko‘kka,  
Zarrin nurga cho‘mar yiroqlar.  
“Mana keldik Radovoga ham”.  
Aravakash so‘zlar serviqor –  
Qo‘shib qo‘yar:  
“Manov muttaham  
Otga qamchi urmadim bekor.  
Qani, sherik, choy puli tashla,  
Tegirmonchi kerakmidi?  
Hov...

Ko‘p haq talab qilmayman, oshna,  
Lekin ancha yo‘l bosdi ulov”.  
Qirq so‘m berdim. Olmadi:  
“E, kam!”

Oltmish berdim –  
Chimrildi qoshi.  
Ko‘p noinsof yigitcha ekan,  
Yigitchaki, o‘ttizda yoshi.  
Deyman: – Bormi insofdan ozroq,  
Nega meni qoqlaysan muncha?  
Javob berar menga baqaloq:  
“Bu yil hosil bo‘lmadi uncha,  
Ozroq qo‘shing,  
Aniq-ku dardim,  
Yana o‘n so‘m nima degan gap?!  
Jindakkina otib olardim  
Sog‘lig‘ingiz uchun ertalab”.

Tegirmonga keldim.  
Oyda zab  
Tovlanadi qarag‘ay nihol.  
Sevinchidan tegirmonchi chol  
Ikki gapni aytolmas ulab:  
“Sergey, bo‘tam!  
Keldingmi, chiroq!  
Sovqotibsan, ichkariga kir!  
Qanisan, hoy, bo‘laqol tezroq,  
Samovarni olib kel, kampir!”  
Sovuq bo‘lmas aprelda aslo,  
Ayniqsa, may kelarkan, aniq.  
Kecha edi sokin, musaffo,  
Yorug‘ edi tabassum yanglig‘!..  
Tegirmonchi siqsa quchoqlab,  
Hatto ayiq berolmas chidash.  
Ammo yurak siqilgan choqda  
Har qalay bir do‘st kerak dardkash.  
“Xo‘sh, qanchaga kelding?!”  
“Bir yilga!”  
“Bu juda soz, o‘ynayver, ukam,  
Boy bo‘ladi bu yoz hosilga.  
Ko‘p bo‘ladi qo‘ziqorin ham.

Qishlog‘imiz qushlar iniday,  
Juda serob tustovuq, quyon...  
Keldim, degin,  
Obbo, inim-ey!  
Ko‘rishmabmiz to‘rt yildan buyon”.

Suhbat tamom.  
Jimgina, begap  
Samovarni bo‘shatdik. Keyin  
Po‘stinimni yelkamga tashlab  
Boloxonaga yo‘l oldim sekin.  
O‘tarkanman keng bog‘ ichidan,  
Yuzlarimga urilar siren.  
Hatto anov eskirgan chetan  
Qalbmida his uyg‘otar shirin.  
Xuddi shunda  
Eslayman ilk bor,  
O‘n oltiga kirganda yoshim  
Oq kiyingan bir go‘zal dildor  
“Yo‘q” deb aytdi, chimirib qoshin.  
Hilpiradi oq ro‘mol boshda,  
Hamon yodim saqlar u qizni.  
Biz barchamiz sevdik shu yoshda,  
Lekin hech kim sevmadi bizni.

## 2

“Sergushajon, turaqol endi,  
Qara, kampir tong otmasdanoq,  
Sevinchidan, sho‘rlik, entikib  
Pishiribdi sen uchun quymoq.  
Men shu yerlik  
Pomeshchik xotin  
Huzuriga borishim kerak.  
Snegina uchun atayin  
Otgan edim kecha loyxo‘rak”.

Salom senga,  
Alvon subhidam!  
Tashqariga chiqdim kiyinib.  
Tong nurida yaltirar shabnam  
Olmalarning bargiga inib.  
Qanday go'zal,  
O, qanday go'zal  
Yer  
Va unda yashagan inson!  
Ammo urush,  
Bu mash'um ajal  
Qanchalarni qildi notavon!  
Qurbon bo'ldi qancha o'g'illar,  
Hali yana ketar qancha bosh...  
Yuragimni ezadi o'ylar,  
Ko'zlarimga to'lib kelar yosh.  
Yo'q, bormayman!  
Bormayman aslo!  
Menga ming bor afzaldir o'lim –  
Ko'cha-ko'yda bo'lib xor, gado,  
Xayr so'rab cho'zguncha qo'lim.  
“Salom, kampir,  
Ahvollar qalay?”  
Ancha qarib qolibsiz, xola!  
Kampir quv-quv yo'talar tinmay:

“Yumush meni qaritdi, bolam!  
El-yurt notinch,  
Ha, zamon yomon.  
Urush-janjal, to'polon har yoq.  
Dehqon bilan mushtlashar dehqon,  
Qishloq bilan jang qilar qishloq.  
Bir-birining go'yo dushmani,  
Bir-birini so'kar begunoh:  
Goh Radovo Kriushani,  
Kriusha Radovoni goh.  
El boshvoqsiz.



Biror hokim yo‘q.  
Oqposhshoni haydashdi –  
Mana,  
Omi xalqqa kim berar buyruq,  
Balo yog‘di boshlarga yana.  
Kim biladi,  
Nega qamoqdan  
O‘g‘rilarni ozod qildilar?  
Ular, mana, ko‘r,  
Hamma yoqda  
Odamlarni talar, o‘ldirar.  
Misol:  
Ahli Kriusha,  
Bo‘shatmaslik kerak ularni.

Eng muttaham, o‘g‘ri o‘shalar;  
Qaytib keldi uyiga bari.  
Ulardan bir Pron Ogloblin  
Degani bor –  
Ablah, yaramas,  
Hammaga bir sochar g‘azabin,  
Tong sahardan to kechgacha mast,  
Yodimizda:

Urush boshlangan  
Uchinchi yil shu qotil o‘zi  
Oqsoqolni chopib tashlagan  
El oldida kuppa-kunduzi.  
Nelar qilmas el orasida  
Minglab shunday bo‘shalmas mahbus.  
Xarob bo‘ldi sho‘rlik Raseya,  
Tamom bo‘ldi panohimiz Rus”.  
Esga tushar ul aravakash,  
Shlapamni olaman qo‘lga.  
Yor-do‘stlarni ziyorat aylash  
Maqsadida tushaman yo‘lga.  
Borar edim yashil so‘qmoqdan,  
Bir vaqt ko‘rsam,

Tegirmonchi chol –  
Men tomon kelar tuproqdan  
Aravasin haydab bemalol.

“Sergey, bo‘tam,  
Nur ustiga nur!  
To‘xta, bir gap aytaman senga!  
Tizginni ol...

Hozir... shoshmay tur,  
Qiziq bo‘ldi, quloq sol menga.  
Aytmabsan-a, menga ertalab?  
O‘ltirishib Snegin bilan  
Sen haqingda ochib qoldim gap  
(Ular juda qalin men bilan).

Mana,  
Biznikida bir yigit mehmon...  
Erga chiqqan qizlari Anna –  
Deydi: mehmon shoirdir, ayon.  
– Ha, ha, shoir bo‘lganda qandoq!  
– Jingalak soch, sarg‘ishmi yuzi?  
– Xuddi shunday – sarg‘ish yuz, quvnoq,  
Juda ochiq, hazilkash o‘zi.  
– Qachon keldi?  
– Uch-to‘rt kun burun.  
– U o‘sha-ku, qarang, onajon,  
Bilasizmi, o‘sha o‘spirin  
Xushtor edi menga bir zamon.

Tortinchoq bir yosh bola edi,  
Bugun esa,  
Qarang...  
Ajabo...  
Katta shoir bo‘libdi endi,  
Chaqirmasak kelmas, hoynahoy...”  
Shunday deya g‘olib, ma‘nodor  
Tegirmonchi ko‘z qisdi menga:  
“Xo‘p bo‘lmasa. Yana gaplar bor,

Hali barin aytaman senga”.  
Yo‘l olaman Kriusha tomon,  
Uzib borar o‘tlarni hassam.  
Yuragimda na qatra gumon,  
Na bir tashvish, na bir zarra g‘am.  
Sezib tongning shirin totini,  
Boshga shirin xayol keladi.  
Ko‘z oldimga soldat xotini –  
Do‘ndiqqina ayol keladi.

Kriusha...

Uch yildan buyon  
Boqmaganman tanish uylarga.  
Sukunatni binafsha osmon  
Burkamishdir binafsha bo‘ylarga.  
Jimlik,  
Itlar hurimas hatto,  
Ish yo‘q, chog‘i, bunda itga ham.  
Besh-o‘n kulba qo‘qqaygan tanho,  
Ichi esa quruq – shipshiydam.  
Xayolga band  
Tashlayman qadam  
Asta Pron kulbasi tomon,  
Mana qonun, narx-u navodan  
Bahs qilmoqda bir to‘da dehqon:  
“Salom, do‘stlar!”  
“E, ovchi, salom!”  
Qani, qani,  
Kel, o‘tir, eshit –  
Eshit sen ham bir-ikki kalom  
Bizning qismat haqida, yigit.  
Xo‘sh, Piterda nima gaplar bor?  
Ministrlar tanishdir bari,  
Obbo, sen-ey!  
Ketmabdi bekor  
Senga mushtning “tarbiya”lari.  
Dehqon o‘g‘li, rozimiz sendan,

Sen bizniki, sira yotmassan.  
Taltaymassan shuhurat-u shondan,  
Vijdoningni pulga sotmassan.

Senga ayon mehnatning teri,  
Dehqon bilar dehqonni, rasmi.  
Ayt-chi, o'g'lon,  
Boylarning yeri  
Dehqonlarga o'tishi rostmi?  
Baqirishar bizga,  
Vaqt erta,  
Yer haqida o'ylama, dehqon! –  
Shunday bo'lsa bizlar frontda,  
Xo'sh, kim uchun to'kmoqdamiz qon?"  
Alam to'la nigohlar bilan  
Javob kutib turishadi jim.  
Men-chi, og'ir yo'llar bilan band  
Bir og'iz so'z ayta olmadim,  
Lekin hamon saqlaydi yodim:  
Ostonada cho'kkanicha tiz,  
Kimdir dedi:  
– Ayt-chi, Lenin kim?  
Javob berdim ohista:  
U – siz.

### 3

Kezib yurar qishloqda mish-mish,  
Hamma yoqda gap, shivir-shivir.  
“Undoq emish, bundoq bo'larmish”,  
Menga barin yetkazar kampir.

Charchab qaytdim daladan bir kun.  
Yonboshladim asta divanga.  
Badanlarim qaqshardi butun,  
Ko'p yuribman, chog'i, tumanda.  
Titroq turib a'zoyi tanga

Goh yonaman,  
Goh bo'laman muz.  
Borlig'imni chulg'ab alanga,  
Yotib qoldim to'rt kecha-kunduz.

Qo'rqib sho'rlik tegirmonchi chol  
Bergan, chog'i, kimgadir darak.  
Ko'zlarimga chalindi xiyol  
Qirg'iy burun,  
Oq harir ko'ylak...  
Qattiqqina tekkan ekan dard,  
Bazo'r otdim yelkamdan yukin  
Va nihoyat besh kun deganda  
Bosh ko'tardim yostiqdan sekin.  
Bosh ko'tardim va qadni biroz  
Rostlab, endi qo'ygandim qadam,  
Qulog'imga mayin bir ovoz  
Eshitildi:  
"Salom, do'stginam!  
Eslaysizmi,  
Bizlar bir zamon  
Bola edik, qarang-a, hozir  
Men bo'libman uy-joyli juvon,  
Siz – el-yurtga taniqli shoir.

O'ltiraylik.  
Xo'sh, qalay sog'liq?  
Siz o'zgarib ketibsiz butun,  
Qo'lingizni ushlagan chog'im  
Ich-ichimdan xo'rsindim u kun.  
Ha...  
Befoyda, yoshlik qaytmas hech,  
O'tib borar yillar beshafqat.  
Suv labida siz bilan har kech  
O'ltirishni sevardim bir vaqt.  
Shon-shuhratni qilardik orzu.  
Siz yetdingiz,

Niyat xolis, der.  
U gaplarni qalbidan mangu  
Uloqtirdi yosh bir ofitser...”

Tinglardim men va beixtiyor  
Boqar edim nozik qaddiga  
Unga aytgim kelardi:  
“Dildor,

Boshqa gapni boshlaylik”, deya,  
Qovushmasdi lekin so‘zlarim,  
Tilim kelmas bir gap aytgani.

Derdim:

“Ha... ha...

Yodimda bari...

O‘ltiring....

Shod qildingiz mani...

Keling,

Sizga she‘r o‘qib beray,

Kuylaganman mayxona Rusin.

She‘rlarimning ruhiga atay

Singdirganman lo‘li qayg‘usin”.

“Sergey!

Qiziq ko‘p ishlaringiz,

Sizga juda bo‘laman hayron.

Mastona bu qilmishlaringiz

El-u yurtga

Bo‘libdi doston.

Ayting, axir,

Nima gap o‘zi?”

“Men bilmasman...”

“Qiziq gap bu ham”.

“Mayxo‘rligim boisi, uzum

Pishig‘ida tuqqandir onam”.

“Ajoyibsiz”.

“O‘zingiz, Anna,

Sevganingiz bormi?”  
“Yo‘q”.  
“Ajab,  
Ne qilasiz yo‘qsa shu yoshda  
O‘zingizni azobga tashlab?  
Qanday porloq axir ertangiz...”  
Asta quchar ufqni tuman.  
Ne qilganim o‘zim etmay his,  
Ro‘moliga qo‘l tekkizdim man.  
Qah-qah urar oy – masxaraboz,  
Garchi iz yo‘q u kunlardan hech,  
O‘n olti yosh  
To‘lqiniga xos  
Tuyg‘ularga boy edim bu kech.  
Boqishlarda sirli bir ma’no.  
Xayrlashdik bizlar subhidam...  
Go‘zallik bor yozda, dilrabo,  
Go‘zallik bor odamlarda ham.  
Tegirmonchi,  
Eh, tinchimas chol –  
Yig‘ishtirgan barcha ishini.

Qatnar betin pochtachi misol,  
Juda bezor qildi kishini.  
Keltirdi u bugun ham maktub  
Har galgidek jo‘shqin va biyron:  
“Keling,  
Siz eng yaqinsiz. Kutib –  
Hurmat bilan  
Ogloblin Pron”.  
Mana,  
Keldim Kriushaga,  
Darvozada turar Ogloblin.  
Sochar xalqqa u qo‘sha-qo‘sha –  
Boloxonador qilib g‘azabin:  
“Ey, kanadan tarqaganlar!  
Yur –

Snegina uyiga, qani!  
U qo'l qo'ysin –  
Hammang mahkam tur –  
Barcha yerin bizga bergani...”  
Meni ko'rib ovozin biroz  
Pastlatdi-yu, yuragida g'ash,  
Alam bilan dedi:  
“G'o'rmiz, rost –  
Toblash kerak dehqonni, toblash!”  
“Chaqirdingmi meni, Prosha?”  
“Ha, xizmat bor,  
Ot topay, shoshma.  
Yer so'rashga boramiz o'sha  
Snegina uyiga, oshna!”  
Keltirishdi to'riqni arang,  
Tayyor bo'ldi “ajoyib” ulov.  
Bunday otni pul qo'shib bersang,  
Savob uchun olmaydi birov.  
Mayda qadam tashlab borar ot,  
Xizmat qildik bizlar baravar.  
Balandlikka qilamiz tort-tort,  
Yelkamizga chiqar arava.  
Mana keldik,  
Hashamatli uy,  
Old tomonga engashganday sal,  
Chor-atrofga taratib xo'shbo'y  
Yosmin o'sgan bog'chasi go'zal,  
Aravadan tushdik,  
Yelkadan –  
Changni qoqib, to'xtatdik biroz,  
Quloqlarga shu payt yo'lkadan  
Eshitildi nogahon ovoz:  
“U tirilmas endi baribir,  
Yig'lasang ham,  
Yig'lamasang ham,  
Birov keldi chog'i... Men hozir...  
Sen upangni surib tur, bolam”.



Kattagina halqani surib,  
Darvozani ochdi bir ayol,  
Pron unga ro‘baro‘ turib  
Yer haqida so‘z ochdi darhol.  
“Ber! – dedi u,  
Baqirdi takror; –  
Oyog‘ingga yiqilmoq shartmi?”  
Ayol go‘yo bermay e‘tibor  
Ichga yutar edi nafratin.  
So‘ng gal kelgach, u g‘amgin yuzin  
Men tomonga ohista burib  
Dedi:  
“Hozir chiqadi qizim...  
Men aytaman,  
O‘ltirib turing”.  
Bugun aniq tiklar xotiram  
U kunlarning shiddat, girdobin,  
Sira oson emasdi,  
Sira –  
Ko‘rmoq menga juvon azobin.  
Sezdim:  
Uning kulfati cheksiz,  
Hech tasalli topmas so‘zimdan:  
“Borya o‘ldi...  
Nega keldingiz?!  
Nari keting tezroq ko‘zimdan!  
Siz – olchoqsiz,  
Tuban, noinsof!  
Sizlar bunda...  
Halok bo‘ldi u...”  
Hali bu ham bormidi! Inson  
Chidash uchun tug‘ilmagan-ku.  
Chetga burib xuddi shapaloq  
Urilganday qizargan betim:  
“Pron, bugun vaqtimas, o‘rtoq,  
Yur, endi bir ichaylik!” – dedim.

Butun yozni ovda o'tkazdim,  
 Chiqib ketdi yodimdan bari.  
 G'amda mening bo'ldi hamdardim  
 Nola qilgan o'rmon qushlari.

Gashtin surib gul ko'klam chog'in  
 To'ya olmas bechora o'lkam.  
 Daraxtlar tez to'kar yaprog'in,  
 May tunidek tez o'tar yoz ham.  
 Alvon o'ynar ufq yuzida,  
 Quyuqlashar tuman pardasi,  
 Oltin rangli o'rmonlar uzra  
 Jaranglaydi sho'x qushlar sasi.  
 Tegirmonchi cholning kayfi chog',  
 Kulgu ketmas labidan bir on.

“Mana endi,  
 Ov qilamiz, oh!  
 Quyonglarga solamiz qiron!”  
 Ov ham yaxshi...  
 Dildagi tugun  
 Sal yozilar, derdim o'zimga.  
 Kelib qoldi Pron kechqurun,  
 Shodon kulib boqdi yuzimga.  
 “Qutlug' bo'lsin, do'stim, ulug' baxt!

Mana,  
 Kutgan onimiz keldi.  
 Boshimizda yangi hukumat,  
 Ko'rsatamiz hammaga endi.  
 Xo'jayinlik qilolmas hech kim,  
 Yer bizniki!  
 Zo'r bo'ldi ishlar,  
 Rossiyada sovetlar hokim,  
 Lenin o'zi boshliq komissar!  
 Mana, do'stim,  
 Ish degani bu,  
 “Pochin” derlar buni chinakam.

Suyunganda men suyundim-u,  
Ishtonini ho'l qildi akam".  
U gapirar sevinchga to'lib:  
"Endi gashtni surganim bo'lsin,  
Kommunani birinchi bo'lib  
Qishlog'imda qurganim bo'lsin!"  
Pronning bir Labutya degan  
Akasi bor – sersavlat, biroq.  
Maqtanishdan hech tinmaydigan,  
O'zi esa o'lguday qo'rqqoq.  
Ko'rgansiz,  
Ko'p bundaylar juda.  
Gap desangiz – bag'ishlar u jon.  
Ko'kragida  
Yapon jangida  
Oq poshshodan olgan qo'sh nishon.  
Mayxonaga kirgan oni u  
Bo'zrayganicha qo'l cho'zib so'zlar.  
"Lyaoyan qahramonini  
Choraktaga qarz qiling, do'stlar!"  
Otib olgach, aljirab tag'in  
Beriladi o'z "kulfati"ga.  
Port-Arturning taslim bo'lganin  
Yig'lab so'zlar hamsuhbatiga:  
"Azizim, – der,  
Meni mast dema,  
Menga juda alam qiladi.  
Mardligimni,  
Do'stim,  
Birgina  
Lyaoyanning o'zi biladi".

Taniqlidir  
Bundaylar elga –  
Ishga bo'yin egmog'i mahol,  
U davlatga sovetlar kelgach,  
Medallarin yashirdi darhol.

Lekin hamon  
Gapin bermas u.  
Hamon so'ylar elga 'aqida,  
Botirlarcha jang qilgani-yu,  
Turuxan va Nerchinsk haqida.  
"Mana shunday mardligimiz bor,  
Jasurlikni o'rganing bizdan!"  
"Medal" so'zin qaytarar yuz bor,  
"Medal" so'zin qo'ymas og'zidan,  
Pron uni so'kardi itday,  
So'kar edi medalin qo'sha.  
Snegina mulkin harqalay  
Xatga oldi birinchi o'sha.  
Shiddat bo'lar  
Doim hujumda:

Qilib xutor bor-u yo'g'in jam,  
Keltirdilar bo'lisga zumda  
Mollarni ham,  
Bekalarni ham.  
Tinchimagan  
Tegirmonchi chol  
Ayollarni boshlab keldi-yu,  
Men sho'rlikni tun-kun arz-u hol  
Tinglamoqqa majbur qildi u.  
Bir kech yana  
G'amdand qimtingan  
Go'zal labga bo'lib mahliyo,  
Allanechuk o'y keldi dilga  
Ko'ksimda bir his bo'ldi paydo...  
Yodimdadir uning so'zlari:  
"Nohaq edim.  
Kechiring meni,  
Sevar edim, netay erimni,  
Siqilaman eslagan sarim.  
Hijron meni ezardi,  
Lekin

Sizni bilmay ranjitganim rost.  
Bilsaydingiz,  
Menga o'sha kun  
Hokim edi kuchli ehtiros...

Mayli,  
Axir bizning sevgimiz  
Davom etmas edi hamisha.  
Bir kun meni tashlar edingiz  
Misoli bir  
Bo'shagan shisha.  
Kerakmasdi shuning uchun ham  
Uchrashuvlar....  
Umuman, bari.  
Qiyналardim, rosti gap, onam  
Ko'zlarimga boqqani sari..."  
Tinglab turib men ham suhbatni  
Boshqa yoqqa burdim atayin.  
Shunda uning nozik qomati  
Allanechuk silkindi mayin.  
"Aying, Anna,  
Siz xutorning bu  
Ahvoliga kuyarsiz ancha?"  
U ohista boshin egdi-yu,  
Turib qoldi yerga boqqancha.

"Qarang!  
Ajab tong otar, shafaq  
Qor ustida yoqmish alanga.  
Bu manzara,  
Bu ajoyib vaqt  
Nimanidir eslatdi manga.  
Ha, esladim!  
Kuz edi. Alvon  
Tong shafag'i o'ynardi boshda.  
O'ltirardik bizlar yonma-yon,  
Ikkimiz ham o'n olti yoshda".  
So'ng nozli bir qarash qildi-yu,

Qqushqanot qo'llarin egdi.  
Va ohista dedi menga u:  
"Xo'p bo'lmasa...  
Dam oling endi..."

Kechga tomon jo'nadi ular,  
Qayon?  
Bila olmadim qayon.  
Dala tekis,  
Ko'pdir belgilar,  
Belgi bo'lgach, yo'l topish oson.  
Bilmam, nelar bo'ldi menga so'ng,  
Bilmam, yana ne qildi Pron.  
Yozmoq uchun siqilgan ko'nglim,  
Jo'nab ketdim Piterga tomon.  
O'tli yillar,  
Bo'ronli yillar,  
Tasvir etmoq naqadar og'ir.

Yo'q, saroylar tinglamadilar  
"Ona" degan soldatning ohin.  
Qoyil!  
Ayni bahor kulgan vaqt!  
Hovlilarda yig'ilib to'p-to'p –  
Royallarda juldurvoqi xalq  
Sigirlarga chalar fokstrot.  
Bug'doy, sulii, kartoshka berib,  
Grammofon olibdi dehqon.  
Echki o'ylar oyog'in kerib  
Endi tango chalingan zamon.  
Dehqon soliq borasidagi  
Gapda chiqar har qanday izdan,  
Ikki oyoq orasidagi  
Sabilni hech qo'yimas og'izdan.

Yillar o'tar,  
Ketib boradi

G'allakorning qo'lidan davlat,  
Shishalarda damin oladi  
"Kereneks"lar, "xodey"lar albat.  
Mayli, yetar,  
Oh-u zor nechun?  
Foyda bormi gapdan, pichingdan?

Mana,  
Pron haqida bugun  
Maktub oldim tegirmonchidan.  
"Salom senga, azizim, salom!  
Sergey! Bo'tam, bormisan omon?!"  
Mana, olti yil o'tdi, bolam,  
Biz tomonga kelmaysan hamon.  
Kel!

Yo'lingga ko'zlarimiz to'rt.  
Bahorda bir kelgin, albatta,  
Biz tomonda yangiliklar ko'p,  
Yozib bo'lmas barini xatda.  
Endi tinchlik o'rnadi elda,  
Tinib qoldi quturgan bo'ron.  
Yigirmanchi suronli yilda  
Eshitib qo'y,  
Otildi Pron.

Raseya...  
Eh, toleyi nigun,  
Baxt zoti yo'q bizning go'shada.  
Denikinining otryadi bir kun  
Paydo bo'ldi Kriushada.  
Bo'ldi qirg'in,  
Bo'ldi to'polon.  
Qochgan qancha, o'lgan qanchasi.  
Bosh ustida aylandi chunon  
Xushtak chalib kazak qamchisi.

O'qqa uchdi Pron o'sha kun,  
Labutya-chi,

Saqlab qoldi jon.  
G'oyib bo'lgach kazaklar butun  
Chiqib keldi —  
Ust-boshi somon...  
Tongda ichib, yana har kimga  
Maqtanadi va deydi takror:  
“Men ko'rsatgan botirligimga  
Qizil orden taqishim darkor!”  
Boshimizdan ketdi bulutlar,  
Turmushimiz soz bo'lmasa ham.  
Harqalay, kel,  
Bir tashla nazar,  
Qarib qoldim, ko'nglim ol, bo'tam!”  
Yana yo'lga chiqdim.  
Ajab tun,  
Xush bo'y ila mast qilar iyul.  
G'ildiraklar ostida betin  
Chopar tinmay bidirlab tosh yo'l.  
Qishloq yo'li naqadar ko'rkam,  
Shitirlashar yelda yaproqlar.  
Ro'paramdan o'tadi, mana,  
Tanish uylar, butxona, quduq.  
Termulaman, yuragim yana  
Yoshlikdagi hislarga to'lug'.

Tegirmonga keldim,  
Oyda zab  
Tovlanadi qarag'ay nihol,  
Sevinchidan tegirmonchi chol  
Ikki gapni aytolmas ulab:  
“Sergey, bo'tam!  
Keldingmi, chiroq?  
Sovqotibsan, ichkariga kir.  
Qanisan, hoy, bo'laqol tezroq,  
Samovarni olib kel, kampir!  
Sergey! Oltin!  
Qara-chi menga.



Ulg'ayibdi ancha yoshing ham,  
Obbo, sen-ey,  
Aytgancha, senga  
Bor mening bir ajoyib sovg'am".  
"Qanday sovg'a?"  
"Sovg'a emas, xat,  
Shoshirmay tur bir nafas, Sergun.  
O'tdi chog'i ikki oycha vaqt.  
Keltirgandim pochtadan bir kun".  
Xatni ochdim... o'qidim... Albat –  
Kutganimdek. – Bu o'sha nigor,  
Mayda qilib,  
Tez yozilgan xat.

Chekkasida London muhri bor:  
"Sog' bormisiz, salomat, omon?"  
Men ham sog'man, tinchman, salomat.  
Tushlarimga kirar har zamon  
O'sha bog'cha,  
Siz bilan suhbat...  
Men yiroqda –  
Sizlar yiroqda...  
Rossiyada hozir navbahor.  
Daraxtlar ham gulga kirmoqda,  
Moviy libos kiygan archazor.  
Oq qog'ozga dil ishonchi-la  
Bitarkanman yurak ovozim,  
Balki shu payt tegirmonchi-la  
Siz tinglarsiz qushlar navosin.  
Menga bunda har kuni bir bor  
Odat bo'ldi sohilga bormoq.  
Qizil bayroq tikkan ulug'vor  
Kemalarga boqaman uzoq.  
Qudratlidir ular, shubhasiz,  
Mening esa taqdirim ayon.  
Va lekin siz yuragimdasiz

Diyorimdek,  
Ko'klamdek hamon..."

Durust maktub,  
Bo'lmasa sabab,  
Men bunday xat yozmasdim lekin.  
Po'stinimni yelkaga tashlab  
Bolxonaga yo'l oldim sekin.  
O'tarkanman keng bog' ichidan  
Yuzlarimga urilar siren.  
Hatto anov eskirgan chetan  
Qalbidam his uyg'otar shirin.  
Xuddi shunda  
Eslayman, ilk bor  
O'n oltiga to'lganda yoshim:  
Ko'nglim olgan bir go'zal dildor,  
Unutmayman chimrilgan qoshin.  
Hilpirardi oq ro'mol boshda.  
Hamon saqlar uni xotiram.  
Biz hammamiz sevdik shu yoshda,  
Demak, kimdir  
Sevgan bizni ham.



## QORA ODAM

Do'stinam, do'stinam,  
Ichim to'la dard,  
Ajab, qaydan menda  
Bu xil iztirob?  
Bog'larni ko'mganday,  
Xazon beadam  
Miyamni tobora g'arq qilar sharob.  
Quloqlar qanotdan turar boshimda,  
Uni ko'tarolmas  
Bemador bo'yim.  
Qora odam,  
Kelib cho'kar qoshimga,  
Qora odam  
Uyqu bermas tun bo'yi.

Qora odam  
Jirkanch sahfa lar bo'ylab  
Barmog'in yurgizib,  
Po'ng'illab uzoq,  
O'lik boshidagi  
Monaxga o'xshab  
Yuragimga solar  
Qo'rqinch bir charchoq.  
Qora odam,  
Qora, qop-qora odam  
Deydi: "Bu kitobni  
Varaqlab ko'rgin.  
Unda bor soz fikr,  
Pok rejalar ham".

Va lekin bu odam  
Yashagan yurtning  
Odamlari edi  
O'g'ri, muttaham.  
Bu yurtda dekabr

Ko'z olgudek oq,  
Qorbo'ron oq shohi  
To'qir qatma-qat.  
U odam dunyoda  
Yashadi shundoq,  
Avantyrust bo'lib  
Eng oliysifat.

U kelishgan edi,  
Ustiga – shoir.  
O'ziga yarasha  
Iqtidori ham.  
Qirq yoshli xotinga  
Bo'ldi-yu asir.  
“Yomon qiz”, – deb suydi,  
Dedi: “Jonginam”.  
Yana der edi: “Baxt –  
Epchil qo'l, aql.  
Sodda, bo'sh yuraklar  
Besaodatdir.

Yolg'on karashmalar,  
Aldoq ishvalar,  
Jonga azob esa  
Bu ham qismatdir.  
Bo'ronli kunda ham,  
Tinch onlarda ham,  
Ezgan chog'ida ham  
Hijron-u hasrat  
Oddiy bo'lib qolmoq,  
Kulmoqlik, beg'am –  
Dunyoda eng oliy, eng buyuk san'at”.

“Qora odam!  
Haqqing yo'q, ey, nobakor!  
Qalb aro g'avvoslik  
Da'vosidan qayt.

U shoirda mening  
Nima ishim bor,  
Janjalkash hayotin  
Boshqalarga ayt”.

Qora odam  
Menga tikilar yomon,  
Shafaq bosgan ko‘zi  
Jirkanch va dahshat.

U meni o‘g‘ri deb  
Qilmoqda gumon,  
Kimnidir qaqshatib,  
Ketgan beshafqat.  
Do‘stginam, do‘stginam,  
Ichim to‘la dard,  
Ajab, qaydan menda  
Bu xil iztirob.  
Bog‘larni ko‘mganday  
Xazon beadam  
Miyamni tobora g‘arq qilar sharob.  
Ayoqli tun  
Sokin uxlar hamma yoq,  
Deraza oldida  
Turibman tanho.  
Ohak sepilgandek  
Chorraha oppoq,  
Daraxtlar saf tortgan  
Otliqlar go‘yo.  
Boyo‘g‘li qaydadir  
Yig‘lar dam-badam  
Otlarning tuyog‘i  
Taratar sado.  
Yana cho‘kar kelib  
Ul qora odam,  
Silindr, syurtugin  
Yechib beparvo.  
“Quloq sol, quloq sol, –

Deydi tikilib,  
O'zi boshim uzra  
Kelar yaqinroq, –  
Hali ko'rmaganman  
Dunyoga kelib  
Ablahlarning bedor  
Bo'lishin bundoq.  
Balki men yanglishdim.  
Axir, oy to'lin,  
Mudragan giyohga  
Asli ne darkor?  
Balki kirib kelar  
Lorsillab "kelin",  
Sen unga o'qirsan  
Bekorchi ash'or.  
She'r ahli ajoyib...  
Bilmadim, nega?  
Ko'z oldimga kelar  
O'qisam she'rin  
Sizlog'ichdan yuzi  
Cho'tir qizchaga  
Tinchimay javragan  
Novcha o'spirin.

Qaysidir qishloqda,  
Yodimda ham yo'q,  
Ryazanmi, Kaluga,  
Xullas, bir zamon  
Sochlari sap-sariq,  
Ko'zlari ko'm-ko'k  
Bir bola bo'lardi,  
Otasi – dehqon.  
O'sdi, yigit bo'ldi.  
Ustiga – shoir.  
O'ziga yarasha  
Iqtidori ham.  
Qirq yoshli juvonga

Bo'ldi-yu asir.  
"Yomon qiz", – deb suydi,  
Dedi: "Jonginam".

"Qora odam!  
Ey, sen badkor, shumqadam.  
Bu ta'rifing sening  
Olamga ayon".  
Jon halqumga kelib  
Otaman hassam  
Uning qoq manglayin  
Mo'ljallab chunon...  
Oy ko'kda mahv o'ldi,  
Tong sochar ziyo.  
Ey, sen, qorong'u tun,  
Ne qilganing bu?  
Boshimda silindr,  
Turibman tanho,  
Bir o'zim...  
Qarshimda chilparchin ko'zgu.



## BEZORIMAN QO'SHIG'IMDA HAM

Bizlar asta ketayotirmiz  
Halovatli sokin yurtlarga.  
Fursat balki menda ham tig'iz,  
Otlanishim kerak safarga.

Ona zamin, qum bosgan dashtlik,  
Oq qayinzor o'rmon, chamanlar!  
Yuragimda uyg'otar g'ashlik  
Gala-gala ketayotganlar.

Men bu yerni juda sevardim,  
Suydim bunda nimaki bo'lsa.  
Sevar edim qarag'aylarim  
Shafaq tushgan suvga termulsa...

Ko'p xayollar surdim osuda,  
Ko'p qo'shiqlar qilgandim ijod.  
Shu zamin, shu yurt og'ushida  
Bor bo'lganim uchun edim shod.

Baxtli bo'ldim qizlarni o'pib,  
Chechaklarni ezg'ilab yurdim.  
Haydamadim itlarni tepib,  
Ularni o'z ukamdek ko'rdim.

U yurtlarda yo'q bu chamanlar,  
Oqqushbo'ynin cho'zmas javdarim.  
Shu sabab ham ketayotganlar  
Dilga titroq solguvchi dardim.

Topolmasmiz hech u tomonda  
Bu poyonsiz o'tloqlardan iz.  
Shu sababdan foniy jahonda  
Yashaganlar men uchun aziz.



## VATAN

Ey, Vatan, yangi uysan,  
Tomlari tillo.  
Qulun otsan, kishnaysan,  
Eshitar dunyo.

Kengliklaring sayr etsam,  
G'ururim baland.  
Sho'x, beboshman, jon o'lkam,  
O'zingga monand.

Tan-u ruhim chiniqqan  
Ko'cha jangida.  
Kuy aytar menga eman  
Yurt ohangida.

Sevaman bor yomonning,  
Gunohlaring ham.  
To'ldirib sharq osmoning  
Yulduzday yonsam.



## BEZORINING KO'NGIL IZHORI

Yotib oyoq ostida zabun  
Kuylash ekan taqdirida bori.

Bu nadomat, bu hasratli un  
Bezorining ko'ngil izhori.

Sochim paxmoq,  
Yo'q taroqdan iz,  
Boshim go'yo ko'cha fonusi.  
Kuzgi bog'dek xomush dilingiz  
Yoritmoqdir shoir orzusi.  
Falak chaqib ustimda chaqmoq,  
Yog'dirganda malomat toshin,  
Ne qilardim?  
Faqat qattiqroq  
Changallayman mallasoch boshim.

O't bosgan ko'l,  
Qandag'och butam,  
Dil g'ash bo'lsa xayolimda shul.  
Qishloqdagi onam va otam,  
She'r, dostonim ularga bir pul.  
Meni ular sevar begumon,  
Sevgan kabi o'tloq, polizni.  
Ey, menga tosh otgan olomon,  
Yanchardilar ko'rsalar sizni.

Dala ahli,  
Siz ham daladay  
Ajindorsiz, ko'rksiz va kir-chir.  
Bilmassizki, sizning bolakay  
Rossiyada eng mashhur shoir.  
Bir vaqt balki achingan kimdir  
Loy kechganda u yalang oyoq.  
Endi yurar boshda silindr,  
Oyog'ida loklangan boshmoq.

Lekin sodiq o'z makoniga,  
Sho'x hazilni tashlamas mudom.  
Kirib qolsa go'sht do'koniga,  
Sigirlarga yuborar salom.  
Tosh ko'chada izvoshda yurib  
Botqoq yo'lni unutgan emas.  
Yayrar yo'rg'a otlarni ko'rib,  
Yollarini hidlab bo'lar mast.

Unga aziz yurtning g'am, dog'i,  
Azobi ham, yayrashlari ham.  
G'ozlarning loy bosgan oyog'i,  
Qurbaqaning sayrashlari ham.  
Unga xayol belanchagidan  
Ko'rinadi, siz ham bir qarang,  
Tonggi shafaq alangasida  
Qo'llarini isitgan zarang.  
Shu zarangga tirmashib bir vaqt  
Qush tuxumin olganman ko'p bor.  
Bormikin u qadrdon daraxt,  
Turganmikin baquvvat, bo'ydor?

Tirikmikin sodiq kuchugim,  
Yurganmikin chopib, dingillab,  
Yoki qarib, chetda bukilib  
Yotganmikin bazo'r ingillab?  
Oh, kuchukcham, qishloq yo'lida  
Quvlashardik yayrab bir zamon.  
Talash qilib onam qo'lidan  
Biz galma-gal tishlar edik non.

Men o'shaman,  
O'tloqda qolgan  
Bo'tako'zmas, mening ko'zlarim.  
Azizlarim, sizga atalgan  
Mehr to'la bordir so'zlarim.  
Xayrli kech,

Ona qishlog'im,  
Bolang bo'lib qolgim keladi.  
Ko'kda suzgan oyning o'rog'in  
Qo'l uzatib olgim keladi.

Olam moviy,  
Armon yo'q o'lsam,  
Ketsam kimning nima g'ami bor?  
Bir bezori, bir behayo kam,  
Belga osib yurguvchi fanor.  
Menga nedir she'r arg'umog'i,  
Pegas nomli u mayda qadam?  
Yerto'lada, zax kuzak chog'i  
Kalamushlar tinglar qasidam.  
Hamon sochga taroq tegmagan,  
May xumori boshimda hamon.

Manzil sari suzgan kemaga  
Yelkan bo'lgim kelar za'faron.



Devor tagin panalab kelib,  
O'tloq ichra singir shabboda.  
Men kissavur, bezori bo'lib  
O'tajakman yorug' dunyodan.

Kun ufqlar ortiga botgan,  
Kelar undan chorlaguvchi sas.  
Bu olamda yo'lin yo'qotgan,  
Daydib yurgan bitta men emas.

Dalalarga dalalar tutash,  
Boshdan oyoq oppoq qor bosmish.  
Xoh litvoniy bo'lay, xoh chuvash,  
Hamma kabi menda ham yozmish.

Umrim mening sirlarga oshno,  
Ishonaman, mo'jizalar bor.  
Adashgan bir yo'lchidek go'yo  
Qaytib kelar Iso xaloskor.

Ishonaman, u kelar qaytib,  
Diydoriga balki yetarman.  
Yo ko'rsam-da, sarxush tirjayib,  
Tanimasdan o'tib ketarman.

Ko'zlarimda yosh qurigandek,  
Umid ko'kdan ovunchlar to'kmish.  
Lekin shodlik moviy tumandek  
Qorong'ulik qa'riga cho'kmish.

Yurak to'la g'ashlik va malol,  
Bittagina orzum bor endi:  
Tor kulbamga kirsada shamol,  
Yer tepib bir raqs tushsa edi!

Shafqatsizga hamma narsa bor,  
Rahmdilning nasibi – alam.  
Endi menga nima ham darkor,  
Achinayin endi kimga ham?

Rahmim kelar daydi it ko'rsam,  
Rahmim kelar o'zimga biroz.  
Ko'ngil menga qadam-baqadam  
Mayxonaga keltirgani rost.

Ey, shaytonlar, kulmang birovga,  
Shu Vatanga begonami biz?  
Yo siz shimni qo'yib garovga  
Bir shisha may olmaganmisiz?

Derazadan qarayman bir dam,  
Ro'paramda yolg'izoyoq yo'l.  
U ham mendek kimsasiz, purg'am,  
Ko'z yoshiga g'arq bo'lgandek ho'l.

Ana, o'ynab yurar bolakay,  
Tosh irg'itsa, o'shanga xursand.  
Unda ham bor tashvish, harqalay,  
Tinmay burun kavlash bilan band.

Bu ishingni tashlama, bola,  
Chuqurroq sol burningga barmoq.  
O'ynab zinhor shu kir qo'l bilan  
O'z qalbingni kavlama biroq.

O'ylab ko'rsam, men ham bolaman,  
Ko'chalarda tentirab bu kun –  
Tiqin – po'kak terib olaman  
Qalb og'zini berkitmoq uchun.

\* \* \*

Ey, sen, ko'hna, sehrli qishloq,  
Ey, siz, uning so'qmoq yo'llari.  
Sizni bo'g'ib turibdi bu choq  
Shohko'chaning metin qo'llari.

Hurkak dalam, qor ko'zgisiga  
Termulasan, ko'ksimda tugun.  
O'z ajalim ro'baro'siga  
Salom berib chiqaman bugun.

Yaralangan ohudek qishloq,  
O'laksaxo'r qush kabi shahar.  
O'tloqlarning siynasi yumshoq,  
Simyog'ochlar nayzasi zahar.

Tabiatning nozik oq bo'yin  
Tutar qora cho'yan barmoqlar,  
Nima bo'pti! Ajal o'yinin  
Ko'p ko'rgan bu ko'hna o'tloqlar.

Ko'p yov bosgan, bu navbat shahar  
Quritmoqqa keldi sho'rini.  
Xuddi shunday qurshab ovchilar  
To'rt tarafdin otar bo'rini.

Ana, sayyod mo'ljallab ovni  
Tepki bosmoq bo'lgani zamon –  
Sapchib, ikki oyoqli yovni  
G'ajib tashlar bo'ri beomon.

Vahshiy do'stim, bil, sen tomonman,  
Qalb yovvoyi ruhingga oshno.  
Men ham sendek quvg'indi jonman,  
Temir yurak raqiblar aro.

Bugun ular g'olib va mamnun,  
Qurshab meni qo'ydilar nochor,  
Lek yov qonin ichmoqqa bir kun  
So'nggi karra sapchimgo'im bor.

Ado bo'lsam, paymonam to'lib,  
Kuylab qolar yovvoyi sozim.  
U sohildan alqasos bo'lib  
Uvlar mening dardli ovozim.





Yig'lamasman, qilmasmam fig'on,  
O'tgan o'tdi, afsus aytmasman.  
Oltin sochdi boshimdan xazon,  
Men yoshlikka endi qaytmasman.

Avvalgidek o't olib shaydo  
Yonmas cho'g'i sovigan yurak.  
Endi moviy kengliklar aro  
Yalangoyoq chopmasam kerak.

Yuraginga cho'kdi hazinlik,  
Yo'q u shodon, sho'x-sho'x so'zlarim.  
Qani yovqur, mard o'spirinlik,  
Qani zavqqa to'lgan ko'zlarim?

Endi orzu-havaslarim kam,  
Tushmidi yo o'ngmidi hayot?  
Keng daladan bamisli ko'klam  
O'tgandekman minib uchqur ot.

Vafosizdir o'tkinchi gardun,  
Dunyo bilan xayrlashgan on --  
Yashaganing, ko'rganing uchun  
Rozi bo'lib shukur ayt, inson!

## BEZORI

Tol bargagin yuvganda yomg'ir  
Yaproq yulib o'ynar shabboda.  
Yurak ham sho'x, erka shamoldir,  
Bezoriman yorug' dunyoda.

Poyonsiz Rus, yashil Rossiyam,  
Axir, men bir kuychi bolang-da.  
Bu jonivor she'rimni men ham  
Yalpiz berib boqdim dalangda.


Oy xumchasi falakda go'yo  
Qayin suti bilan to'ladir.  
Qora cherkov sukunat aro  
Tomog'imdan bo'g'moq bo'ladir.

Ammo qo'rqinch bilmas bu jonim,  
Sharpalarga tik boqar ko'zim.  
Tomirimda qaroqchi qoni,  
Bir yo'lto'sar o'g'riman o'zim.

Chechak terib, ko'ngilni xushlab  
Yurganimga kulib qarashar.  
Asli menga oybolta ushlab  
Yo'lda odam ovlash yarashar.

Endi netay, qochay qay yoqqa,  
She'r dashtida quvg'indi boshim.  
Mahkum bo'ldim aylantirmoqqa  
Dostonlarning tegirmon toshin.

Bul ajabdir dunyo ishlari,  
Shoir bo'lmoq ekan peshonam.  
Kuyla, shamol, sendek sarsari  
Bezoriman qo'shig'imda ham.



*(Zikrilla NE'MAT tarjimalari)*



Oqshom cho'kmish. Chayon o't  
Uzra yaltirar shabnam.  
Yo'l bo'yida turibman,  
Tolga suyanib bu dam.

Oydan ulkan bir yog'du  
Tomimizga tushadi.  
Qayerdadir, olisda  
Bulbul kuylab jo'shadi.

Issiqqina va sozdir –  
Pechka oldi qish damlar.  
Qator turar qayinlar –  
Xuddi ulkan oq shamlar.

Daryo orti, uzoqda  
Qalin o'rmon u yog'i...  
Mudroq bosgan qorovul  
Taqillatar tayog'in.



ANTAR \* \* \*  
Oq shumurtlar qor-la to'kilar,  
Gul-maysada shudring sirg'alar.  
Kurtaklarni cho'qib dalada  
Kuymalanib yurar qarg'alar.

Mayin o'tlar shalpayib, anqir  
Qarag'ayning qatronli hidi.  
O, siz o'tloq, emanzor bog'lar,  
Hushim olmish ko'klam umidi!

Quvontirib sirli mujdalar,  
Yorishadi qalbim shunchalar.  
Men qallig'im haqda o'ylayman,  
O'ylayman-u qo'shiq kuylayman.

Oq shumurt, sen to'kil qor bilan,  
Qushlar, kuylang o'rmon uzra keng!  
Qor qoplagan kengliklar bo'ylab,  
"Qo'shiq ila gul keltirgum men.



## QO'SHIQQA O'XSHATMA

Sen otingni yetaklab, sug'oring hovuzchadan,  
Chayqalar suvda nozli qayinlar – kumushbadan.

Derazadan qaradim, boshingda moviy ro'mol,  
Qora jingalak soching ilondek avrar shamol.

Ko'pikli suv oqimin jilosin topgim kelar,  
Sening ol lablaringdan bo'salar totgim kelar.

Ammo menga sen nozli kulgularingni sochib,  
Suvlig'in jiringlatib, otingda ketding qochib.

Uzdi vaqt tig'i oxir yorug' kunlar ipini...  
Dafn etmoq bo'ldilar darcha yoniga seni.

Motamingda yangragan oh-faryod-u yig'ilar,  
Yuragimdan otilgan bir oh bo'lib tuyular.



Qorong‘u tun, uxlolmay  
Chiqdim daryo bo‘yiga.  
Kamar urar chaqmoqlar  
Ko‘pirgan suv ro‘yiga.

Do‘nglikda qayin – bir sham,  
Kumush bezar oy tig‘in.  
Chiqqil, jonginam, sen ham,  
Tingla guslyar<sup>1</sup> qo‘shig‘in!

Suyib qoldim bir ko‘rib  
Suluv qiz, jamolingni.  
Raqs etib, olib otgum  
Boshdan to‘r ro‘molingni.

Yashil, quyuq o‘rmonda  
Seni tunda, rosti gap,  
Tonggacha olib qochgum,  
Qiyaliklar ostiga.



<sup>1</sup> *Guslyar* – arfa, cholg‘u asbobi



Xo‘b qiz edi Tanyaxon, qishloqda hech tengi yo‘q,  
Ol yubka, oq sarafan kiyib yurar edi sho‘x.  
Oqshom Tanya jarlikda chetan devor oshardi,  
Quyuyq tuman ichra oy bulut-la o‘ynashardi.

Shu payt kelib bir yigit, jingalak boshin egdi:  
“Kechir, men boshqasiga uylanayapman”, – dedi.  
Rangi kafandek o‘chib, shudringdek muzlab shu on,  
Chaqqandek qiz qalbini naq zahri qotil ilon.

“Eh, ko‘kko‘z yigit, sendan xafa bo‘lay nega man,  
Rostini aytsam, men ham boshqasiga tegyapman!”  
Qo‘ng‘iroqmas, tong tinchin to‘yning sadosi buzar,  
Aravada to‘y borar, otliqlar yuzin burar.

Yig‘layotgan kakkumas – Tanyaning yaqinlari,  
Tanya yotar, gurzida yanchilgan gul singari.  
Manglayida qon dog‘i qotib qolgan misli cho‘g‘,  
Zo‘r qiz edi Tanyaxon, qishloqda hech tengi yo‘q.





## BAHOR OQSHOMI

Kumush daryo sokin jimirlab oqar  
Ko‘m-ko‘k ko‘klam tunin saltanatida.  
Quyosh o‘rmonli tog‘ ortiga botar,  
Oltin shox oy suzib chiqar osuda.

Pushtirang tasmaga chulg‘anar mag‘rib,  
Qo‘shchi uyga qaytar daladan horg‘in  
Va yo‘l ortidagi qayinzorlarda –  
Bulbul ishq qo‘shig‘in boshlaydi jo‘shqin.

Shafaqning qizg‘imtir nurlari aro  
Tinglab tong qo‘shig‘in mayin ohangin.  
Olis yulduzlarga mehr-la boqib,  
Osmonga tabassum aylaydi zamin.



Toliqqan kun tiz cho'kdi tunga,  
Tindi shovqin mavji birpasda.  
Quyosh botdi va borliq uzra  
Suzib chiqdi o'ychan oy asta.

Vodiy sokin tinglab tin olar  
Jilg'alarning jildirashidan.  
Qalin o'rmon bosh egib mudrar,  
Xushxon bulbul chuldirashidan.

Qo'shiq tinglab, o'z qirg'og'iga  
Erkalanib shivirlar daryo.  
Suv tubidan, sho'x qamishlardan –  
Taraladir dilbar bir navo.



## SHOIR

*Suyukli do'stim Grishaga*

Shoirdir, kim daf etib yovni,  
Haqiqatni onam deb bilsa.  
Qondoshidek sevib birovni,  
Ular uchun g'am cheka olsa.

U o'zgalar qilolmas ishni  
Bajaradi erkin, betinim.  
Chun, u shoir, xalq shoiridir,  
Shoirdir ona yerining.



## QAYG'U OHANGLARI

Maroqsiz qo'shiqlar, g'amgin sadolar,  
Imkon bering erkin olmoqqa nafas.  
Siz menga keltirib og'ir azoblar,  
Yurak-bag'rim buncha ezadirsiz, bas!

Birozgina quvonch, biroz tin bering,  
Bir to'yib uxlashga beringiz imkon.  
Ketma-ket tashvish-u alamlar bilan  
Etdingiz-ku mening yo'limni vayron.

Qayg'u xabarchisi – tovushlar to'xtang!  
Ko'z yoshlar oqmoqda axir ko'zlardan.  
Ey achchiq tuyg'ular, tinchlaning siz ham.  
Ohanglar! Men g'amga botdim sizlardan.

Qayg'u ohanglari, g'amgin oh-vohlar,  
Tokay azoblanar bu sho'rlik bag'ir?  
Qachon tugaydi bu og'ir qiynoqlar,  
Qachon men tinchgina yashayman, axir?



## KO'Z YOSHLAR

Ko'z yoshlar... yana shu achchiq ko'z yoshlar,  
Yana behalovat g'am-u tashvishlar.  
Yana zulmat... hamda buzilgan tushlar --  
Yiroq-yiroqlarga uchib ketmishlar.

Keyin nima bo'lar? Yana azobmi?  
Bas, yetar... Halovat onlari yetdi.  
Unutmoq onidir g'amgin saslarni,  
Shusiz ham yuragim ezilib ketdi.

Qayin soyasida kuylayotgan kim?  
Tanishga o'xshaydi mayin xonishi.  
Eh, yana ko'z yoshlar, ko'z yoshlar tag'in,  
Tug'ilgan joyimning yoniq sog'inchi.

Axir, yuribman-ku men o'z yurtimda,  
Ko'ksimni ko'z yoshlar kuydirar lekin.  
Eh... bildimki, faqat sovuq qabrimda  
Barin unutib, tinch yotishim mumkin.



## 1912-YIL 26-APREL BO'RONI

Senga nima kerak; ey bo'ron,  
Derazam ostida gurlaysan?  
Solib dardchil qalbinga tug'yon,  
G'am-u g'ussalarni chorlaysan?

Tezroq jo'nab qol-chi bu yerdan,  
Biroz unutmogga ber imkon!  
Yo karmisan, men yig'layapman,  
Tavba qilib Xudoga bu on..

Imkon bergil iltijom birla  
Jon va kuchim jo etay birga.  
Ruhan ado bo'lib bo'ldim men,  
Tezda ko'milgumdir qabrga.

Qabrim uzra kularsan shunda,  
Hozir esa yo'qolgil faqat!  
Yo gunohkor ruhim-chun men-la  
Kelib birga ayla ibodat.



Sokin tun qo'ynida sen yig'lading jim,  
Achchiq ko'z yoshlaring to'kkancha sim-sim.  
Evoh, bir-birimiz tushunmadik biz,  
Bu hol menga og'ir botdi, azizim.

Olis o'lkalarga jo'nab ketding sen,  
Orzu-umidlarim etganча xazon.  
Yana hijron aro tanho qoldim men,  
Lutf-u karamingsiz bag'rim bo'lib qon.

Endi men oqshomlar goh ma'yus bo'lib,  
Sen-la diydorlashgan bog'larni kezgum.  
Xayolimda aziz chehrangni ko'rib,  
Jimlik aro yum-yum yig'lashing sezgum.



## QABR BOSHIDA

*Marhumlar xotirasiga*

Sambittollar ostidagi sokin qabrda  
Tuproqqa ko'milib yotadi bir tan.  
Sof ko'ngil, muqaddas shiddatlar ila  
Munavvar tonglarga zo'r ishonch bilan.

Zamin jafokashin qalbida, afsus,  
Orombaxsh tuyg'ular olovi so'nmish.  
Hamda manglayiga hech tushuniksiz,  
Zim-ziyo, qorong'u soyalar qo'nmish.

U uxlar, tollar-chi, unga bosh egib,  
Soch yoymishlar qabri uzra parishon.  
Adl qadlari dol bo'lmish oh chekib,  
Uni o'ylay-o'ylay dillari vayron.

Sokin shamollarda, alamdan titrab,  
Oli'larga boqib yig'lashar nolon.  
Asli ular bevaqt ko'z yumib ketgan  
Sho'rlik yigitchaga achinar bu on.





## QAYIN

Derazam ostida  
Bir tup oq qayin.  
Qorlarga burkanmish  
Kumushdek mayin.

Novdalarni momiq  
Qor qoplab asta,  
Oq popukli shoxlar  
Egilmish pastga.

Oppoq qayin sokin  
Uyquda turar.  
Qor uchquni oltin  
Yog'duda yonar.

Atrofdan erinchoq  
Tong sokin kezar.  
Yangi kumushlar-la  
Shoxlarni bezar.



Daryo qo'ltig'i uzra sho'x qamishlar shovullar,  
Sohilda malika – qiz nechundir yum-yum yig'lar.

Og'ir o'ylar kechmoqda qizoyimning qalbidan,  
Parchalanar gulchambar och to'lqinlar zarbidan.

Oh, bahorda turmushga chiqma edi, deb, qizjon,  
Qo'rqitar o'rmon irim-sirimlari-la bu on.

Oq qayinning po'stlog'in kemirishib, yeb chunon,  
Qizning hovlisidagi sichqonlar qolar omon.

Otlar urishar, silkib uzun yol – kokillarin,  
O, tim qora sochlarni yoqtirmas uy jinlari.

Olis qarag'ayzordan ladanning<sup>1</sup> hidi kelar,  
Shamol qo'ng'iroqlari motam kuyini chalar.

Qirg'oqda ma'yus yurar qayg'uli ul gulbadan,  
Nozik ko'pik to'lqinlar to'qishar unga kafan.



---

<sup>1</sup> *Ladan* – xushbo'y o'simliklardan olinadigan, diniy marosimlarda tutatiladigan smola.


\* \* \*

Ona yurtim! Qalbim qarog'i,  
Quyosh o'ynar suvloqlaringda.  
G'oyib bo'lib ketgim keladi  
Yuz jarangli o'tloqlaringda.

Rezeda<sup>1</sup> va javdar bo'tqasin  
Hidin sohib esar shamollar.  
Jiringlatar qo'ng'iroqchasin  
Pakana bo'y rohiba – tollar.

Botqoq chekar bulutni puflab,  
Qurum bosmish osmon gardishin.  
Xayollarim dilda sir aylab,  
Yashirarman bilmam kim uchun...

Barin kutib, qilurman qabul,  
Jon baxsh etib quvonmay nechun!  
Kelgandirman bu zaminga men,  
Uni tezroq tark etmoq uchun.



<sup>1</sup> Rezeda – javdar, suliga o'xshash donli o'simlik.

Hoy, Rus, mening ona diyorim,  
Kulbalarim – rizašimondir<sup>1</sup>.  
Adog'i yo'q chek-chegarangni  
Go'yo ko'zga sig'mas osmondir.

Bir yo'lovchi xudojo'y misol  
Termularman dalalaringga,  
Pastqamlikda teraklar xushhol,  
Chapak chalgan pallalaringda.

Olma va bol hidiga to'lar,  
Cherkov – munis najot qal'asi.  
Jaranglaydi o'tloqlar uzra  
Sho'x va quvnoq raqslar sasi.

Yalpiz so'qmoq bo'ylab chopaman,  
Ko'm-ko'k kenglik – ko'nglim orzusi.  
Peshvoz chiqar zar sirg'alarday  
Jaranglagan qizlar kulgusi.

Gar chorlasa Muqaddas bir sas:  
“Rusingni qo'y, jannat xos senga!”  
Men degumdir: “Jannat kerakmas,  
O'z yurtimni beringiz, menga!”



<sup>1</sup> Riza – ruhoniylarining ibodat paytida kiyadigan zarhal libosi.

## RUS

### 1

Qishloq go'yo jarlikka cho'kkan,  
O'rmon to'sib qo'yib kulbasin,  
Faqat qiya, chuqurliklardan  
Ko'rish mumkin osmon gumbazin.

Qish tunida, olis dashtlarda  
Och bo'rilar mudhish uvlashar.  
Hovlilarda, bo'g'ot ostida  
Xirillashib otlar kishnashar.

Izg'irinda uy chiroqlari  
Boyqush ko'zi yanglig' yaltirar.  
Emanzor ortida to'nkalar  
Yovuz ruhlar kabi qaltirar.

Sehr-u jodu bizni qo'rqitar,  
Qayga boqma, har yon jodugar.  
Qora, jirkanch ko'rshapalaklar.  
Qayinlarga osilib uxlar...

### 2

Sevgum seni, o, xoksor Vatan,  
Lek boisin bilmay men garang.  
Ko'klam chog'i maysazoringdan  
Sho'x qo'shiqlar taratgay jarang.

Chivinlar shovurin suyarman,  
Pichanzorda, o'rim tunida,  
Garmonga jo'r bo'lib yigitlar,  
Qizlar o'ynar gulxan yonida.

Boqar qoshlar ostidan yonib  
Qorag'atday qaro ko'zlaring.

O, Rus, mening aziz diyorum,  
Orombaxshdir ipakday bag'ring!

3

Qag'illashdi qora qarg'alar,  
Borliq g'amga cho'mdi daf'atan.  
Bo'ron ichra o'rmon chayqalar,  
Ko'lda ko'pik imlar naq kafan.

Chaqmoq yorib osmon kosasin,  
Qora bulut qoplar o'rmonni.  
Yoritadi tunning pardasin  
Marjon chiroqlari osmonning.

Yuzboshilar deraza bo'ylab  
Jangga chorlar ko'ngillilarni.  
Slobodalik ayollar bo'zlar,  
Fig'on yirtar sukunat bag'rin.

To'planishdi sho'rlik qo'shchilar,  
Na qayg'u, na ko'z yosh to'kishdi.  
Qand bo'lagin xaltaga solib,  
Aravaga minib jo'nashdi.

Qishloq chetigacha ularni  
Kuzatgancha bordi odamlar.  
O, Rus, bular – asl mardlaring,  
Suyanchingdir eng og'ir damlar.

4

Kelinchaklar yuzin bosdi g'am,  
Olis ketgan yorlarin o'ylab.  
Nechun darak yo'q, qizg'in jangda  
Halok bo'lmadimikan, Yo Rab?!

Ladan hidi taralar bog'dan,  
Sovuqdan ustuxon dildirar,

Kutmaganda uzoq bo'lisdan  
Turli-tuman xabarlar kelar.

Xabarlarni yodlab qo'shchilar,  
So'ng tarqatar yozib birma-bir.  
Yaqinlarin xatin odamlar  
Olib o'qir shoshib, besabr.

Suygan nutqlarin tinglash-chun  
Ular Lushey tomon borishar.  
Botirlarin zafar xabarin  
Tinglab biroz yig'lab olishar.

5

Oh, siz mening dala-dashtlarim,  
Go'zaldirsiz kulfat ichra ham.  
Oq soch onalari intizor  
Kulbalarni xush ko'rgum biram!

Deyman qayin butog'in quchib:  
Xaskash, o'roq, omoch, yoting jim!  
Jangga ketgan erlar qismatin  
Fol ko'raman misli munajjim.

Men ko'nikdim zaif hislarga,  
Koshki suvda bir buta bo'lsam.  
Ishongum men yaxshiliklarga.  
Yulduzlarni isitar deb sham.

Angladimki, tap tortmas mardlar  
Na zulmat, na qaldiroqlardan.  
Qo'shiq kuylab borishar ular  
Qo'rqmay o'lim va qamoqlardan.

Ular og'ir mehnatlarining  
Mahsuliga ishongaydirlar.  
Ilk yomg'irga yetgan cho'llardek  
Ko'z yosh to'kib, quvongaydirlar.

Sabzalardan uchgan shabnamdek,  
Dilni ezar ayriliq sasi.  
Ko'zga olis tutunlar aro  
Ko'rinar sho'x o'rim pallasi.

O Rus, munis diyorim mening,  
Faqat sen-chun asragum ishqim.  
G'animatdir shodliging sening  
Va ko'klamgi yangroq qo'shig'ing.





\*\*\*

Tilanchilar kiyimin kiyib Xudo,  
“Odamlarning mehrin bir sinay”, dedi.  
Qotgan non bo‘lagin chaynab banogoh,  
Keksa bir chol qumda o‘ltirar edi.

Chol qarasa, yo‘lda bir sho‘rlik gado  
Kelar, qo‘lda temir hassasi baland.  
Va o‘ylar u: “Oh, sho‘rlik bo‘lmish ado,  
Ochlikdan qaltirar, balki kasalmand?!”

Xudo yaqin keldi, egnin tuzatib,  
O‘ylar: “Bular qalbin uyg‘otib bo‘psan!”  
Qariya-chi, qo‘lidagin uzatib,  
Dedi: “Yeb ol... biroz bardam bo‘lasan!”



## XAYRLI TONG!

Mudrab qoldi oltm yulduzlar,  
Titroq tutdi daryo qo'ltig'in.  
Suv yuzida shu'la miltirar,  
Qizartirib ufq etagin.

Uyqudagi qayinlar kulib,  
Asta nozik ko'zlarin ochar.  
Sabza uzra shabnamlar kumush  
Sirg'alardek yonib nur sochar.

Qichitqi o't yoyib palagin,  
Sadaflardan berar o'zga zeb  
Va tebranib, sho'xchan shivirlar,  
Keng olamga: "Xayrli tong!" – deb.



\* \* \*

Sen ketding va boshqa qaytmassan,  
Unutding sen kulbamni butkul  
Va endi o'zgaga kulib boqqaysan,  
Oq harir ro'molga o'ranib gulgun.

Alamlar chekurman men o'kingancha,  
Hatto kaminim<sup>1</sup> ham ma'yus bo'zlaydi.  
Kitobcham qatida qotgan binafsha  
O'tib ketgan baxtdan hanuz so'zlaydi.



---

<sup>1</sup> *Kamin* – o'choqsimon uy pechkasi.

## BUVIMNING ERTAKLARI

Qish oqshomi hovlida  
Avj berib qo'shiq-kuyga,  
Qor tepaliklar osha  
Sang'ib qaytamiz uyga.

Chana ham jonga tekkach,  
Davra quramiz yayrab,  
Buvimning Ivan-tentak  
Haqda ertagin tinglab.

Tinglaymiz, olmay nafas,  
Vaqt bo'lar yarim kecha.  
Onam der: "Uxlanglar, bas!"  
Biz eshitmaymiz hech ham.

Ertak tugar. Uxlash shart...  
Lekin qanday uxlaymiz?  
Sho'xlik qilib basma-bas,  
Biz battar chug'urlaymiz.

Buvim aytar hadik-la:  
"Uyqu yo'qmi bu kecha?"  
Dermiz: "Xo'sh, bizga nima –  
Ertak ayting tonggacha!"

Kuylab borar yog'och arava,  
Sayhonlik, butalar yugurar.  
Yo'lda yana ibodatxona  
Va yodgorlik xochlari turar.

Sulizordan yel essa hamon,  
Iliq darddan og'riydi dilim.  
Qo'ng'iroqlar chalingani on,  
Beixtiyor cho'qinar qo'lim.

O Rus – malinazor dalalar  
Va daryoga yiqilgan osmon.  
Suygum quvonch, qayg'ularim-la  
Ko'llaringni sog'inib shodon.

O'lchab bo'lmas sovuq qayg'ungni,  
Sen tumanli qirg'oqlardasan.  
Ammo seni sevmay yashashni  
Men o'rgana olmagum, bilsang.

Bu zanjirni hech kimga bermam,  
Va ayrilmam bir tushdan sira,  
Chorlaganda qadrdon dashtlar  
Ul duogo'y kovullari-la<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Kovul* – cho'lda o'sadigan shifobaxsh giyoh (chalov).

Ryabinalar qizarib,  
Suv moviylashib oqdi.  
Oy – ma'yus otlıq shoshıb  
Jılovını yo'qotdı.

Suzıb chıqdı bog'lardan  
Ko'k oqqushlardek zulmat,  
Keltırıb qanotıda  
Mo'jızavıy kuch-qudrat.

O'lkam menıng, jon o'lkam,  
Abad munglı, mehnatkash!  
Tol ostıda Volgaday –  
Boshıng egıkdir yakkash.

Tur endı, shıfo keldı,  
Najot ayyomıng kezar!  
Oqqushlarınıng qo'shıg'ı  
Kamalak ko'zın bezar.

Kunbotar go'yo aybın –  
Yuvıb qurbonlık qılar.  
Muzdek salqın yellardan  
Namchıl qor hıdı kelar.

Lek dıldagı tıtroqlar  
Kundan-kun ılıqdır-ey...  
Yomg'ırjon, senı eslab,  
Bu men, Yesenın Sergey.

Don yig'ilgan, dalalar bo'm-bo'sh,  
Suvdan tuman va namlik sizar,  
Moviy tog'lar ortiga quyosh  
Astagina g'ildirab ketar.

Ko'pchigan bu yo'l ham mudroqda,  
Bir tush ko'rar yayratib tanin,  
Oq soch qishni kutib olmoqqa  
Juda-juda oz vaqt qolganin.

Oh, o'zim ham ko'rdim men kecha  
Tuman bag'rin bir sas yorardi.  
Oltinsoch oy bizning chanada  
Toychoq kabi sakrab borardi.



Ilk qor bo'ylab kezinaman jim,  
Dilda ishqning marvarid guli.  
Moviy tunda yulduzlar sim-sim  
Shu'la sochib yoritar yo'lim.

Nurmikan bu va yoki ro'yo?  
Kuylayotgan shamolmi, qushlar?!  
Dalalarga qish emas, go'yo  
Galalashib qo'nmish oqqushlar.

Oq kengliklar, ko'nglim tilagi,  
Yengil ayoz yoqar tanimni...  
Va bag'ringa bosgim keladi  
Oq qayinning ko'kraklarini.

O, o'rmonning mudroq etagi!  
Qorli qirlar, siz buncha sho'x-shan!..  
Entikkancha quchgim keladi  
Noziknihol tollar belidan.





## PUSHKINGA

Rus taqdiri bo'lgan bir zotdan  
Tikib buyuk in'omga ko'zim,  
Tver bulvarida turibman,  
So'zlashganча o'zim-la o'zim.

Tuman ichra och-sariq tusing  
Afonaga aylangan butun,  
O Aleksandr! Sen sho'xroq eding,  
Men bezori bo'lgandek bugun.

Ammo ushbu go'zal sho'xliklar  
Soya solmas sha'ningga hech bir.  
Va shon quchgan bronzada sen  
Boshing tutib turibsan mag'zur.

Turarman naq tantana oldi  
Va shu onda javobim tayyor:  
Men jon deya o'lgan bo'lardim,  
Shunday taqdir bo'lsa menga yor.

Gar bo'lsam-da quvg'inga mahkum,  
Hali uzoq kuylashim lozim...  
To dashtga xos yoniq kuylarim  
Bronzadek jaranglay olsin.

\* \* \*

Menga faqat bir ovunch qoldi,  
Labim juftlab shoʻx hushtak chalmoq.  
Ahmoqona shov-shuv avj oldi:  
Emishman men janjalkash, olchoq.

Oh! Kulguli bunday yoʻqotish,  
Bunday hollar hayotda moʻldir.  
Uyat menga, Xudo bor, devdim,  
Ishonmaslik alamdir endi.

O, siz olis oltin dalalar!  
Yuraklarni turmush aylar xun.  
Men baqirib, qildim janjallar  
Yana gurlab yonmogʻim uchun.

Shoir lutfi – erkalash, suyish,  
Bu qismatga bosilgan muhr.  
Men oq gulga qora baqani  
Unashtirmoq boʻlibman, uzr!

Ushalmasa, mayli ushalmas  
Atirgulli kunlar orzusi.  
Shayton dilga in qurdimi bas,  
Farishtalar umri soʻlgusi.

Mana shunday oʻy-xayollar-la  
Oʻzga yurtga olib ketdim bosh.  
Oʻtingum men soʻnggi damlarda  
Kimki boʻlsa men ila yoʻldosh.

Barcha ogʻir gunohlarim-u  
Hamda shakkok feʻlim dastidan,  
Oʻlganimda ruscha koʻylakda  
Qoʻysinlar ikona ostiga.

So'zlab bo'ldi oltinrang o'rmon  
Oq qayinli, quvnoq til bilan.  
Ko'kda uchar turnalar nolon,  
Hech narsaga achinmay bu dam.

Achinsinlar kimga ham, axir?  
Ahli olam bari – musofir,  
Kelar-ketar tinmay, hoynahoy,  
Ketganlarni kutar u sohil,  
Ko'k-ko'l uzra suzib to'lin oy.

Tepalikda turibman bedor,  
Turna ketgan yoqqa boqib zor,  
Quvnoq yoshlik chog'in eslayman,  
O'tgan ishga achinmam zinhor.

Achinmasman o'tgan yillarga,  
Nastarinlar rangi qalbga yot,  
Gullar gulxan yoqsa-da bog'da,  
Isinolmas taftida hech zot.

Yonib ketmas ryabina shoxi,  
Xazonlikda o'tlar yo'qolmas.  
Bargin sekin to'kkan daraxtdek  
Dardchil so'zlar to'kdim bir nafas.

Vaqt supurib, bamisli shamol,  
Bitta joyga to'plasa barin,  
Siz aytingki, oltin qayinzor  
So'zlab bo'ldi go'zal so'zlarin.

## ONAMGA XAT

Omonmisan, mening kekxa validam?  
Men esa tirikman, salom, assalom!  
Bu qutlug', mo'tabar kulbang ustiga  
Yog'ilsin ilohiy nurlar bu oqshom.

Menga yozishdiki, sen g'amdan erib,  
Tashvish-la tushmishsan telba ko'yiga.  
Eski-tuski, kir-chir ko'yilaging kiyib,  
Ba'zan chiqarmishsan yo'lning bo'yiga.

Ko'zlaringga moviy tun quchog'ida  
Faqat ko'rinarmish bir holat goh-goh:  
Mayxonada kimdir janjal chog'ida  
Ko'ksimga sanchmish fin pichog'in nogoh.

Hechqisi yo'q, aslo qo'rqma, azizam,  
Bu faqat bir yolg'on, dil ezadigan.  
Men badmast bir nodon emasman, axir,  
Seni ko'rmay, jim o'lib ketadigan.

Avvalgidek hamon beozorman men,  
Dilda orzuyim shul, rostini aytsam:  
Qutulib isyonkor bu sog'inchlardan  
Pastak uyimizga, qaniydi qaytsam.

Men qaytib kelurman, bog'imiz yashnab,  
Dov-daraxtlar gulga kirganda qiyg'os.  
Faqat meni tongda uyg'otma barvaqt,  
Sakkiz yilcha avval bo'lgandek noxos.

Uyg'otma, nenidir nishonlash uchun,  
G'am chekma, nimadir hal bo'lmay qolsa.  
Juda ko'p yo'qotish va charchash hissini  
Ancha erta boshdan kechirdim rosa.

Qo'ygil, ibodatni o'rgatma menga,  
Eski odatlarga qaytmasman, uzr!  
O'zingdirsan menga madad, tasalli,  
Faqat sen – men uchun ilohiy bir nur.

Unut, ne tashvishing bo'lsa yurakda,  
Achinmagin o'g'ling g'amgin ko'yiga.  
Eski-tuski hamda kir-chir ko'ylakda  
Zinhor chiqib yurma yo'lning bo'yiga!



## VATANGA QAYTISH

Qaytib keldim aziz, tug'ilgan yurtga,  
Shu qishloqda o'tgan sho'x bolaligim.  
Esimda oq qayin uzra cho'p bilan  
Xochsiz qo'ng'iroqni silkitgan edim.

Ko'p narsa o'zgarib ketmishdir elning  
Qashshoq, g'aribona turmush tarzida.  
Bunda yangiliklar shunchalik ko'pki,  
To'piqqa ilashib kelar nazdimda.

Ota uyim.  
Tanimay qoldim,  
Deraza yonida tebranmas zarang.  
Endi uy oldida o'tirmas onam,  
Jo'jasin tariq-la boqqancha arang.

Keksaygan bo'lishi kerak...  
Keksaygan,  
G'amgin termulaman men chor-atrofga:  
Naqadar begona menga bu joylar!  
Faqat avvalgidek tik turar tog'lar,  
Kulrang qoyalarin oftobga toblab.

Bu yerda qabriston!  
Chirigan xochlar,  
Go'yo murdalarning qo'l jangi bo'lgan,  
So'qmoqda tirsakka suyangan holda,  
Go'yo muzlab yotar cho'zilgan qo'llar.  
Bir chol borar o'tlar changin silkitib.  
"Yo'lovchi!

Ko'rsatib yubor-chi, do'stim,  
Tatyana Yesenin qayerda yashar?!"

"Tatyana... Hm..."

Huv anovi kulba ortida.

Sen kimi bo'lasan? Qarindoshmisan?

Balki sen yo'qolgan, o'g'lidirsan-a?"

"Ha, o'g'liman.

Ammo otaxon, senga ne bo'ldi?

Ayt-chi, nechun

Buncha mungli boqasan?"

"Xush kelibsan, nabiraginam,

Qoyil, o'z bobongni tanimading-a!.."

"Oh, aziz bobojon, nahotki bu sen?"

Va shunda ma'yus bir suhbat boshlanar,

Chang bosgan gul uzra ko'z yoshlar tomar.

"Sen o'ttizga kirsang kerak yaqinda...

Men-chi, to'qsondaman...

Tobut kutmoqda.

Allaqachon fursat keldi qaytmoqqa".

U so'zlar, manglayda ajinlar bo'rtib:

"Ha!.. Vaqt bo'ldi!..

Kommunist emasmisan?"

"Yo'q!.."

"Opa-singillaring esa – komsomol.

Naqadar qabihlik! Hayron qolasan!

Kecha irg'itishdi ikonalarini,

Komissar yulqidi cherkov xochini.

Joy qolmadi Xudoga ibodatga,

Men esa o'g'rincha o'rmonga qatnab,

Tog'tolga sig'inyapman...

Bir nafi tegar...

Qani uyga ketdik –

O'zing ko'rasan barin!"

Boramiz qo'ng'iroqlararo odimlab.

Dala-yu o'rmonga jilmayaman men,

Bobom-chi, cherkovga boqadir g'amgin.

“Salom, onajonim! Sog‘-omonmisan!” –  
Deb, ko‘zim yashirgum to‘molcham yopib.  
Yig‘lab yuborishi mumkin sigir ham  
Bu g‘arib va mungli burchakka boqib.  
Devorga osig‘liq Lenin taqvimi.  
Bunda opa-singillarim hayoti,  
Opa-singillarniki, lek menikimas,  
Ammo men senga tiz cho‘kmoqqa shayman,  
O, mening qarddon o‘lkam, har nafas!

Qo‘shnilar kelishdi...  
Bolali ayol.  
Lek, ko‘plar: tanimay qoldik, der, seni.  
Ana, kuchukchamiz bayronchasiga –  
Hurib darvozada kutvoldi meni.

Oh, aziz diyorum!  
Sen avvalgimas,  
O‘zgarib ketibsan, axir butunlay.  
Va albat, avvalgi emasman men ham.  
Qancha ma’yus tortsa onam va bobom,  
Opa-singillarim shuncha tirjayar,  
Qochib og‘izlarin tanobi shu dam.

Albat, menga Lenin ikona emas,  
Dunyoni bilurman... Oilam sevgum.  
Ammo nimagadir egilib qaddim,  
Yog‘och o‘rindiqla o‘ltirarman jim.

“Xo‘sh, qani gapir-chi, opajon!”

Va opam bidirlar ko‘nglini yozib,  
Semiz “Kapital”in Bibliyadek ochib,  
Marks haqida-yu,  
Engels haqda...



Albat, men ularni, o'qimaganman,  
Har qanday ob-havo, har qanday holda.

Va kulguli bir hol,  
Chaqqon qiz kabi  
Meni naq bo'ynimdan bo'g'ib oladi.  
Kuchukchamiz meni bayronchasiga  
Hurib darvozada kutib oladi.



## BOBOMGA MAKTUB

O'z tug'ilgan uyimni  
Tark etib ketgan nodon.  
Senga yana yozyapman...  
Salom, aziz bobojon!  
Derazangning ostida  
Guvillaydi bo'ronlar.  
Uyning mo'risidan-ku  
Tinmas shovqin-suronlar.

Go'yo yuzlab shaytonlar  
Chiqib olgan chordoqqa.  
Sen tun bo'yi uxlolmay  
Zo'r berasan oyoqqa.  
Pidjagingni ustingga  
Yopib qo'yging keladi.  
Borib o'tyoqarlarning  
Dodin berging keladi.

O, sen soddadil bobom,  
O, oqko'ngil bechoram!  
Bejizmas katta bobom  
Izlab dardingga chora,  
Dyachokka eltgan seni  
Kezib cho'l-biyobonni.  
O'rgansin deb: "Halollik",  
"Vatan" va "pok iymon"ni!

Yaxshi otni boqarlar  
Eng sara yemish bilan.  
Kafillangan u mudom  
Erkalash, sevish bilan.  
Sen o'zingni taqdirning  
Sinovlariga otding.  
Nabirangni ham shunga  
O'rgatmoq edi ahding.

Lek nabirang bu darsni  
Na anglab, na ko'nadi...  
Sendan achchiqlanib, u  
Olislarga jo'nadi.  
Seningcha men yurarman,  
Kezib g'alat yerlarni,  
To'qigancha keraksiz,  
Ahmoqona she'rlarni.

Dersan: mendan o'g'irlab,  
Ketdi hech qilmay hazar,  
Sen axmoqni u pulxo'r  
Hamda qaroqchi shahar.  
Ammo-lekin bobojon!  
Deylik bu gap to'g'ri ham.  
Lek yomon otni hatto  
O'g'irlamas o'g'ri ham.

Yomon otni qamchilab  
Quvib bo'lmas hovlidan.  
Lek kaslar bor g'am chekar  
O'zgalarning holidan.  
Ular der: ko'lmak suvda  
Ayt, chirib-netmoq kerak?!  
Tug'ilgan makoningni  
Tark etib ketmoq kerak!

Shu bois, yurtni tashlab  
Men olis mamlakatda...  
Bahor.  
Bunda gullar ham  
Hattoki mushtdan katta.  
Bunda sening yolg'izlik  
Qismatingni o'ylayman.  
Va olislardan iliq  
Salomlarim yo'llayman.

Endi Ryazanda bo‘ron –  
Uvillashi to‘xtamas.  
Senda-chi, ment bir bor  
Ko‘rmoqlikka zo‘r havas.  
Lek, bilki, hech bir chana  
Orzu sari yelolmas.  
Ular mening yonimga  
Seni olib kelolmas.

Bilaman –  
Sen kelarsan  
Atirgul uchun yozda.  
Biroq, bilki, bu yo‘lda  
Bir zo‘r muammo bor-da:  
La’nati bu poyezdning  
Kuchi senga yetolmas.  
Asrlar bo‘yi seni  
Joyingdan qo‘zg‘atolmas.

Eshit, meni bobojon!  
Men o‘lsam-chi mabodo?!  
O‘lsam! Shoshib vagonga  
Chiqarmisan, yo‘qmi yo‘?!  
Mening motam to‘yimga  
Kelarmisan o‘shal kun,  
Shum “o‘lim madhiyasini”  
So‘nggi bor kuylash uchun?!

Shunda o‘tirgil, bobo,  
Erk bermay ko‘z yoshlarga!  
Ishongil po‘lat tanli  
Bu uchqur tulporlarga!  
O, qandayin zo‘r ot bu,  
Haybatidan aql lol.  
Germaniyadan sotib  
Olishgandir ehtimol!

Uning cho‘yan og‘zi-ku  
Olovlarga ko‘nikkan.  
Quyuc tutunin yellar  
Ot yoliday to‘zg‘itgan.  
Bizning tulporlarda ham  
Shunday yol bo‘lsaydi gar.  
Chiqqan bo‘lardi ko‘plab,  
Turli-tuman cho‘tkalar.

Bilamanki, vaqt hatto  
Tog‘- Toshni ham yemirar.  
Bir kun kelib, bobojon,  
Kimligim ham bilinar!  
Hatto eng zo‘r otni ham  
Chanaga qo‘shsang yelar.  
Lekin olis yurtlardan  
Faqat suyaging kelar!

Bir kun anglarsan, bejiz  
Ketmadim u yonlarga...  
Yugurish, uchishdan ham  
Tezkorroq makonlarga!  
Mamlakatni qoplasa  
Olov, bo‘ron to‘ri ham.  
Yomon otni o‘lsa-da –  
O‘g‘irlamas o‘g‘ri ham!

Ko'm-ko'k tuman. Qorli kengliklar,  
 Nimdoshgina, limonrangli oy.  
 Yurakka xush yoqar dilgir og'riq-la,  
 Yoshlik chog'larini eslatgan chiroy.

Zinada yig'ilgan qor o'xshar qumga,  
 Shunday oydin tunda chiqarmay sasim,  
 Mushukmo'y telpagim bosib yuzimga,  
 Pinhon tark etgandim otam kulbasin.

Yana qaytib keldim qadrdon yurtga,  
 Kim meni eslaydi. Kimdir unutgan.  
 Quvg'indi, g'aribdek turibman o'ychan,  
 Uyim ham egasin necha yil kutgan?!

Jim-jit g'ijimlayman yangi qalpog'im,  
 Menga uncha yoqmas suvsar mo'ynasi.  
 Eslarman bobom va buvijonimni  
 Va sokin mozorning qorli yo'lkasini.

Bir kun hamma borar ushbu manzilga.  
 Behuda, xoh kuyin, xohi kuyinma.  
 Shu bois, men sizga intilgum, do'stlar,  
 Odamlar, shu bois sizni suyarman.

Shu bois yig'lagim keladi mani,  
 Kulib turib, g'amga botgum tobora,  
 Zinasida it bog'loqlik kulbani  
 Go'yo ko'rib turgandek so'nggi bora.

Shamollar esgaydir, kumush shamollar,  
Ipakdek qorlarning shovurida jim.  
Ilk bora men shunday surdim xayollar,  
Avvallar hech bunday o'ylamagandim.

Mayli, derazamda chirib yotsin nam,  
Aslo achinmayman, g'amga to'lmayman.  
Baribir sevaman bu hayotni man,  
Shunday sevganmidim ilk dam, bilmayman?!

Jim tabassum qilar menga bir ayol,  
O, qanday yelkalar! Qalbda hayajon.  
Foytunmi, tor yo'lda yelar naq shamol,  
Bu yo'ldan o'tganman men allaqachon.

O, mening omadim va saodatim!  
Sevimli zaminij insonlar baxti.  
Dunyoda bir bora yig'lasa kimdir,  
Demak, chetlab o'tmish uning omadi.

Odmi yashash kerak, yashash shart oddiy,  
Ne bo'lsa hayotda, olmay malollar...  
Shu bois dalalar uzra abadiy  
Shamollar esgaydir, kumush shamollar.



Bo'ron bo'zlar lo'li skripkasiday,  
O'zi yaxshi, ey, kulguşi yomon qiz,  
Movi y nigohingga doş berolmas dil,  
Menga goh kerak, goh kerakmas ko'p his.

Sen mendan olissan, o'rtada farq bor –  
Sen yoshsan, men esa ko'p yashab qo'ydim.  
Yoshlarga baxt, bizga esdalik darkor,  
Qorli tunlar kelar ko'p dadil bo'lgim.

Loqaydmasman,  
Bo'ron – mening skiripkamdur,  
Sening kulgung qallda quyun qo'zg'atur...







Uchib ketdi kuz allaqachon,  
Yugurgilab keldi kumush qish.  
Qanotida ayozni pinhon –  
Olib keldi bamisli oqqush.

Charsillatib har yoqni sovuq,  
Hovuzlarni zabtiga olmish.  
Bu ishiga “rahmat” aytishib,  
Bolajonlar chapaklar chalmish.

Ana, oynalarga u ajib  
Go‘zallikni ketmish naqshlab.  
Hamma unga nigohin tikkan,  
Yuqoridan pastga ko‘z tashlab.

O‘ynab-uchib yog‘ar qor-bebosh,  
Yoyib yerga oq pardalarin.  
Bulut ichra miltirar quyosh,  
Yarqiratib qor parchalarin.



Siyrak o'rmon. Dala va dashtlar..  
Hamma yoqda oying shu'lasi.  
Ana, cherkov qo'ng'iroqlarin  
Eshitilar yig'loqi sasi.

Ko'z ilg'amas bepoyon yo'llar  
Azal-abad sevimli bari.  
Bu yo'llardan ko'p bora o'tgan  
Yaxshi-yomon rus kishilari.

Eh, chanalar! Ajib chanalar!  
Tog'teraklar muzin uyg'oting!  
Mening otam – oddiy bir dehqon,  
O'g'loniman men shu dehqonning.

Tupuraman shoirligim-u  
El-u yurtga mashhurligimga.  
O, ko'p yillar bu mo'jaz joyni  
Ko'rish nasib qilmadi menga.

Kimki bir bor ko'rsa bu yurtni  
Va his etsa bepoyonligin,  
Oq qayinlar oyog'in o'pib,  
Yashirolmas edi shodligin.

Qanday ko'zyosh to'kmayin, axir,  
Porlab tursa gulchambar-u sham  
Va yonimda rus qishlog'ining  
Sho'x yoshlari yursa shod-xurram?!

Eh garmoshka – o'lim va og'u,  
Bil, bu faryod sassiz yitmagay.  
Bironta ham shon-sharaf hissi  
Hud-behuda o'tib ketmagay.

Senday suluv qizni ko'rmadim,  
Faqat buni qalbgga yashirdim.  
Mening shirin alamim shulki –  
Takrorlanar senda yoshligim.

Nargis ko'zli, go'zal singlimsan,  
Seni suyib o'tgum umrbod.  
Ne xabar bor sigirimizdan,  
Somon kavshab yurganmikan shod?!

Bir kuylab ber, menga, azizam,  
Orom olay go'dakdek mudrab.  
Yonib ketmadimi ryabina –  
Oppoq gullab deraza uzra?!...

Neni kuylar bechora onam,  
Men qishloqni etdim butkul tark.  
Bilganim shu – sovuq bo'ronlar  
Uchirmishdir bizni misli barg.

Bilamanki, sen va men birga,  
Birga quvonch-g'amlarimiz ham.  
Darvozada uvlar itimiz –  
Ma'yus kelin haqida bu dam.

Lek baribir qaytmoq shart emas,  
Chunki fursat bo'lgan yo'q, jonim.  
Mehrim, qayg'um, quvonchimdir bas –  
Sening ryazancha ro'moling.

Balki kech, juda ham erta ehtimol,  
Ko'p yillar, bu haqda o'ylamagandim.  
Beqaror yashab men Don Juan misol,  
Tinimsiz shamollar shoiri bo'ldim.

Menga nima bo'ldi? O'zi nima gap?  
Har kuni tizzamda o'zga bir dildor.  
O'zimga achinmay qo'ydim, vo ajab,  
Xiyonat alamin tan olmay zinhor.


Istardim yuragim kamroq urishin –  
Oddiy va bu nozik hislar-chun har dam.  
Men nima izladim, hissiz, aldamchi,  
Yengiltak juvonlar qaroqlaridan?

Menga to'zim ber, ey, yoniq nafratim,  
Sen-la qayd etganman hayot shavqini.  
Bu kun qallda sovuq bir qaynash hissi  
Hamda sirenlarning moviy shovqini.

Qallda – kunbotarning limonrang nuri,  
Bor gap eshitilar, gar har yon tuman.  
Erk deya dilda bir intiqom bordir,  
Chorlovim qabul et, ey, sen, Don Juan!

Men chorlovni qabul qilib xotirjam,  
Boqarman, ko'zlarim yulduzdek porlab,  
Bo'ron may gullarin eslatar bu dam,  
Tuyg'ular titrog'in mehr-la chorlab...

Shunday bo'lib qoldi, ranjimoq nechun,  
Shu bois, tizzamda ko'plar izi bor.  
To abad baxt kulib boqmog'i uchun,  
Achchiq xiyonatga tan bermam zinhor!



*(Feruz NE'MATULLAYEV tarjimalari)*





\* \* \*

To'yib ketdim dildosh o'lkadan,  
Umidlarni g'amlarga yo'g'rib.  
Boshim olib bu xarobadan  
Ketgum bo'lib darbadar o'g'ri.

Tentirayman charog'on har kun,  
Joy izlayman qo'nimga bir dam.  
Eng sevimli do'stim men uchun  
Xanjarini saqlar qo'ynida.

Kuzgi quyosh nuridan viqor  
Xazonlarga ko'mgan yo'llarni.  
Ismin dilga o'ygan hurliqo  
Ostonadan quvladi meni.

Ota uyga kelurman yana,  
O'zga baxtdan ovunganim chog'.  
Oqshom cho'kkan payti oynadan  
Tomog'imga solurman sirtmoq.

Devor uzra oqargan tollar,  
Boshlarini silkitar mahtal.  
Yuviqsizligimcha ko'marlar  
Daydi itlar uligan mahal.

Vaqt qayig'i oshiqar juda,  
Eshkablari ko'lga tutib yuz.  
Yig'lab, kulib devor ortida  
Doimgidek yashayverar, Rus.

Ota uydan ketdim olib bosh,  
Moviy Rusga butkul qo'1 silkib.  
Isitadi soyni, entikib,  
Qayinzorda onam to'kkan yosh.

Oltin qurbaqadek ko'kda oy  
Aksi soyda jimirlab tindi,  
Olma guli kabi, hoyna hoy,  
Otam soqoliga oq indi.

Ortga qaytmam endi yaqin dam,  
Kuylab o'tgum bo'ronlar baxtin.  
Qo'riqlaydi moviy Rusni ham  
Bir oyoqda chinor daraxti.

Xazonlarni o'parkan yomg'ir,  
Anglab yetdim, bunda quvonch bor,  
Shundan menga o'xshaydi, axir,  
Boshi ila ul qari chinor.



1

Ingrar, ingrar singan har bir shox!  
Yo'ning isqirt boldiriga biz  
Endi qanday ko'nikamiz, oh.

Ey, burgadek "oh" sevguchilar,  
Istamasangiz

.....  
To'la tumshuq suqarkan quvnoq,  
Sevib, sevmay – xohishin tanlar.  
Yaxshiki, shom mazah qilgan chog'  
Sening semiz ketingga bog'lar  
Qon bo'yalgan supurgi to'qmoq.

Qish ko'rpsin tashlaydi hali,  
Shoxlar va yo'l bo'ladi oppoq.  
Halokat yuz tutgan mahali  
Qochib qayga ketarsiz yiroq.  
Ana, po'latqorin baytali  
Dasht bo'g'ziga tortar shapaloq.

Chalar eski tegirmon burg'u,  
Qanotida bir ifor kezar.  
Bosh ustidan quyilgandek suv  
Hovlidagi bu ho'kiz esa  
Labin yalab, dala uzra u  
Falokatning hidini sezar.

2

Balki shundan qishloqda ul dam  
Garmonika yig'laydi achchiq:

<sup>1</sup> Pravoslavlarda: marhumning xotirasiga bag'ishlab qirq kun davomida o'tkaziladigan duoyi fотиha.



Talya-lya-lya, tili-tili-gom  
Oppoq tokcha uzra osig'liq.  
G'azab to'la shamol yolqini  
Xazonlarni quvarkan og'ir,  
Taroq kabi otlar yolini  
Tarab o'tar zarang yaprog'i.  
Xabar etar momaqaldiroq  
Chakalakzor tinchini buzib,  
Qurbaqalar kuylar balandroq  
Poxol ichra ko'ksini uzib.  
O, elektr tongi oldinda,  
Tasmalar va quvurlar ila  
Ana, kelar, yog'och qorinda  
Temir bezgak qilib zilzila.

3

Ko'rdingizmi, tutunga botib,  
Tumanli ko'l atrofida tez,  
Temir burni zo'r xurрак otib,  
Rels kaftida o'tarkan poyezd?

Va ketidan o'tloq entikib,  
Og'ushiga sachrab qora moy,  
Qizg'ish yungli boshin tik tutib,  
Yugurgancha qolar ekan toy.

Ey, bu aziz, kulguli galvars,  
Axir, kimni quvmoqqa shoshar,  
Nahot bilmas, tulporlarni dast  
Mag'lub etgan u po'lat askar?!  
Nahot bilmas, kelmas qaytadan  
Dalalarda chigal yozgan on,  
Rus yigitlar endi arpadan  
Otlarga deb tutmasligin non.  
Taqdir asli bozor ustuni,  
Uyg'otib rels berarkan ovoz,

Pullab minglab tulpor go'shtini,  
Sotib olar endi paravoz.

4

Jin urgur, kim seni chaqirdi,  
Kuyimiz yot, ey, temir nasli,  
Yoshlik chog'i suvga paqirdek  
Cho'ktirsam xo'b bo'larkan asli.  
Seni sevib kuzatishar tik,  
Rels labiga labing tutar qand,  
Kuylar edim chala rohibdek  
Yolg'iz o'zim yaratganga hamd.  
Shul sababli sentabrga shay,  
Qurib ketgan yer chekarkan g'am,  
Alamdan bosh yorib qulupnay,  
Tuproqni qon bilan qilar nam.  
Shundan o'zin urar har bir sas  
Talyankadan dil dardiga qoq  
Va bir erkak adashgancha mast  
Bad may bilan qondirar chanqoq.



\* \* \*

Kuylagin la'nati gitarda,  
Barmoqlaring o'ynasin shaxdam.  
Mashmashada qolib ketarkan,  
Nahot, yolg'iz, dilkash do'stginam.

Yelkasida kokili qat-qat –  
Qolma sira termulib uzoq.  
Bu ayoldan baxt izlab, faqat,  
Baxtsizlikka yo'liqdim ko'proq.

Bilmas edim, muhabbat – gina,  
Bilmas edim, muhabbat – vabo.  
Ayyorona ko'zlari ila  
Aylantirdi boshim hurliqo.

Kuyla, do'stim. Xotirla takror,  
Qo'zg'a bizning eski yarani.  
Yosh, chiroyli bu bevafo g'ar  
O'paversin, mayli, boshqani.

Oh, to'xtagin. Urishmam uni.  
Oh, to'xtagin. Qarg'amasman hech.  
Kel, o'ynatib cholg'u torini  
Kuylab beray o'zimdan bu kech.

Oqib borar zangor kunlarim,  
Oltin boshim cho'kadir mukka.  
Ko'p qizlarni tutdi qo'llarim,  
Ko'p ayolni qisdim burchakka.

Ha! Haqiqat bor dunyoda chin,  
Bolalarcha boqdim yengiltak:  
Bir urg'ochi chanqoq it uchun  
Navbat turar uch-to'rtta ko'ppak.

Menga nechun uni rashk etmoq,  
Nechun og'riq ul ishq bobida?

Bizning hayot – to‘shakli yotoq –  
Qolmoq ikki lab girdobida.

Kuyla! To‘lib hur tuyg‘ularga!  
Qo‘llaring har chertkida in‘om.  
Men tupurdim, do‘stim, ularga,  
O‘lim yo‘qdir menga hech qachon!



Sen yot quygan qadahga asir,  
Ammo qoldi sendan menga rost,  
Oltin sochlaringning jilosi  
Ko'zda kuzgi horg'inlik, xolos.

Menga yashab o'tgan kuz, axir,  
Chopag'on yoz taftidan aziz.  
Seni tasvir etarkan shoir,  
Kuch oladi senga bo'lgan his.

Yolg'on ayta olmasman qasddan,  
Bor ovozda qilgancha nido,  
Shuning uchun, ikkilanmasdan  
Sho'xliklarga degum alvido.

Qo'l silkmog'im tayin jiqqamusht  
Va janjalkash ko'nglimga qarab.  
Etib bo'lgan yuragim sarxush  
Uyg'otuvchi qon rangli sharob.

Qizg'ish shoxin silkib erta kech,  
Derazamni chertkilaydi tol –  
Tayyorlaydi, kelganida hech  
Bo'lmasin deb kutmog'im mahol.

So'zim tushgay yot aytgan so'zga,  
Janjalsiz va o'zgarmasdan tus.  
Endi uylar, qabrlar o'zga,  
O'zga bo'lib ko'rinadi Rus.

Termulaman ko'zlarim yonib,  
Har tarafga aylantirib bosh.  
Singlim, do'stim, sen bu dunyoda  
Balki bo'lar eding yelkadosh.

Kuylar edim bir senga yolg'iz  
Xohishingga bosh egib, juda,  
Shomdan yo'lda qolar ekan iz,  
Ketayotgan sho'xlik haqida.



Senga boqib dard tuyar ko'ngil,  
Qanday og'riq, qanday iztirob.  
Sarg'aygan tol shox-shabbasi, bil,  
Ikkimiz-chun qilmoqda xitob.

Olib ketar begona lablar  
Taning uzra chatnagan o'tni.  
Shundan go'yo yurakka qadar  
O'lik hislar tomchilab o'tdi.

Nima bo'пти! Qo'rquvdan nari,  
Qo'ndi o'zga baxt qushi boshga.  
Axir, ortiq hech ne qolmadi  
Kuzgi hazonrezgidan boshqa.

Quvonch sari uzatmoqqa qo'l,  
Ayamadim o'zimni hatto.  
Haddan ziyod bosib o'tdik yo'l,  
Har qadami liq to'la xato.

Hayot tartibsiz va beadog',  
Shunday bo'lar bundan keyin ham.  
Qabrlar qad ko'targan bir bog',  
Qayinzor singari muhtasham.

Shu bog' uzra dod solib, gullab,  
So'ladirmiz ertami yo kech.  
Qish faslida unmaydi gullar,  
Qayg'urmagin ular uchun hech.

\* \* \*

Moviy o't avj olar tobora,  
Ona diyor yodimdan o'chdi.  
Kuyga soldim ishqni ilk bora,  
Ilk bor bezorilikdan kechdim.

Men bog' edim – to'zg'igan, xarob,  
Ayllarning ishqida sarmast,  
O'yin tushib, sipqorib sharob,  
O'z umringa qildim suiqasd.

Yetar edi, nazar tashlab bir,  
Moviy ko'zlaringga bo'lsam g'arq,  
Ketmas eding yot bilan, axir,  
O'tmishingga qo'l silkib befarq.

Nafis qadam tashlab, entikib,  
Bilsang edi yurak ozorin,  
Sabot ila tik boshin egib,  
Qanday seva olar bezori.

Mayxonani butkul unutib,  
Tashlar edim she'r yozishni ham,  
Faqat, nozik qo'lingdan tutib,  
Kuz rangidek soching silasam.

Ketardim bariga silkib qo'l,  
Xoh yot yurt, xoh begona, dildor.  
Kechib bezorilikdan butkul,  
Sevgi haqda kuyladim ilk bor.



\* \* \*

Kel, yonimda o'ltir, dilrabo,  
Ko'zlar to'qnashuvga muntazir.  
Bo'ron kuyin nigohlar aro  
Tinglamoqni istayman, axir.

Kuz faslining oltin ranglari,  
Oqargan har sochlari taram –  
Qutqaruvga yaralgan kabi  
Bir o'ynoqi yurakka hamdam.

O'lkam ancha yiroqda qoldi,  
Pichanlar tong nuriga to'lib...  
O'zim istagandek nom oldim,  
Shaharlik bir olifta bo'lib.

Yoz issig'in sochgan bog'larda  
Qurbaqalar qo'shig'in tinglab,  
Men ilk bor she'r yozgan chog'larni  
Yodga olsa bu devona qalb.

Derazadan jo'ka va zarang  
Butalari tintir xonamni –  
Axtaradi o'z yurtin arang  
Eslay bilgan biror odamni.

Undaylarni topmassiz izlab,  
Borlari ham tuproqqa do'ngan.  
Xochlari nur ila yaltirab  
Go'yo bizni chorlar mehmonga.

Biz boramiz tutib qo'llardan,  
Uyquga ko'z yumamiz bir-bir.

Faqat erkin, egri yo'llarda  
Tiriklar chin quvonchga asir.

Ko'zlarini kutar ko'zlarim,  
Kel, yonimda o'ttir, dilrabo.  
Istaganim, bo'ron kuylarin  
Tinglamoqlik nigohlar aro.



\* \* \*

Bo'lmagandim hech bunday horg'in.  
Moviy sovuq chakkilagan dam  
Tush ko'raman Ryazan osmonin,  
Baxtsiz kechgan hayotimni ham.

Ko'p ayollar ishqimda sarmast,  
O'zim ham ko'p sevar edim puch,  
May uzatar, etib mayparast,  
Shul sababdan, balki qora kuch.

O'tgan cheksiz tunlarim sarxush,  
Darbadarlik topmagay yakun.  
Qurt yaproqqa urganidek tish  
Charxlandimi ko'zlarim bu kun?

Og'ritmadi hech bir xiyonat,  
Quvontirmas omad ustma-ust,  
Oltin pichan sochlar kelib vaqt  
Kul rangidek ola boshlar tus.

Kul va suvga borar aylanib,  
Qayg'u ila kelar ekan kuz.  
Hech narsani bo'lmas qaytarib,  
O'tganiga qilmasman afsus.

Qilmam sira o'zimni majbur  
Tabassum etmoqqa behuda.  
Yengil tanda etarman huzur  
Marhum ruhni ko'tarib juda.

Ishratxona ichra beuyat  
Fohishalar bolidan tuyib,  
Go'yo g'ijim mato tabiat,  
Dazmolladik tosh-beton qo'yib.

Menda o'shal qonunlar bordir,  
O'lib borar ul quturgan cho'g'.  
Bosh egganim – ona' diyorni  
Men hali ham unutganim yo'q.

Yoshlik o'tgan chinor ostida  
Pichan uzra oyoq uzatib.  
Qo'l silkiyman chumchuq qarg'a va  
Boyqushlarni shoxda kuzatib.

Dalalarga etgum arzihol:  
“Bezoriligimdan xabarni,  
Qushlar, ko'kka yetkazing alhol,  
Yomg'ir yog'gan onda javdarni  
Savalasin xirmonda shamol”.



Menga qoldi faqat bir ermak:  
 Labim bosib chalurman xushtak.  
 Yomon xabar tarqaldi uyqash,  
 Atadilar meni janjalkash.

Yo'qotishdan yuzda tabassum,  
 Takrorlanar bu hol chindan ham.  
 E'tiqoddan qizardi yuzim,  
 Endi Haqsiz ko'ksimda alam.

Olis oltin dalalar, axir!  
 Turmush dilga o't qo'yar butun.  
 Janjalkashga ayladim oxir,  
 Quyosh kabi porlamoq uchun.

Iste'dodi shoirning – og'ir  
 Tuyg'ularni tirnamoqdir goh.  
 Men faqat atirgul yaprog'in  
 Qora yerga ayladim nikoh.

Zangor kungi o'ylarim bugun,  
 Mayli, qila olmadim udda.  
 Lek dillarga uya qurdi u –  
 Farishtalar tin oldi unda.

Shunday quvnoq so'zlarim sabab,  
 Ketgum, vaqt so'ngiga yetgan chog'  
 O'tinaman ommaga qarab,  
 Kimlar menga bo'lishsa hamroh –

Yaratganning marhamatiga  
 Ishonchim va gunohim uchun,  
 Eting meni rus ko'ylagida  
 Butlar<sup>1</sup> ichra o'limga mahkum.

<sup>1</sup> Ikonalar nazarda tutilmoqda.

Sovuq ila bermagin azob  
Va tashlama yoshimdan savol,  
Sobit g'am-la tuslandim shu tob  
Qalban sariq skelet misol.

Orzularga bosh egdim bir dam  
Bola kabi – o'ylab charchagan:  
Taniqli va boy bo'lib men ham  
Yoqadirman birdek barchaga.

Ha, boylikdan to'ladir qo'njim,  
Silindrim bor edi hatto...  
Endi esa egnimda g'ijim,  
Tugmalari qadalgan mato.

Taniqliman – kam emas, sabil,  
Moskvadan Parijga qadar  
Mening ismim haqorat kabi  
Yuraklarda qo'rquv uyg'otar.

Sevgi ermak emasmi, axir?  
Lab bosasan – temirdek sovuq.  
Bilaman, men endi toshbag'ir,  
Sen tuygan tuyg'udan umid yo'q.

O't olmoqqa vaqtli, hoynahoy,  
G'am quchsa ne, emas falokat!  
Qabrda bo'y cho'zgan sho'raday  
Zar kokiling to'lg'onar qat-qat.

Ortga qaytmoq istagim, bot-bot,  
Shu sho'ralar sasida sim-sim

Boladek o'y sursam, umrbod  
Kimligimni bilmasa hech kim.

Orzu qilmoq olamni o'zga,  
Yaqin bir do'st va lekin, inon,  
Ko'chmaydi hech yurakdan so'zga,  
Tasvir bera olmaydi inson.



Minglab odamlar qatorida  
Sen ham Rusning oddiy odami.  
Ayon erur, tong otarida  
Kuzning moviy salqinbaxsh dami.

Tinmadi hech sho‘xlik shamoli,  
Yengil o‘ylar boshga berdi pand.  
E’tiqodli hazin jamoling  
Ryazan cherkovlarin etar band.

Arzimas bu butlar chaqaga,  
Bezoriga do‘ndim gohida,  
Endi so‘zlar o‘sib chiqadi  
G‘amgin-g‘amgin kuylar ohida.

Qismatingga qilmayman havas,  
Ko‘p kerakli o‘zimga jismim.  
Takrorlaydi uchragan har kas,  
Nechun, avgust yelidek isming?

Gadoy bilma, chiqindi titsam –  
Bolalikdan sevaman buni.  
Yoki tinglab turib his etsam  
Akillagan itlar dardini.

Asramadim o‘zimni bir zum,  
Hech biringga yo‘q deb keragim.  
Garov – eng qayg‘uli baxt uchun  
Telbasifat oshiq yuragi.

Xazon yig‘lab ko‘zim horigan,  
Shundan dilda achchiq g‘am ta‘mi...  
Axir, oddiy el qatorida  
Sen ham Rusning oddiy odami.



Oqshom qora qoshlarin uydi  
Yo'lda o'zga egali uch ot.  
Yoshligimga ham nuqta qo'ydim  
Kecha senga ishq tuyib, nahot.

Otlar, nafas olmang hech qalqib!  
Izsiz o'tib ketdi umr ham.  
Shifoxona yotog'i balki  
Erta menga o'raydi kafan.

Yo o'zgacha bo'lar ertaga,  
Otdok sog'lom tashlayman qadam,  
Yashamog'in kuylar jo'rtaga  
Yong'ir qanday dard ko'rmay odam.

O'chgay yodimdan tunggi ofat,  
Ofatki, ul sug'urguvchi jon.  
Nazokatli, go'zal qiyofa!  
Unutmayman seni hech qachon.

Garchi ishqim o'zgaga tushib,  
Men uni, ham quchib o'zgani,  
Sevganim deb so'zlarman jo'shib  
Sevganimga seni, sevganim.

Hammasini berurman so'zlab,  
Bo'lgan bo'lmaganin o'shal payt...  
Xayolimni butkul o'g'irlab,  
Ne ko'ylarga solding meni, ayt?!

Yodimdadir, sevgilim, hamon,  
Sochlaringning jilosi yorqin.  
Na baxt sezdim, na bo'ldi oson  
Seni tashlab ketayotgan kun.

Yodda, qayin ostida tunlar  
Ikki sharpa ochgani chiroy –  
Qisqa edi u kuzgi kunlar,  
Uzoq porlar edi ko'kda oy.

Yodimdadir aytganlaring: “Ul  
Moviy yillar o'tar betinim,  
Unutarsan sen meni butkul  
O'zga bilan bo'lib, sevgilim”.

Esga keldi hislar yarq etib  
Bugun jo'ka charaqlagan dam:  
Qanday mayin silagan edim  
Jingalak gul sochlarni – taram.

Yurak o'ti so'nmoqda nari,  
G'am-la suyib boshqasin, hayhot,  
Go'yo u bir qissa singari  
Etar ekan o'zga bilan yod.

Porla, mening yulduzim, yuksak,  
 Sovuq nurlar taratib ko'kdan.  
 Qabr panjarasi ortidan  
 Sado bermas hech tirik yurak.

Avgust tuni tovlanib, javdar,  
 Ham to'ldirib dala bag'rini.  
 Uchib ketolmagan turnalar  
 Chekkan ohi ila og'rinib.

Boshginamni tutganda baland,  
 Daraxtlarga, qirlarga boqib,  
 Hayolimni bir kuy etar band  
 Vatan sog'inchini uyg'otib.

Yakuniga umr ertagin,  
 Ko'ngil sezar, qoldi juda kam.  
 Qabriston bag'ridan ertaga  
 Joy topilib qolar menga ham.

So'ng yulduzim so'nar umrbod,  
 Yurak bo'lar nimkala, yarim.  
 Quvnoq so'zlar bilan etib yod,  
 Qabrtoshi qo'yar do'stlarim.

Lek o'zimni ta'riflab derdim  
 Tobutim-la to'lar bo'lsa go'r:  
 O'z yurtini u sevgan edi  
 Mayxonani sevgandek mayxo'r.

Gullar menga qolar silkib qo‘l,  
Ta‘zim aylab, alvido aytib.  
To‘qnashmaydi borayotgan yo‘l  
Gul husniga, o‘lkamga qaytib.

Oh, azizam, ne bo‘lardi, ayt!  
Men ularni, ko‘rdim jahonni.  
Qabr dilga titroq solgan payt  
Oshiq kabi baxsh etdim jonni.

Shuning uchun, xandon otarman  
Va tabassum etarman oshkor,  
Har lahzada bir so‘z qotarman:  
Bu dunyoda barchasi takror.

Lek, baribir, to‘ladir qo‘yning,  
Unutilmas o‘tgan dam biroq,  
Bir tashlandiq men chalgan kuyni  
Chalib berar mendan yaxshiroq.

Qo‘shiq tinglab sukutda, qalqir  
Yor o‘zga yor og‘ushi sari,  
Men haqimda o‘ylaydi, balki,  
U betakror bir gul singari.

\* \* \*

Oh, qanday tun. Uyqu begona.  
To'lishgan oy. Ko'ngilda g'ashlik.  
Uyg'onadi sohilda yana  
Qachonlardir tark etgan yoshlik.

O'tmishimda qolgan pariro'y,  
O'yinni ishq atama zinhor.  
Oy nuridan taralgan viqor  
Boshim uzra ko'kka cho'zar bo'y.

Yengil-yelpi harakatlaring  
Hislatlaring etar namoyon –  
Meni tashlab keta olmading  
Seva olmagandek hech qachon.

Ikki bora sevmas hech odam,  
Shu sabab sen qalbga yetti yot.  
Poyimizdan tutib, behuda,  
Og'ushiga chorlar puch hayot.

Ajralishib, etdik boshpana –  
Men o'zga, sen o'zga qo'ynini.  
Befarq o'ynamoqdamiz yana  
Qiymati yo'q sevgi o'ynini.

Lek, baribir, qaynasin bilak  
Tuyib ayyor o'pichlar ta'min  
Va hamisha his qilsin yurak  
Men bir umr suygan narsani.

Achinmaysan, sevmaysan sira,  
 Yo husnimdan topdingmi bir gard?  
 To'lg'onasan ehtiros ila  
 Qo'llaringni yelkamga tashlab.

Na dag'al, na edim mehribon,  
 Vujuding yosh, ko'ngling nozikta'b.  
 Ilintirding qanchasin, jonon?  
 Lablaringni tanir qancha lab?

Bildim, ular soya singari  
 Ilg'ashmadi sendagi o'tni.  
 Quhog'imga olganim kabi,  
 Tafting bilan yondirding ko'pni.

Kipriklaring titrab, entikib,  
 Men sendan sovugan bir vaqtda  
 Uzun yo'lga nigohing tikib,  
 O'ylar eding o'zgalar haqda.

Taqdir deya ko'rma buni, oh!  
 Yengil xayol yaratgan bo'shliq –  
 Uchrashgandik sen bilan nogoh,  
 Bo'lar endi nogoh ayriliq.

O'z yo'lingdan ketarsan sen ham,  
 O'tgan baxtsiz kunlarni eslab.  
 Faqat pok dillarda yoqma sham,  
 O'tsizlarga ochma sira qalb.

O'zga bilan chiqib, sayrda  
 Sotganingcha ishqdan safsata,  
 Balki o'tib men o'sha yo'ldan  
 To'qnash kelar nigohlar qayta.

Sekin nazar tashlab men tomon,  
Biroz ta'zim aylagan oning  
So'z ochasan: "Xayrli oqshom!"  
So'z qotaman: "Sizga ham, xonim!".

Hech ne dilni yemirmas zinhor,  
G'am ustiga yog'ilmaydi g'am –  
Chindan sevgan sevolmas takror,  
O'tni yoqib bo'lmas qaytadan.



Men kim? Ulug' orzu shaydosi,  
Baxtsiz qo'shiq kuylaguchi tor.  
Hayot yo'lim o'tarman bosib,  
O'zgalardek birma-bir, dildor.

Bo'sa olmoq eski odatim,  
Lablarimni tanir ko'p jonon,  
Va go'yoki bir gulxan yoqib,  
Muhabbatdan so'zlayman shodon:


“Butun umr”, “ikkimiz”, “jonim”,  
Tuyg'ularga uzatsang gar qo'l,  
Chin ko'ngildan sevgan insonni,  
Haqiqatni topmoqlik mushkul.

Og'ir olmas buni yuragim,  
O'z o'tida kuydirmaydi g'am,  
Sen men uchun yaralgan qayin,  
Tegishlisan o'zgalarga ham.

O'zim uchun izlab yelkadosh,  
Chin og'riqqa talpinganim on,  
Jazmanlardan qilmagayman rashk,  
Qarg'amasman seni hech qachon.

Men kim? Faqatgina orzumand,  
Baxtli qo'shiq izlaguvchi tor.  
Sevgan edim, axir, seni ham,  
O'zgalarni sevgandek, dildor.





*(O'ktam ODILOV tarjimalari)*





## IT BOLASI

Bo'y ko'rsatdi yillar zimiston  
Moychechakzor kabi hayqira.  
Yodga oldim itim qadrdon,  
Bolaligim sirdoshi – jo'ra.

Endi yoshlik shavqi ham tingan,  
Chirib bitgan zaranga matlub,  
Esimdadir oq libos kiygan,  
Nigorga it tashirdi maktub.

Baland emas hammada tole,  
Singib kirdi qo'shiqqa nigor,  
Qiyο boqmay maktublarimga  
Zanjirbog'dan olmayin zinhor

Maktublarim o'qimas harchand,  
Dastxatimdan yo'qdir xabari,  
Kezar uzoq ne orzu-la band  
Bodrezakda hovuzdan nari.

Azoblandim... Men javob istab...  
Kutolmadim... ketdim... Va mana  
Yillar osha shoir-u matlab,  
Qoqmish tanish qopqani yana.

O'sha it ham qachonlar o'lgan,  
Ammo o'xshash har bir tolasi.  
Telbanamo akillash bilan  
Meni qarshi oldi bolasi.

Yo alhazar! Bu qanday ro'yo!  
Bosib kelar yangi bir azob.  
Qaytgan kabi yoshligim go'yo,  
Yangi noma bitsaydim shu tob.

Tanish kuydan masrur bu yurak,  
Akillama! Yetar! G'ingshima!  
Hohla, seni o'payin, ko'ppak,  
Quvonch baxsh etding hissima.

O'pay seni quchoqlab hargiz,  
Uyga boshlay aylabon e'zoz.  
Ha, yoqqandi oq ko'ylakli qiz.  
Endi yoqar zangori libos.



\* \* \*

Yashab o'tgan umringa boqib,  
O'z-o'zimga aytaman raso:  
Baxtlidir u umrin bezatib  
Xurjun osib tutolsa aso.

Baxtlidir u qashshoqlikda shod,  
Kuni qolmay do'st-u, ag'yorga,  
Tuproq yo'ldan yugurib ozod,  
Topinolsa aziz diyorga.



## MUNDARIJA

O'zim haqimda.....	3
<b>GO'DAKLIKDAN MA'LUM HAR ODAM, BOLA BOSHDAN DEGAN GAP TO'G'RI</b> <i>(Erkin VOHIDOV tarjimalari)</i>	
<b>She'rlar (1917–1924)</b>	
Ona ibodati.....	6
It haqida doston .....	7
“Tongda meni, uyg'ot ertaroq” .....	8
“Go'daklikdan ma'lum har odam” .....	9
“Meni so'kmang! Bo'lar ish bo'ldi” .....	10
“Aldamasman o'zimni” .....	11
“Bas! Bo'lar ish bo'ldi, kerakmas” .....	12
“Bir manzilga borurmiz kam-kam” .....	13
Sovet Rusi.....	14
Kavkaz .....	17
Yigirma oltilar balladasi .....	19
Stanslar.....	24
Ketayotgan Rus.....	27
Ayolga maktub.....	31
Onamdan maktub.....	35
Javob .....	38
<b>Fors taronalari (1924–1925)</b>	
“Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan” .....	41
“Bugun dedim sarrofga atay” .....	42
“Shahinam, o, mening Shahinam” .....	43
“Deding: Sa'diy doimo yorning” .....	44
“Men Bosforda bo'lmaganman hech” .....	45
“Za'far yurtga nur to'kar oqshom” .....	46
“Havo toza, musaffo, zangor” .....	47
“Oy yuzida tillarang jilo” .....	48
“Xurosonda bir darvoza bor” .....	49
“Firdavsiyning moviy diyori” .....	50
“Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap” .....	51
“Bir juft oqqush – jonon qo'llari” .....	52
“Nechun ma'yus taratar ziyo” .....	53
“Talpinma ko'p, devona ko'ngil” .....	54
“Moviy o'lkam, quvnoq diyorim” .....	55
<b>1925-yil she'rlari</b>	
Zamin darg'asi .....	56

Xotira .....	59
Hayot yo‘lim .....	60
Kachalovning itiga .....	66
“Kel, meni o‘p, o‘pa qol” .....	67
“Endi qaytmam uyimga” .....	68
Singlimga xat .....	69
“Tong otadi bezor va jim” .....	71
“Selday toshar chumchuq suroni” .....	72
“Bu dunyoda men bir yo‘lovchi” .....	73
“Lablaringni burma, qilma nozli tamanno” .....	74
“Dalalar oq kiygan, oqargan oy ham” .....	75
“Shoir, tun qo‘ynidan nima izlading” .....	76
“Boqma menga buncha g‘azabkor” .....	77
“Xayr endi, xayr, do‘stginam” .....	78

### **Dostonlar (1924–1925)**

Erkinlik.....	79
Ulug‘ jang qissasi .....	82
O‘ttiz oltilar dostoni .....	98
Anna Snegina.....	113
Qora odam .....	137

### **So‘nggi tarjimalar**

Bezoriman qo‘shig‘imda ham.....	142
Vatan .....	143
Bezorining ko‘ngil izhori.....	144
“Devor tagin panalab kelib” .....	147
“Shafqatsizga hamma narsa bor” .....	148
“Ey, sen, ko‘hna, sehrli qishloq” .....	149
“Yig‘lamasman, qilmasmam fig‘on” .....	151
Bezori.....	152

## **MAROQSIZ QO‘SHIQLAR, G‘AMGIN SADOLAR, IMKON BERING ERKIN OLMOQQA NAFAS**

(Zikrilla NE‘MAT tarjimalari)

“Oqshom cho‘kmish. Chayon o‘t” .....	154
“Oq shumurtlar qor-la to‘kilar” .....	155
Qo‘shiqqa o‘xshatma .....	156
“Qorong‘u tun, uxlo olmay” .....	157
“Xo‘b qiz edi Tanyaxon, qishloqda hech tengi yo‘q” .....	158
Bahor oqshomi.....	159
Tun .....	160

Shoir.....	161
Qayg‘u ohanglari.....	162
Ko‘z yoshlar.....	163
1912-yil 26-aprel bo‘roni.....	164
“Sokin tun qo‘ynida sen yig‘lading jim”.....	165
Qabr boshida.....	166
Qayin.....	167
“Daryo qo‘ltig‘i uzra sho‘x qamishlar shovullar”.....	168
“Ona yurtim! Qalbim qarog‘i”.....	169
“Hoy, Rus, mening ona diyorum”.....	170
Rus.....	171
“Tilanchilar kiyimin kiyib Xudo”.....	175
Xayrli tong!.....	176
“Sen ketding va boshqa qaytmassan”.....	177
Buvimning ertaklari.....	178
“Kuylab borar yog‘och arava”.....	179
“Ryabinalar qizarib”.....	180
“Don yig‘ilgan, dalalar bo‘m-bo‘sh”.....	181
“Ilk qor bo‘ylab kezinaman jim”.....	182
Pushkinga.....	183
“Menga faqat bir ovunch qoldi”.....	184
“So‘zlab bo‘ldi oltinrang o‘rmon”.....	185
Onamga xat.....	186
Vatanga qaytish.....	188
Bobomga maktub.....	192
“Ko‘m-ko‘k tuman. Qorli kengliklar”.....	196
“Shamollar esgaydir, kumush shamollar”.....	197
“Bo‘ron bo‘zlar, lo‘li skripkasiday”.....	198
“Uchib ketdi kuz allaqachon”.....	199
“Siyrak o‘rmon. Dala va dashtlar”.....	200
“Senday suluv qizni ko‘rmadim”.....	201
“Balki kech, juda ham erta ehtimol”.....	202

## KUYLA, DO‘STIM. XOTIRLA TAKROR, QO‘ZG‘A BIZNING ESKI YARANI

(Feruz Ne‘matullaev tarjimalari)

“To‘yib ketdim dildosh o‘lkadan”.....	204
“Ota uydan ketdim olib bosh”.....	205
Sorokoust.....	206
“Kuylagin lan‘ati gitarda”.....	209
“Sen yot quygan qadahga asir”.....	211

“Senga boqib dard tuyar ko‘ngil” .....	213
“Moviy o‘t avj olar tobora” .....	214
“Kel, yonimda o‘ltir, dilrabo” .....	215
“Bo‘lmagandim hech bunday horg‘in” .....	217
“Menga qoldi faqat bir ermak” .....	219
“Sovuq ila bermagin azob” .....	220
“Minglab odamlar qatorida” .....	222
“Oqshom qora qoshlarin uydi” .....	223
“Yodimdadir, sevgilim, hamon” .....	224
“Porla, mening yulduzim, yuksak” .....	225
“Gullar menga qolar silkib qo‘l” .....	226
“Oh, qanday tun. Uyqu begona” .....	227
“Achinmaysan, sevmaysan sira” .....	228
“Men kim? Ulug‘ orzu shaydosi” .....	230

**BAXTLIDIR U UMRIN BEZATIB  
XURJUN OSİB TUTOLSA ASO**

(O‘ktam Odilov tarjimalari)

It bolasi .....	232
“Yashab o‘tgan umrimga boqib” .....	234



*Adabiy-badiiy nashr*

**Sergey Aleksandrovich Yesenin**

**QORA ODAM**

*She'rlar va dostonlar*

**Tarjimonlar:** *E. Vohidov, Z. Ne'mat, F. Ne'matullayev, O'. Odilov*

Nashr uchun mas'ul  
*M. Bo'ronov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi  
*Masihulloh Madaminov*

Muharrir *Masihulloh Madaminov*  
Badiiy muharrir *Bezkod Zufarov*  
Texnik muharrir *Lina Xijova*  
Kichik muharrir *Matluba Salimova*  
Musahhah *Shohida Hojiyeva*  
Kompyuterda tayyorlovchi *Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 26-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'oz. «New Roman» garniturasida  
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 15,0.

Nashr tabog'i 13,18. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-45.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Yesenin, Sergey Aleksandrovich.**


Y 36 Qora odam [Matn]: She'rilar va dostonlar / S.A. Yesenin. Tarjimonal-  
lar: E. Vohidov, Z. Ne'mat, F. Ne'matullayev, O'. Odilov – Toshkent:  
«O'zbekiston» NMIU, 2021. – 240 b.

ISBN 978-9943-6583-9-4

Qo'lingizdagi mazkur to'plamda o'z ohangi va tarovati bilan kitobsevarlar qalbidan munosib joy olgan rusning o'tli shoiri bo'lmish Sergey Yeseninning dilbar she'r va dostonlari jamlangan. Qariyb bir asrdirki, Sergey Yesenin nafaqat rus, qolaversa, jahonning, jumladan, xalqimizning ham suyukli shoiriga aylanib ulgurgan. O'ylaymizki, Yeseninning davr nohaqliklari ustidan, xalq tarafida sobit turib aytilgan isyonkor so'zlari, shuningdek, asov hislar bilan tiliga ko'chgan o'tli misralari siz aziz kitobxonlarning ko'nglini yana hayajonga soladi.

UO'K 821.161.1-1  
KBK 84-5(2Ros-Rus)





18580, 55 cym





**S.A. Yesenin**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6583-9-4

